

O'TKIR ZEHNILILAR KITOBI

4

- Adabiyot
- Matematika
- Fizika
- Kimyo
- Tarix
- Chizmachilik
- Informatika
- Mantiqiy savollar
va jumboqlar




CH0000033548

ziziqarli testlar

O'TKIR ZEHNILILAR KITOBI 4

O'quvchilar uchun qiziqarli testlar

- Adabiyot
- Matematika
- Fizika
- Kimyo
- Tarix
- Chizmachilik
- Informatika
- Mantiqiy savollar
va jumboqlar



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2016

UO'K: 821.512.133
KBK 84(50')7
A 18

***Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli,
dono, va albatta, baxtli bo'lishlari shart!***

Islom KARIMOV

Mualliflar:

BAHROM AKBAROV, MIRALI PO'LATOV,
MAHMUD PRIMQULOV, NORMAT G'OIPOV,
O'TKIR HUSANOV, FERUZA OMONOVA,
IKROM RAHMONOV, MUHIDDIN RUSTAMOV

G'oya muallifi

BAHROM AKBAROV

Taqrizchilar:

AHROR AKBAROV – kimyo fanlari nomzodi;
ABDURAHIM JALILOV – II Respublika tibbiyot
kollejining katta o'qituvchisi

Ushbu kitobda keltirilgan testlar o'quvchilarning tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha olgan bilimlarini yanada oshiradi, ularning tafakkurini kengaytiradi. Kitob o'quvchilarga avval havola etilgan «O'tkir zehnlilar kitobi» (1, 2, 3)ning mantiqiy davomi hisoblanadi.

ISBN 978-9943-28-519-4

© Akbarov B. va boshq., 2016
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016

ADABIYOT

1. «Shum bola» qissasi quvnoq, hayotbaxshligi, azob-uqubatlarining «yoqimli» tasviri jihatidan jahon adabiyotining qaysi asariga o'xshaydi?

- A. Tom Soyverning sarguzashtlari;
- B. O'n besh yoshli kapitan;
- C. Robinzon Kruzo;
- D. Gulliverning sayohatlari.

2. O'zbek adabiyotida yumorga boyligi bilan o'ziga yarasha iz qoldirgan «Donishqishloq latifalari» kitobining muallifi:

- A. Erkin Vohidov;
- B. Anvar Obidjon;
- C. Said Ahmad;
- D. G'afur G'ulom.

3. Buyuk nemis shoiri Yohann Hyotening «Faust» asarini birinchi marta o'zbek tiliga qoyilmaqom tarjima qilib, milliy tarjima nazariyasida yangi sahifa yarata olgan o'zbek shoiri:

- A. Oybek;
- B. Hamid Olimjon;
- C. Cho'lpon;
- D. Erkin Vohidov.

4. Erkin Vohidovning mashhur «O'zbekim» qasidasi nechanchi yilda matbuotda e'lon qilingan:

- A. 1968;
- B. 1991;

- C. 1992;
- D. 1981.

5. Mashhur qo'shiqqa aylanib ketgan ushbu misralar qaysi shoir qalamiga mansub?

Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham.
Do'st qadam qo'ymas esa,
Vayronadir koshona ham.

- A. Erkin Vohidov;
- B. Maqsud Shayxzoda;
- C. Mirtemir;
- D. Abdulla Oripov.

6. G'afur G'ulom qalamiga mansub qissalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Mening o'g'rigina bolam», «Yodgor»;
- B. «Netay», «Yodgor», «Shum bola»;
- C. «Afandi uylanmaydigan bo'ldi», «Yodgor»;
- D. B va C javoblar noto'g'ri.

7. Tariqat va tasavvuf she'riyatining asoschisi:

- A. Ahmad Yassaviy;
- B. Sulaymon Boqirg'oniy;
- C. Gulxaniy;
- D. Mashrab.

8. Mehri quyida keltirilgan qaysi asar qahramoni?

- A. «Shum bola»;
- B. «Hasan kayfiy»;
- C. «Afandi uylanmaydigan bo'ldi»;
- D. «Yodgor».

9. Gulmat Shoshiy taxallusi bilan ham ijod qilgan mashhur bolalar shoiri:

- A. Anvar Obidjon;
- B. Tursunboy Adashboyev;
- C. Abdurahmon Akbar;
- D. Hamza Imonberdiyev.

10. O'zbek adabiyotida biografik asarlar alohida o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri «Ajnasi bor yo'llar» asaridir. Asar muallifining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Abdulla Qahhor;
- B. Mirmuhsin;
- C. Said Ahmad;
- D. Anvar Obidjon.

11. Oybek o'zbek adabiyotida qaysi janrni boshlab bergan?

- A. Roman;
- B. Tarjima;
- C. Tarixiy roman;
- D. Tarixiy-biografik roman.

12. «...Inson farzandining kamolot darajasi muhabbat, adolat va his-tuyg'u egasi bo'lishidadir». Bu fikrlar qozoq xalqining yozma adabiyotiga asos solgan, buyuk shoir va hassos ijodkorning qalamiga mansub. 1995-yil UNESCO qarori bilan o'lmas ijodkor nomi bilan ataldi. Gap qaysi ijodkor haqida ketmoqda?

- A. Abay;
- B. Muxtor Avezov;
- C. O'ljas Sulaymonov;
- D. Sobit Muqonov.

13. Bu yozuvchi 1870-yil Voronejda tug'ilgan. Unga 1933-yilda Nobel mukofoti berilgan. Dastlabki kitobi «Ochiq osmon ostida» deb nomlangan. Mashhur yozuvchining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ivan Bunin;
- B. Mixail Sholoxov;
- C. Maksim Gorkiy;
- D. Aleksandr Soljenitsin.

14. Ulushsiz qolmaydi so'ragan marddan,
Tilama, bitmaydi ishing nomarddan.

Ushbu hikmatli satrlar turkman shoiri Maxtumdul qalamiga mansubdir. Maxtumdul, bu shoirning ismi bo'lib, u o'z taxallusi bilan ham ko'plab go'zal she'rlar bitgan. Shoir o'z she'rlarida qaysi taxallusdan foydalangan?

- A. Firog'iy;
- B. Firoqiy;
- C. Fig'oniy;
- D. Farqiy.

15. Quyida keltirilgan qaysi asar Oybek qalamiga mansub emas?

- A. «Jaloliddin Manguberdi»;
- B. «Ulug' yo'l»;
- C. «Navoiy»;
- D. «Quyosh qoraymas».

16. O'zbek xalqining akademik shoirlaridan biri G'afur G'ulom bu shoirni «o'zbek xalqining mo'tabar shoiri», deb atagan edi. Haqiqatan ham u o'zbek mum-

toz adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri bo‘lib, shoirning juda ko‘p g‘azallari hozirgi kunda ham san’atkorlar tomonidan sevib ijro etiladi. Uning birgina «Ey chehrasi tobonim» nomli she’ri milliy qo‘shiqchiligimizning yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi. Gap qaysi shoir haqida ketayotganligini aniqlang.

- A. Muqimiy;
- B. Zavqiy;
- C. Furqat;
- D. Ogahiy.

17. O‘zbek xalqining adabiyotshunos olimlaridan biri Izzat Sultonning tugallanmay qolgan romanining nomi:

- A. «Iymon»;
- B. «Muqaddima»;
- C. «Kumush shahar malikasi»;
- D. «Qaqnus».

18. Bu asar birinchi marotaba 1997-yilda mohir tarjimon Ansoriddin Ibrohimov tomonidan hind tilidan tarjima qilingan bo‘lib, shu yilning o‘zida kitob holida nashr etilgan. Kitob taxminan 1000 yil oldin yaratilgan bo‘lib, hindlarning mashhur kitoblaridan biri hisoblanadi. U hikoyat ichida hikoyat tarzida tuzilganligi bilan kitobxonni bir o‘qishdayoq o‘ziga qarata oladi. Gap hindlarning qaysi kitobi haqida ketmoqda?

- A. Hito‘padesha;
- B. Mahabharata;
- C. Ramayana;
- D. Panchatantra.

19. «Bolajonlarim, boshimdan kechgan voqealar bilan tanishsangiz». Ushbu soʻzlar oʻzbek xalqining ajoyib yozuvchilaridan biri Hakim Nazir qalamiga mansub. U bolalik davrini yoritgan qaysi kitobining soʻzboshisida shu soʻzlarni yozgan boʻlishi mumkin, deb oʻylaysiz?

- A. «Oq fotiha»;
- B. «Dadamni topib beringlar»;
- C. «Sarvar bilan Javlon»;
- D. Barcha javob notoʻgʻri.

20. Abdulla Qahhor oʻzining qaysi asari haqida «...taʼbimdagi kitob emas», «Oʻzimga bogʻliq boʻlmagan sabablar bilan maqsadimga yetolmadim» deydi?

- A. «Oʻtmishdan ertaklar»;
- B. «Qoʻshchinor chiroqlari»;
- C. «Sarob»;
- D. «Shohi soʻzana».

21. A. Qahhorning 1965-yil yozilgan avtobiografik asarining nomi:

- A. «Toʻyda aza», «Ming bir jon»;
- B. «Tobutdan tovush»;
- C. «Oʻtmishdan ertaklar»;
- D. «Sinchalak».

22. Faqat Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin qalamiga mansub asarlar nomi keltirilgan qatorni toping.

- A. «Vafo», «Fargʻona»;
- B. «Umid», «Meʼmor», «Temur Malik»;
- C. «Turon malikasi», «Degrez oʻgʻli», «Ilon oʻchi»;
- D. Barcha javoblar toʻgʻri.

23. Mirmuhsinning xorijiy xalqlar hayotini tasvirlovchi asarlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Arab hikoyalari», «Vafo»;
- B. «Iskandar ko'rfazi»; «Turon malikasi»;
- C. «Mona», «Iblis qushlari»;
- D. «Avesto», «Shiroq», «Vafo».

24. A. Qahhorning tugallanmay qolgan asarlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Zilzila», «Muhabbat»;
- B. «O'tmishdan ertaklar», «Sarob»;
- C. «To'yda aza», «Ming bir jon»;
- D. «Anor», «Zilzila».

25. «Yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaydi», degan fikr kimniki?

- A. Oybek;
- B. A. Qahhor;
- C. Cho'lpon;
- D. A. Qodiriy.

26. Mashhur o'zbek shoiri Nodirabegim yana qanday taxallus bilan g'azallar bitgan?

- A. Komila;
- B. Uvaysiy;
- C. Qo'qoniy;
- D. Nargizabonu.

27. O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor XX asr o'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning qator qissa, romanlari bilan birga mashhur hikoya-

lari ham bor. Quyida berilgan qaysi qatorda yozuvchining hikoyalari nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Chodirxayol», «Atir»;
- B. «Kechiring meni, odamlar», «To'qqizinchi palata»;
- C. «Ko'k tosh», «Jinni»;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

28. Mashhur shoir, mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari nechanchi yillarda yozilgan va bu asar qanday ma'noni anglatadi?

- A. 1020-y., qutlug' bilimlar;
- B. 1050-y., bilimlar sohibi;
- C. 1069–70-yy., saodatga yo'llovchi bilim;
- D. 1075–78-yy., biluvchilar saodatga erishadi.

29. Quyida keltirilgan qaysi qatorda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekov hikoyalarining nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Garov», «Sevgim-sevgilim»;
- B. «Hotamtoy», «Odam bo'lish qiyin»;
- C. «Qaytar dunyo», «Yer yonganda», «Qiyomat qarz»;
- D. Barcha javoblar noto'g'ri.

30. O'zbek adabiyotida realistik hikoya janri asoschisi kim?

- A. Oybek;
- B. A. Qahhor;
- C. Cho'lpon;
- D. A. Qodiriy.

31. «...hozir shalag'i chiqqan aravaday Murodxo'ja domlaning tomorqasida ag'anab yotibdi». A. Qahhorning «Bemor» hikoyasidagi tushib qolgan ismni toping.

- A. Rahimjon;
- B. Munisxon;
- C. Turobjon;
- B. Babar.

32. Bu janrda juda ko'p zabardast shoirlar ijod qilishgan. G'afur G'ulom bu janr haqida shunday degan edi: «...Olam-olam mazmunlarning javohirini yig'ib, to'rt satrga sig'dirish mahoratdir. Qatrada – ummon, uchqunda quyosh mazmunini berish ...ga xos xususiyatdir».

Bu janrni ... cho'qqiga olib chiqqan. Shu sabab ham uni dunyo taniydi. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlarni qo'yib, gap qaysi janr va kim haqida ketayotganini aniqlang.

- A. Tuyuq, Alisher Navoiy;
- B. Ruboiy, Umar Xayyom;
- C. To'rtliklar, Abdulla Oripov;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

33. Manbalarda keltirilishicha, o'zini shayx ur-raising haroratli shogirdi, deb hisoblagan Umar Xayyom falsafiy ruboiylar yaratdi. Umar Xayyom bu sohada kimni o'ziga ustoz deb bilgan?

- A. Shayx Sa'diyni;
- B. Ibn Sinoni;
- C. Abu Abdulloh Rudakiyni;
- D. Abu Nasr Forobiyni.

34. Taniqli adib A. Qahhorning «Dahshat» hikoyasida qanday fikr ilgari surilgan?

A. Erning o‘z xotiniga zulm qilishi dahshatli illat ekanligi;

B. Ayolning eriga isyon qilishi fojiga olib kelishi;

C. Inson erki, shaxs hurligini ulug‘lash;

D. Inson o‘zi qodir bo‘lmagan ishga qo‘l urmasligi.

35. Dunyoga mashhur «Shamollarda qolgan hislarim» kitobining muallifi shu birgina romani bilan XX asrning buyuk yozuvchilari qatoridan o‘rin oldi. Uning bu kitobi 1959-yilda 8 million nusxada chop etilib, sotilib ketadi. 1970-yil bu roman dunyoning 30 dan ortiq tillariga tarjima qilinadi.

Kitob muallifi va asar bosh qahramoni qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Margaret Mitchell, Skarlet O‘ Xara;

B. Lilian Voynich, Montanelli;

C. Agata Kristi, Anna;

D. Barcha javoblar noto‘g‘ri.

36. Adabiyot sohasida erishgan katta muvaffaqiyati uchun jahonning buyuk yozuvchilari Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishadi. Eng nufuzli xalqaro mukofot sohibi aslida qaysi soha mutaxassisi hisoblanadi?

A. Adabiyot;

B. Fizika;

C. Kimyo;

D. Tibbiyot.

37. M. Shayxzodaning lirik-falsafiy dostonining nomi:

- A. «Toshkentnoma»;
- B. «Jaloliddin Manguberdi»;
- C. «Mirzo Ulug‘bek»;
- D. «Ayriliq».

38. Yunon mumtoz tragediyalari xususiyatlarini o‘zida namoyon etuvchi dastlabki o‘zbek dramalaridan biri...

- A. «Ulug‘bek xazinasi»;
- B. «Abulfayzxon»;
- C. «Kecha va kunduz»;
- D. «Jaloliddin Manguberdi».

39. M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» drama-sidagi salbiy obrazlarni toping.

- | | |
|-----------------|-----------------|
| 1. Abdullatif. | 2. Berdiyoy. |
| 3. O‘tamurod. | 4. Abbos. |
| 5. Ali Qushchi. | 6. Qozi Miskin. |
| 7. Bek Arslon. | |

- A. 2, 4, 7;
- B. 1, 2, 3;
- C. 1, 4, 6;
- D. 2, 5, 7.

40. H. Olimjonning qaysi she‘rida Hamlet obrazi ifodalangan?

- A. «O‘rik gullaganda»;
- B. «Nima bizga Amerika?»
- C. «Baxtlar vodiysi»;
- D. «Ofeliyaning o‘limi».

41. O'zbek bolalar yozuvchilarining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Quddus Muhammadiy, Janni Rodari;
- B. Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev;
- C. Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Qudrat Hikmat;
- D. B va C javoblar to'g'ri.

42. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida shunday dostonlar borki, ular o'zbek she'riyatining badiiy mulkiga aylanib qoldi. Quyida keltirilgan qaysi qatorda shoir dostonlarining nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Ey, dil», «Ko'hna quduq», «Temirlar nidosi»;
- B. «Toshkentnoma», «Go'zal Farg'ona»;
- C. «Osmonning oxiri», «Vatan»;
- D. «Amir Temur», «Bobur nidosi», «O'zbekiston».

43. «Kuygay» qo'shig'i aruzning qaysi bahrida yozilgan?

- A. Hazaji mussamani solim;
- B. Hazaji musaddasi solim;
- C. Ramali musammani solim;
- D. Hazaji musammani mahfuz.

44. Movarounnahrda arab xalifaligiga qarshi ko'tarilgan xalq harakatiga boshchilik qilgan «Niqobdor», ya'ni Muqanna haqidagi drama kim tomonidan va nechanchi yilda yozilgan?

- A. G'. G'ulom, 1939-y.;
- B. M. Shayxzoda, 1942-y.;
- C. H. Olimjon, 1943-y.;
- D. Oybek, 1941-y.

45. Mirtemirning ilk she'riy to'plamining nomi:

- A. «Zafar»;
- B. «Qaynashlar»;
- C. «Shu'lalar qo'ynida»;
- D. «Bong».

46. «She'rda biror so'zni o'ynata olmagan shoir shoir emas», degan so'zlarni kim aytgan?

- A. M. Shayxzoda;
- B. A. Qahhor;
- C. Mirtemir;
- D. Oybek.

47. Buyuk bobokalonimiz, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy yoshlik chog'idayoq bu asarga qiziqib qoladi va qo'lidan qo'ymay o'qib yuradi. Buyuk shoirga ota-onasi bu kitobni vaqtinchalik o'qishni man etib qo'yishadi, ammo foydasi bo'lmaydi. Chunki Alisher uni allaqachon yodlab olgan edi. Ushbu asarning nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A. «Risalat ut-tayr»;
- B. «Mantiq ut-tayr»;
- C. «Shohnoma»;
- D. «Pandnoma».

48. O'zbek tarixiy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?

- A. Julqunboy;
- B. Kalvak maxsum;
- C. Toshpo'lat tajang;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

49. Quyida nomi qayd etilgan qaysi adibning bosh shiori «Hayotda yonib yashash, yonib ijod qilish» edi?

- A. H. Olimjon;
- B. M. Shayxzoda;
- C. O. Yoqubov;
- D. M. Yusuf.

50. O. Yoqubovning tarixiy mavzudagi qaysi asari 2000-yilda eng yaxshi dramatik asar sifatida «Ofarin» mukofotiga sazovor bo'lgan?

- A. «Muqaddas»;
- B. «Tengdoshlar»;
- C. «Ulug'bek xazinasini»;
- D. «Ko'hna dunyo».

51. P. Qodirovning yumoristik ruhda yozilgan hikoyasini toping.

- A. «Qalbdagi quyosh»;
- B. «Kayf»;
- C. «Jon shirin»;
- D. «Qadrim».

52. P. Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanining davomi qaysi?

- A. «Kecha va kunduz»;
- B. «Zulmat ichra tun»;
- C. «Avlodlar dovoni»;
- D. Asarning davomi yozilmagan.

53. Boburiylar avlodi haqida hikoya qiluvchi «Avlodlar dovoni» romanining keyingi nashrlardagi nomini toping.

- A. «Bobur va Humoyun»;
- B. «Humoyun va Akbar»;
- C. «Akbar»;
- D. «Humoyun».

54. Sherlok Xolms va uning do'sti doktor Vatsonni bilmagan o'quvchi kam bo'lsa kerak. Chunki mashhur izquvar haqida juda ko'plab badiiy filmlar ham ishlangan. Kasbi bo'yicha ko'z shifokori bo'lgan bu yozuvchi detektiv usulga asos soladi va o'z nomini tarix sahifasiga munosib tarzda joylashtiradi.

Yozuvchining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Jek London;
- B. Artur Konan Doyle;
- C. Agata Kristi;
- D. To'g'ri javob yo'q.


55. 1. XX asrning 80-yillariga kelib o'zbek bolalar adabiyotida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

2. Bolalar adabiyotiga o'zgacha ruh kirib keldi.

3. Bunga, ayniqsa, Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Anvar Obidjon, Dilshod Rajabning tafakkurga chorlovchi, sho'x, diltortar she'rlari sabab bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan xatboshidagi xato gap raqamini aniqlang.

- A. 1, 2;
- B. faqat 3;
- C. 2, 3;
- D. 1.3.



56. «Kapitan «maraz» deb atagan boyagi ig‘vogar mana shu toifadan edi». Abdulla Qahhor asaridan olingan bu satrlar uning qaysi hikoyasidan olingan?

- A. «Maraz»;
- B. «Ig‘vogar»;
- C. «Kapitan»;
- D. «Karavot».

57. Mashhur qirg‘iz yozuvchisi Ch. Aytmatovning bir asarida voqealar bir kunda bo‘lib o‘tadi. Ushbu asarning nomi:

- A. «Jamila»;
- B. «Asrga tatigulik kun»;
- C. «Oq kema»;
- D. «Sarvqomat dilbarim».

58. Mashhur o‘zbek shoiri Erkin Vohidovning «Inson» she‘rining janrini toping.

- A. G‘azal;
- B. Qissa;
- C. Qasida;
- D. Hikoya.

59. O‘zbek adabiyotida modern she‘riyatining asoschilaridan biri va eng yirik vakili kim?

- A. Rauf Parfi;
- B. Sh. Rahmon;
- C. A. Qutpiddin;
- D. A. Oripov.

60. «Drama» soʻzining maʼnosi?

- A. Harakat;
- B. Afsona;
- C. Matal;
- D. Kulgi.

61. «— ... qalay? Yuribdimi?

— Tuzuk, — dedi ... ota derazaga bir qarab qoʻyib.
— Bugun zoʻrgʻa yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib yarim kechada otni dalaga haydapti.

— Soʻkmadingmi? — xavotirlanib soʻradi ... aka».

Ushbu lavha Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oʻlmas Umarbekovning mashhur «Qiyomat qarz» nomli hikoyasidan olingan. Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan asar qahramonlarining toʻgʻri nomini qoʻying.

- A. Zebi, Sarsonboy, Matqovul;
- B. Qumri, Shukur, Madumar;
- C. Zebi, Sarsonboy, Madumar;
- D. Savri, Turgʻunboy, Narimon.

62. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, oʻzbek hikoyachiligining mohir ustoz Abdulla Qahhorning hikoyalari magʻzi toʻqligi, syujetning oʻtkirligi, voqealarning xalqchilligi bilan ajralib turgan. Mohir yozuvchi oʻz hikoyalarga nom tanlashga ham jiddiy eʼtibor bergan. Quyida berilgan qaysi qatorda A. Qahhor hikoyalarining nomi toʻgʻri keltirilgan?

- A. «Dumli odamlar», «Oʻgʻri», «Tuhmat»;
- B. «Bemor», «Oʻgʻri», «Dahshat»;
- C. «Sep», «Oʻjar», «Toʻyda»;
- D. B va C javoblar toʻgʻri.

63. «Fazl ahli va hunar ahliga ... chalik murabbiy va homiylik qilgan odam dunyoda boshqa topilmasa kerak. Soʻzda peshqadam boʻlgan ustoz Qulmuhammad, Shayx Noyi va Husayn Udiy ... tarbiyasi va homiyligi bilan shuncha kamol topib, shuhrat qozondilar». «Boburnoma»dan olingan ushbu satrlardagi nuqtalar oʻrniga mos keluvchi ismni qoʻying.

- A. Alisherbek (Navoiy);
- B. Husayn Boyqaro;
- C. Badiuzzamon;
- D. Abdurahmon Jomiy.

64. «Fazilat bobida kamchiligi yoʻq edi, nazm va nasrni turkiy va forsiyda aytishda tengsiz edi. Xususan, turkiy devoni bor. Til biladigan dono kishilar orasida uningdek latif (goʻzal) soʻz aytuvchi yoʻq. Xoja Ahror aytgan «Volidiya» risolasini shu podshoh nazm qilibdi». Ushbu satrlardan gap kim haqida ketayotganini aniqlang.

- A. Husayn Boyqaro;
- B. Zahiriddin Muhammad Bobur;
- C. Jaloliddin Akbar;
- D. Shoh Jahon.

65. Biz sinfda shunday oʻyin oʻynardik. Biror yozuvchining asarlari bosh qahramoni yoki oʻzagi tanlab olinardi-da, aytilardi. Qolgan oʻrtoqlarimiz unga qoʻshimcha qoʻshish yoʻli bilan asar nomini topishga harakat qilishardi. Masalan, bugungi oʻyin Odil Yoqubov hikoyalarining nomiga bagʻishlandi, deylik. Men «Yax» degan soʻzni aytaman. Siz unga «malak»

soʻzini qoʻshasiz. Odil Yoqubovning «Yaxmalak» degan hikoyasi bormi? «Yoʻq». Demak, topolmadingiz. Doʻstlarimizdan biri «shilik» qoʻshimchasini qoʻshadi. Toʻgʻri topdi. Mashhur yozuvchining «Yaxshilik» degan hikoyasi bor. Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda «Ata» soʻziga quyida keltirilgan qoʻshimchaning toʻgʻrisini qoʻshsangiz, yozuvchining hikoyasi nomini bilib olasiz:

- A. -la, («Atala»);
- B. -ka, («Ataka»);
- C. -man, («Ataman»);
- D. -shgan, («Atashgan»).


Testlarning to'g'ri javoblari

1. A.	18. A.	35. A.	52. C.
2. A.	19. A.	36. C.	53. B.
3. D.	20. B.	37. A.	54. B.
4. A.	21. C.	38. D.	55. B.
5. A.	22. D.	39. C.	56. B.
6. B.	23. C.	40. D.	57. B.
7. A.	24. A.	41. D.	58. C.
8. D.	25. B.	42. A.	59. A.
9. A.	26. A.	43. A.	60. A.
10. D.	27. D.	44. C.	61. A.
11. D.	28. C.	45. C.	62. D.
12. A.	29. C.	46. C.	63. A.
13. A.	30. B.	47. B.	64. B.
14. A.	31. A.	48. D.	65. C.
15. A.	32. B.	49. C.	
16. A.	33. B.	50. D.	
17. B.	34. C.	51. C.	

MATEMATIKA

1. Shashkalarining o‘rnini almashtirish. Stol ustiga 6 ta shashka donasini quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek qo‘ying – qora dona, oq dona, qora dona, oq dona, qora dona, oq dona. Bunda chap yoki o‘ng tomonda yetarli-cha bo‘sh joy qoldiring. Shashka donalarini shunday ko‘chiringki, chap tomonda hamma oq donalar, o‘ng tomonda esa hamma qora donalar bo‘lsin, bunda nechta yurish kerak bo‘ladi?

Bunda bo‘sh joyga ikkita yonma-yon turgan shashkani, ularning tartibini buzmasdan, ko‘chiring. Shashka donalari bo‘lmasa, karton qog‘ozdan doirachalar qirqib olsangiz ham bo‘ladi.




A. 2-, 3-donalarni 1-dona oldiga ko‘chiramiz. 4-, 5-donalarni 2-dona oldiga ko‘chiramiz, 2-, 3-donalarni 5-donadan keyin joylashtiramiz. 3 ta yurish;

B. 2-, 3-donalarni 1-dona oldiga ko‘chiramiz. 4-, 5-donalarni 1-donaning orqasiga suramiz. 6-, 4-donalarni 2-dona oldiga ko‘chiramiz. 3 ta yurish;

C. 5-, 6-donalarni 1-dona oldiga suramiz. 2-, 3-donalarni 4-donadan keyin joylashtiramiz. 2 ta yurish;

D. Buni hech qachon bajarib bo‘lmaydi.

2. Geometrik kuzatuvchanligingizni sinab ko'ring. Rasmda nechta uch-burchak bor?



- A. 33 ta; C. 37 ta;
B. 35 ta; D. 39 ta.

Maslahat. Bu rasmda nechta to'rtburchak borligi to'g'risida masala tuzib, uni yechishni do'stlaringizga taklif qiling.

3. 11 nafar sinfdosh qiz do'kondan chiroyli qutichaga joylangan konfet sotib olishdi. Qutichani ochishsa, ichida rosa 11 ta konfet bor ekan. Konfetlarni har bir dugonaga 1 tadan tegadigan va 1 ta konfet quticha ichida qoladigan qilib taqsimlash mumkinmi?

- A. Yo'q. Chunki qutichada 1 ta konfet qolsa, 1 ta qizga konfet tegmay qoladi;
B. Yo'q. Chunki har bir qiz 1 tadan konfet olsa, qutichada konfet qolmaydi;
C. Ha. Har bir qiz konfet oladi, bunda bir qizga konfet quticha bilan beriladi;
D. A va B javoblar to'g'ri.

4. Yog'ingarchilikdan keyin loy bo'lgan yo'ldan yurganimizda botinkamiz (yoki etigimizga), qanchalik ehtiyot bo'lmaylik, yopishgan loy shimimizda ancha yuqoriga surkalganini ko'ramiz. Bunga yurganimizda poyabzalimiz va shimimizning bir-biriga ishqalanishi sabab bo'ladi. Tasavvur qilaylik: sariq qalamning bir yog'iga pastidan 1 sm uzunlikdagi qismiga darrov qotib qolmaydigan va tugab qolmaydigan bo'yoq (moy) surtilgan bo'lsin. Ko'k qalamning bir yog'ini sariq qa-


lamning shu yog'iga zich yopishtirib ushlaylik. Sariq qalamni siljitmasdan, ko'k qalamni 1 sm pastga tushirib, endi yana 1 sm ga ko'tarib, dastlabki holatiga qaytaraylik. Ko'k qalamni shu tarzda 10 marta ko'tarib, 10 marta tushiraylik. Jami 20 ta harakat qilgan bo'lamiz. Shu qilingan 20 ta harakatdan keyin ikkala qalamning bo'yi necha santimetr bo'yalgan bo'lib qoladi?

- A. 20 sm va 21 sm;
- C. 21 sm va 20 sm;
- B. 10 sm va 11 sm;
- D. 11 sm va 11 sm.

5. Samarqand shahridan Toshkent shahriga tomon yo'lga chiqqan avtomobil to'xtalishlarsiz 60 km/soat tezlik bilan harakatlana boshladi. Boshqa bir avtomobil esa Toshkentdan Samarqandga tomon yo'lga chiqib, u ham 50 km/soat tezlik bilan to'xtalishlarsiz harakatlanmoqda. Bu avtomobillar uchrashishlariga 1 soat qolganda ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

- A. 110 km;
- B. 60 km;
- C. 50 km;
- D. Aniqlab bo'lmaydi, chunki Toshkent va Samarqand shaharlari orasidagi masofa berilmagan.

6. Bir iz (koleya)li temiryo'lining kichik stansiyasida teplovoz va 5 ta vagondan iborat ta'mirlash poyezdi kelib to'xtadi. U temiryo'lining yangi izini yotqizish uchun ishchilarni olib kelgan edi.



Hozircha bu kichik stansiyada unchalik katta bo'lmagan berk temiryo'l bo'lib, u zarurat tug'ilganda ikkita vagon ulangan teplovozni zo'rg'a qabul qila oladi. Qurilish brigadasini olib kelgan bu poyezd ortidan shu kichik stansiyaga passajir poyezdi ham yaqinlashib keldi. Passajir poyezdini o'tkazib yuborish mumkin bo'ladimi?

A. O'tkazib bo'lmaydi. Chunki berk yo'lga 5 ta vagonli poyezd tarkibi sig'maydi, ya'ni yo'lni passajir poyezdi uchun bo'shatib bo'lmaydi;

B. Ta'mirlash poyezdi mashinisti berk yo'lga o'z poyezdining 2 ta vagonini olib kiradi, ularni tarkibdan ajratadi va qolgan tarkibni yo'lga, oldinga olib chiqadi. Passajir poyezdi o'tib ketadi;

C. Ta'mirlash poyezdi mashinisti berk yo'lga o'z poyezdining 4 ta vagonini olib kiradi, ularni tarkibdan ajratadi, poyezdning qolgan tarkibini yo'lga olib chiqadi va olg'a yuradi. Passajir poyezdi kelib, berk yo'ldagi vagonlarni tarkibga ulab, o'tib ketadi;

D. Ta'mirlash poyezdi mashinisti berk yo'lga oxirgi 3 ta vagonni kiritadi, ularni ajratadi va tarkibni yo'lga olib chiqib oldinga yurgizadi. Passajir poyezdi shundan keyin berk yo'lga kelib, oldingi poyezdning 3 ta vagonini o'z tarkibining oxiriga ulaydi va oldingi joyiga qaytadi. Shu vaqtda berk yo'lga ta'mirlash poyezdining qolgan qismi kiradi. Passajir poyezdi uchun yo'l ochiladi.

7. Shaxmat o'yinini yangi o'rgangan 5-sinf o'quvchilari Akmaljon va Xolmatjon «ot» sipohini shaxmat taxtasining pastki chap burchagidan (a «1» katakdan) yuqori o'ng burchagiga bu dona taxtaning har bir katagida bir martadan bo'ladigan qilib ko'chirishga

urinishmoqda. Lekin buni hech uddalay olishmayapti. Balki ular yechilmas masalani yechishga urinishmayaptimikin?! Ularga yordam bera olasizmi?



A. Buni bemaolol bajarish mumkin. Bunda dona har bir katakda faqat 1 martadan bo'lishini hisobga olib, 64 ta yurish qilish kerak bo'ladi. Masala yechiladi;

B. Ot egallab turgan a «1» katakni va har bir katakka bir marta yurishni hisobga olsak, faqat 63 ta yurish qilish mumkin. Shunda dona kerakli h «8» katakka tushadi. Masala yechimga ega;

C. Ot yurishi shundayki, u qora katakdan oq katakka o'tadi, keyin esa oq katakdan qora katakka ko'chadi va hokazo. 64-yurishda u h «8» ga keladi. Masala yechiladi;

D. Ot boshlang'ich holatida qora katakda turibdi, toq sonli yurishlarda u oq katakka tushadi. Taxta 64 katakli, 63-yurish esa toq sonli, demak, u oq katakka keladi. Masala yechilmas!

8. Qadimdan odamlar daryo (soy) o'zanidan suvni yuqoriga ko'tarish uchun suv charxpalagidan foydalanib kelishgan. Suv charxpalagi soy o'zaniga charxpalak va shunga o'xshash parrakli g'ildirak ichiga oson aylanadigan qilib o'zan tubiga yaqin o'rnatilgan. Agar suv oqimi o'ngdan chapga tomon yo'nalgan bo'lsa, charxpalak va parrakli g'ildirak qaysi yo'nalishlarda aylanadi?

A. Ikkala qurilma ham bir yo'nalishda, chapdan o'ngga tomon aylanadi. Chunki ularga bo'ladigan suv bosimi bir xil yo'nalishda bo'ladi;

B. Suv g'ildiragi chapdan o'ngga tomon, suv charxpalagi esa o'ngdan chapga tomon aylanadi, chunki ularga bo'ladigan suv bosimi har xil bo'ladi;



C. G'ildirak o'ngdan chapga tomon aylanadi, chunki chuqurroqda yotadigan suv oqimlari tezligi yuqoriroq yotadigan oqimlar tezligidan kichikroq, demak, ustki parraklarga bo'ladigan bosim pastki parraklarga bo'ladigan bosimdan kattaroq bo'ladi. Charxpalak esa chapdan o'ngga tomon aylanadi;

D. Ikkala jihoz ham bir yo'nalishda, soat mili harakatiga teskari yo'nalishda aylanadi. Bu charxpalakning va g'ildirakning soy o'zanida o'rnatilishi bilan tushuntiriladi. Bunda charxpalak parraklarining bir qismi suv sirtida, g'ildirak parraklari esa to'laligicha suv sirti ichida joylashishi bilan bog'liq.

9. Tinch turgan suv (ko'l)ga tashlangan tosh vujudga keltiradigan doiralar (doiraviy to'liqlar)ni ko'rgansiz. Tabiatning bu g'aroyib hodisasini tushuntirish sizga qiyin emas: bu to'liqlar hamma tomonga bir xil tezlik bilan tarqaladi.

Oqar suvda bu holat qanday bo'lishini o'ylab ko'ring. Tez oqar daryoga tashlangan tosh sababli yuzaga kelgan to'liqlar shakli qanday bo'ladi? Tinch va oqar suvda ikki holatning farqi nimada?

A. Suv oqmaganida to'liqlar doiraviy bo'ladi, oqar suvda esa to'liqlar cho'ziq-yopiq shaklda bo'ladi, chunki oqim ularni olib ketadi, farqi shuki, tinch suvda to'liqlar ko'chmaydi (markazi atrof da tarqaladi), oqar suvda esa ko'chadi;

B. Suv oqmaganida to'liqlar doiraviy bo'ladi, oqar suvda ham to'liqlar shunday doiraviy bo'ladi;

C. Tinch suvda to'liqlar doira shaklida bo'ladi. Oqar suv esa bu doiraviy to'liqlarning har bir nuqtasini oqim bo'ylab parallel to'g'ri chiziqlar bo'yicha bir xil tezlik bilan bir xil masofaga parallel ko'chiradi, «parallel ko'chirish» esa to'liqlar shaklini o'zgartirmaydi. Farqi shunda;

D. Oqar suvda to'liqlar oldinga harakatlanadi. Oqimga qarshi to'liqlar so'nadi.

10. Bir xil perimetrlı barcha uchburchaklar ichida muntazam (teng tomonli) uchburchak eng katta yuzga ega ekanligini, bir xil perimetrga ega bo'lgan barcha to'rtburchaklar ichida kvadrat eng katta yuzga ega ekanligini maktab matematika kursidan bilasiz. Endi bunday da'voni ko'raylik. Kvadratning yuzi shunday perimetrga ega bo'lgan har qanday uchburchakning yuzidan kattami yoki kichik?

- A. Kvadratning yuzi katta;
- B. Uchburchakning yuzi katta;
- C. Bu shakllarning yuzlari ham teng bo'ladi;
- D. Aniq xulosa chiqarib bo'lmaydi.

11. Oldingi masaladagi muhokamamizni davom ettiraylik. Aytaylik, bir xil perimetrga ega bo'lgan kvadrat, beshburchak, oltiburchak, yettiburchakni ularning yuzlari bo'yicha ortib borish tartibida yozing.

- A. Kvadrat, beshburchak, oltiburchak, yettiburchak;
- B. Kvadrat, muntazam beshburchak, oltiburchak, yettiburchak;

C. Kvadrat, muntazam beshburchak, muntazam oltiburchak, yettiburchak;

D. Kvadrat, muntazam beshburchak, muntazam oltiburchak, muntazam yettiburchak.

12. 6 ta gugurt cho'pi (yoki, masalan, sanoq cho'plari)dan qanday ko'pburchak shakllarni tuzish mumkin. Qaysi biri eng katta yuzga ega bo'ladi?

A. Uchburchaklar, to'rtburchaklar, beshburchaklar, oltiburchaklar. Oltiburchak eng katta yuzga ega bo'ladi;

B. Muntazam uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, parallelogramm, muntazam beshburchak, muntazam oltiburchak. Muntazam beshburchak eng katta yuzga ega bo'ladi;

C. Muntazam uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va parallelogramm, muntazammas beshburchak, muntazammas oltiburchak va muntazam oltiburchak. Muntazam oltiburchak eng katta yuzga ega bo'ladi;

D. Masala savoliga aniq javob berib bo'lmaydi.

13. Quyidagi mulohazani qat'iy geometrik isbotlash mumkin: Chegaralari (perimetrlari)ning uzunligi bir xil bo'lgan muntazam ko'pburchaklar orasida tomonlari soni katta bo'lgan ko'pburchakning yuzi katta bo'ladi. Shunday perimetrga ega bo'lgan doira esa eng katta yuzga ega bo'ladi. Shunday perimetrlilik boshqa hech bir shakl, u to'g'ri chiziqli bo'ladimi, egri chiziqli bo'ladimi, baribir bundan kattaroq yuzga ega emas. Buni isbotlash mumkin, biroq bu ancha qiyin va uzundan uzoq mulohazalarni talab etadi. Keling, endi shu mulohazaga teskari mulohazani ta'riflab ko'ring. Ulardan qaysi biri to'g'ri?

A. Bir xil yuzga ega bo'lgan hamma qavariq shakllar orasida muntazam ko'pburchak eng kichik perimetrga ega;

B. Bir xil yuzga ega bo'lgan shakllar orasida bir-biriga urinadigan ikkita aylanadan iborat shakl eng kichik perimetrga ega;

C. Bir xil yuzga ega bo'lgan hamma shakllar orasida aylana eng kichik perimetrga ega;

D. Bu holda hech bir qonuniyat yo'q.

14. Hozirgi vaqtda, agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, qurilishda burama (vintli) mixlar va ularni qoqadigan elektr qurilmalar keng ishlatilmoqda. Bu mixlar narsa (detal)larni juda mustahkam birlashtiradi. Zarurat bo'lganda ularni sug'urib olish juda qiyin. Oddiy mixlar esa borgan sari kam ishlatilmoqda. Shunga qaramay, ushbu masalani ko'raylikchi:

Taxtaga bir xil chuqurlikda qoqilgan ko'ndalang kesim yuzi bir xil bo'lgan uchburchak, kvadrat va dumaloq mixlardan qaysi birini mix sug'urgich yordamida sug'urib olish qiyinroq bo'ladi?

To'g'ri, uchburchak mix, odatda, ishlab chiqarilmaydi, bunga sabab bu mixlarning osonroq bukilishi va sinishi bo'lsa kerak. Masalani yechishda atrof dagi material bilan kattaroq sirt bo'yicha tutashgan mix mustahkamroq turadi deb oling va kvadrat mixning tomonini bir birlik deb hisoblang.

A. Uchburchak mix eng mahkam turadi;

B. Kvadrat mix eng mahkam turadi;

C. Dumaloq mix eng mahkam turadi;

D. Hammasi bir xil mustahkamlikka ega.

15. Doiraning xossasiga o'xshash xossaga shar sirti ham ega: sirtining kattaligi bir xil bo'lgan hamma jismlar ichida shar eng katta hajmga ega. Va, aksincha, bir xil hajmli barcha jismlar orasida shar eng kichik sirtga ega. Buni turmushdagi turli buyumlarda ham ko'plab uchratish mumkin. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri:

A. Sharsimon samovar (va shu kabi boshqa yangi suvisitkichlar) shunday sig'imli silindrik yoki boshqa shakldagi samovarga qaraganda kichikroq sirtga ega, jism issiqlikni faqat sirti orqali yo'qotgani uchun sharsimon samovar o'sha hajmli boshqa samovarlarga qaraganda tezroq soviydi.

Harorat o'lchagich (termometr) esa shar shaklida emas, balki silindr shaklda ishlanganida u sekinroq isiydi va soviydi (ya'ni atrof dagi narsalarning haroratini qabul qiladi);

B. Sharsimon samovar boshqa shakldagi shunday sig'imli samovarlarga qaraganda sekinroq soviydi. Harorat o'lchagich shar shaklida emas, balki silindr shaklida yasalganida tezroq isiydi va soviydi;

C. Bir xil sig'imli samovarlarning shakli qanday bo'lishining farqi yo'q, chunki ularning sovish tezligining sirtiga bog'liqligi to'g'risida aniq xulosaga kelishning imkoni yo'q. Harorat o'lchagichning ishlanish shakli to'g'risida ham shu fikrni aytish mumkin;

D. Aniq aytib bo'lmaydi.

16. 24 ta gugurt cho'pidan, agar har bir tomonga 6 tadan cho'p ishlatilsa, nechta kvadrat tuzish mumkin?

A. 4 ta;

C. 2 ta;

B. 3 ta;

D. 1 ta.

17. Agar kvadratning tomoni 5 ta cho'pdan, yoki 4 ta, yoki 3 ta cho'pdan iborat bo'lgan hollarda 24 ta cho'pning hammasini ishlatib nechta bir xil (teng) kvadrat tuzish mumkin?


A. Tomoni 5 ta cho'p bo'lganda 1 ta kvadrat, 4 ta cho'p bo'lganda 2 ta kvadrat, 3 ta cho'p bo'lganda 3 ta kvadrat tuzish mumkin;

B. Tomoni 5 ta cho'p bo'lganda 2 ta bir xil kvadrat, 3 ta cho'p bo'lganda 3 ta bir xil kvadrat tuzish mumkin;

C. Tomoni 5 ta cho'p bo'lganda yoki 4 ta cho'p bo'lganda, bir xil kvadratlarni tuzib bo'lmaydi, tomoni 3 ta cho'p bo'lganda 2 ta bir xil kvadrat tuzish mumkin;

D. Tomoni 5 ta cho'p bo'lganda 2 ta bir xil kvadrat, 4 ta cho'p bo'lganda 3 ta bir xil kvadrat, 3 ta cho'p bo'lganda 4 ta bir xil kvadrat tuzish mumkin.

18. 12 ta gugurt cho'pidan 4 ta bir xil kvadrat tuzilgan. Rasmda nechta kvadrat bor? Xohlagan 2 ta cho'pni olib tashlab va qolganlarini joyidan qo'zg'atmasdan, 2 ta tengmas kvadrat hosil qilish kerak. Qaysi cho'plarni olish mumkin?



A. 4 ta kvadrat. 2 ta cho'pni olib, 3 ta teng kvadratni hosil qilish mumkin;

B. 5 ta kvadrat. Kvadrat ichidagi 2 ta perpendikular joylashgan cho'pni olish kerak;


C. 5 ta kvadrat. Rasm chegarasidagi 2 ta cho'pni olish kerak;

D. Masala talabini bajarib bo'lmaydi.

19. Bir kvadrat metrni qoplash uchun teng kvadratlar bilan nechta gugurt cho'pi kerak bo'ladi? Bitta cho'pning uzunligi o'rtacha 5 sm deb olinsin.


- A. 840 ta gugurt cho'pi;
- B. 740 ta gugurt cho'pi;
- C. 640 ta gugurt cho'pi;
- D. 540 ta gugurt cho'pi.

20. «Yetti o'lchab, bir kes» degan maqolni eshitgansiz. Rasmda tasvirlangan shaklni qog'oz varag'iga ko'chirib oling va uni 4 ta teng to'rtburchak hosil bo'ladigan qilib qirqing. Buni qanday bajarish mumkin? (Ustma-ust qo'yganda o'zining hamma qismlari ustma-ust tushadigan shakllar teng deb ataladi.) Agar hamma yasashlar va qirqimlar to'g'ri bo'lsa, hosil bo'lgan qismlarning tengligini ustma-ust qo'yib tekshirish mumkin.



- A. CE, BF bo'yicha qirqamiz;
- B. D uchdan asosga tushirilgan perpendikular, CF va SE bo'yicha qirqamiz;
- C. BG, BE bo'yicha qirqamiz;
- D. BF va D dan asosga tushirilgan perpendikular bo'yicha qirqamiz.

21. Rasmda tasvirlangan teng tomonli uchburchakni 4 ta teng qismga qirqish kerak. Buni qanday bajarish mumkin?



- A. Ikkita uchidan chiquvchi balandliklari bo'yicha qirqish kerak;

B. Ikkita tomoniga o'tkazilgan apofemasi bo'yicha qirqish kerak;

C. Uchburchakning 3 ta o'rta chizig'i bo'ylab qirqish kerak;

D. 2 ta burchagi bissektrisasi bo'ylab qirqish kerak.

22. Mehmondorchilik uchun tort sotib olindi. Uni to'g'ri chiziqlar bo'yicha kesib, 7 bo'lakka kesishdi. Bunda har bir bo'lak tortda bittadan gul bezak bo'lib chiqdi. Uni nechta to'g'ri chiziq bo'ylab kesishgan ekan?



A. 12 ta to'g'ri chiziq bo'yicha kesishgan;

B. 9 ta to'g'ri chiziq bo'yicha kesishgan;

C. 6 ta to'g'ri chiziq bo'yicha kesishgan;

D. 3 ta to'g'ri chiziq bo'yicha kesishgan.

23. Tomoni 3 dm bo'lgan yog'och kub bor va uning butun sirti ko'k rangga bo'yalgan. Bu kubni tomoni 1 dm bo'lgan kichik kubchalarga bo'lish uchun nechta qirqish kerak bo'ladi? Nechta kichik kubcha hosil bo'ladi?

A. 8 ta; 33 ta kichik kubcha;

B. 7 ta; 30 ta kichik kubcha;

C. 6 ta; 27 ta kichik kubcha;

D. 4 ta; 12 ta kichik kubcha.

24. Yuqoridagi masalani hal etgan bo'lsangiz, endi quyidagi savollarga javob topishga urinib ko'ring:

1) Nechta kichik kubchani 4 ta yog'i bo'yalgan?


2) Nechta kichik kubchani 3 ta yog'i bo'yalgan?

- 3) Nechta kichik kubchanning 2 ta yog'i bo'yalgan?
 - 4) Nechta kichik kubchanning 1 ta yog'i bo'yalgan?
 - 5) Bo'yalmagan kichik kubchalar nechta?
- A. 1) 1 ta; 2) 12 ta; 3) 8 ta; 4) 6 ta; 5) 1 ta;
 - B. 1) Bitta ham yo'q; 2) 6 ta; 3) 12 ta; 4) 8 ta;
 - 5) 4 ta;
 - C. 1) Bitta ham yo'q; 2) 1 ta; 3) 6 ta; 4) 8 ta;
 - 5) 12 ta;
 - D. 1) Bitta ham yo'q; 2) 8 ta; 3) 12 ta; 4) 6 ta;
 - 5) 1 ta.

25. Hozirgi vaqtda aniq o'lchaydigan va hisoblaydigan, turli vazifalarni bajaradigan elektron tarozilar keng tarqaldi. Pallali va prujinali tarozilar va turli og'irlikdagi toshlar borgan sari kam qolmoqda. Shu tarozilar yordamida ushbu masalani yeching. Xaltada 9 kg bug'doy doni bor. Pallali tarozi hamda 50 g va 200 g li toshlar yordamida shu donni 2 kg va 7 kg dan qilib ikkita xaltaga taqsimlang. Bunda faqat 3 marta tarozida tortishga ruxsat etiladi. Buni qanday bajarish mumkin?

- A. Tarozi 250 g dan qilib, 2 kg dan tortib olinadi va boshqa xaltaga solinadi;
- B. Tarozi 9 kg don teng ikkiga bo'linadi, bu qismlardan birini yana teng ikkiga bo'linadi, bu yangi hosil bo'lgan qismlarning biridan 250 g don tortib olinadi;
- C. Tarozi 200 g dan qilib, 2 kg don tortib olinadi va boshqa xaltaga solinadi;
- D. Tarozi 50 g dan qilib, 2 kg don tortib olinadi va ikkinchi xaltaga solinadi.

26. A, B, D va E shktivli uzatma (tasma)lar ulangan. Agar A shktiv strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalish (soat millari harakat yo'nalishi) da aylanadigan bo'lsa, u holda bu shktivlar harakatlanadimi? Bunda har bir shktiv qaysi yo'nalishda aylanadi?



- A. Bunday tizim harakatlanmaydi;
- B. Ha. A va E shktivlar soat millari harakati bo'yicha, B va D shktivlar soat millari harakati yo'nalishiga qarshi yo'nalishda aylanadi;
- C. Ha. A va B shktivlar soat millari harakati bo'yicha aylanadi, E va D shktivlar esa soat millari harakatiga qarshi yo'nalishda aylanadi;
- D. Yo'q. B shktiv soat millari harakati yo'nalishiga teskari, E va D shktivlar esa soat millari harakati yo'nalishida aylanadi.

27. Yangilikka o'ch bir odam uchta ixtiro to'g'risida bilib qoldi: 1-ixtiro yoqilg'ini 30% ga, 2-ixtiro 45% ga, 3-ixtiro esa 25% ga tejash imkonini berar ekan. Bunda har bir ixtironing qo'llanilish samarasi boshqa ixtiro-larning qo'llanilishiga bog'liq emas ekan. U yoqilg'ini birdaniga $30\% + 45\% + 25\% = 100\%$ tejashni mo'ljallab, uchala ixtironi ham birdaniga qo'llanishini niyat qil-di. Aslida ham shunday bo'ladimi? Masalan, 100 kg yoqilg'idan shu uchala usul birdaniga qo'llanilganda qancha tejamkorlikka erishish mumkin?

- A. Yo'q, chunki energiya o'z-o'zidan, «yo'qdan bor bo'lmaydi», yuzaga kelmaydi-ku! tejamkorlikka erishiladi;

B. Yo'q, chunki bu holda yoqilg'i ishlatilmaydi.
Tejamkorlik 75% bo'ladi;

C. Yo'q. Bu 3 ta ixtirodan xohlagan ikkitasini
qo'llash maqbul bo'ladi. Shunda 70%, yoki 75% tejam-
korlikka erishish mumkin bo'ladi;

D. Yo'q. Tejamkorlik 70% bo'ladi.

28. Quyidagi xossalarning qaysi biri to'g'ri:

a) Istalgan son bilan uning raqamlari yig'indisining
ayirmasi doimo 9 soniga bo'linadi.

b) Bir xil raqamlardan tuzilgan, biroq ularning
joylashish tartibi bilan farq qiladigan 2 ta sonning ayir-
masi doimo 9 ga bo'linadi.

d) Har birining raqamlari yig'indisi bir xil bo'lgan
2 ta sonning ayirmasi doimo 9 ga bo'linadi.

A. a); b).

B. a); d).

C. b); d).

D. a); b); d).

29. Agar bir nechta raqamdan faqat raqamlarning
kelish tartibi bilan farq qiladigan sonlar tuzilgan bo'lsa,
u holda ularning har birini 9 ga bo'lganda chiqadigan
qoldiqlar bir xil bo'ladimi? Bu qoldiq nimaga teng
bo'lishi mumkin?

A. Bir xil bo'ladi. Qoldiq shu raqamlar ko'paytmasini
9 ga bo'lgandagi qoldiqqa teng;

B. Har xil bo'ladi, ba'zi hollarda bir xil bo'lishi
ham mumkin;

C. Bir xil bo'ladi. U shu sonlardan birini 9 ga
bo'lganda qoladigan qoldiqqa teng;

D. Bir xil bo'ladi. U tuzilgan sonlardan birining
raqamlari yig'indisini 9 ga bo'lganda hosil bo'ladigan
qoldiq.

30. Matematika to'garagida o'quvchilar sonning 9 ga bo'linish alomatlariga doir misollarni yechish jarayonida bir qator yangi xulosalarga kelishdi: sonning raqamlari yig'indisini 9 ga bo'lishda chiqadigan qoldiqni «ortiqcha» deb atashdi. Ushbu xulosalar to'g'rimi?

a) Sonlar yig'indisining «ortiqcha»si shu sonlar «ortiqcha»lari yig'indisining «ortiqcha»siga teng;

b) Sonlar ayirmasining «ortiqcha»si shu sonlar «ortiqcha»lari ayirmasining «ortiqcha»siga teng.

d) Sonlar ko'paytmasining «ortiqcha»si shu sonlar «ortiqcha»lari ko'paytmasiga teng.

A. a); b); d) xulosalar to'g'ri;

B. Birortasi ham to'g'ri emas;

C. a); b) xulosalar to'g'ri;

D. b); d) xulosalar to'g'ri.

31. Matematik jumla (gap, mulohaza) yetarli-cha to'liq bo'lishi lozim, lekin unda keraksiz so'zlar bo'lmasligi kerak. Matematika tilining qisqa (lo'nda) ligi uning go'zal xislatidir. Ushbu matematik gaplardagi keraksiz so'zlarni toping:

a) to'g'ri burchakli uchburchakning ikkita o'tkir burchaklari yig'indisi 90° ga teng;

b) agar to'g'ri burchakli uchburchakning kateti gipotenuzaning yarmiga teng bo'lsa, u holda uning qarshisida yotgan o'tkir burchak 30° ga teng.

A. a) da «teng»; b) da «to'g'ri burchakli» so'zlari kerakmas;

B. a) da «to'g'ri burchakli»; b) da «to'g'ri burchakli uchburchakning» so'zlari kerakmas;

C. a) da «ikkita»; b) da «to'g'ri burchakli», «o'tkir» so'zlari kerakmas;

D. a) va b) da ortiqcha, keraksiz so'zlar yo'q.

32. Quyidagi iboralarni mos matematik atamalardan foydalanib soddalashtiring:

a) aylanani kesuvchining aylana ichida yotgan qismi;

b) tomonlari soni eng kam bo'lgan ko'pburchak;

d) aylananing markazidan o'tgan vatar;

e) asosi yon tomoniga teng bo'lgan teng yonli uchburchak;

f) umumiy markazga ega bo'lgan, tengmas radiusli ikkita aylana.


A. a) vatar; b) uchburchak; d) diametr; e) teng tomonli uchburchak; f) konsentrik aylanalar;

B. a) radius; b) kvadrat; d) katta vatar; e) muntazam uchburchak; f) o'zaro urinuvchi aylanalar;

C. a) diametr; b) romb; d) radius; e) uchburchak;

D. a) urinma; b) muntazam uchburchak; d) diametr; e) uchburchak.

33. Berilgan $\triangle ABC$ da $AB = BC$, $AD = DC$ (rasm). BD kesmani tavsif ovchi nechta atamani topa olasiz?



A. 4 ta; mediana, balandlik, o'rta chiziq, BD ni teng ikkiga bo'luvchi kesma;

B. 4 ta; bissektrisa, simmetriya o'qi, kesma, AC kesmaga perpendikular;

C. 5 ta; balandlik, bissektrisa, mediana, simmetriya o'qi, AC kesma oxirlaridan teng uzoqlashgan nuqtalar to'plami;

D. 5 ta; balandlik, kesma, AC tomonga uning o'rtasida o'tkazilgan perpendikular, kesuvchi, mediana.

34. Quyidagi 7 ta tushunchani shunday ketma-ket joylashtiringki, bunda oldingi so'z bilan ifodalangan tushuncha keyingi so'z bilan ifodalangan tushunchani o'z ichiga olsin:

geometrik shakl, parallelogramm, kvadrat, ko'pburchak, yassi (tekis) shakl, romb, qavariq ko'pburchak.

A. Geometrik shakl $\rightarrow$ ko'pburchak $\rightarrow$ yassi shakl $\rightarrow$ qavariq to'rtburchak $\rightarrow$ kvadrat $\rightarrow$ romb $\rightarrow$ parallelogramm;

B. Yassi shakl $\rightarrow$ geometrik shakl $\rightarrow$ ko'pburchak $\rightarrow$ qavariq to'rtburchak $\rightarrow$ romb $\rightarrow$ kvadrat $\rightarrow$ parallelogramm;

C. Geometrik shakl $\rightarrow$ yassi shakl $\rightarrow$ ko'pburchak $\rightarrow$ qavariq to'rtburchak $\rightarrow$ parallelogramm $\rightarrow$ romb $\rightarrow$ kvadrat;

D. Kvadrat $\rightarrow$ romb $\rightarrow$ parallelogramm $\rightarrow$ qavariq to'rtburchak $\rightarrow$ ko'pburchak $\rightarrow$ geometrik shakl $\rightarrow$ yassi shakl.

35. Har qanday qavariq ko'pburchakning hamma tashqi burchaklari yig'indisi 4 ta to'g'ri burchakka ($4 \cdot 90^\circ = 360^\circ$ ga) teng. U holda har qanday qavariq ko'pburchak: a) ko'pi bilan nechta tashqi o'tmas burchakka; b) ko'pi bilan nechta ichki o'tkir burchakka ega bo'lishi mumkin?

A. a) 3 ta; b) 3 ta;

B. a) 3 ta; b) 2 ta;

C. a) 2 ta; b) 3 ta;

D. a) 2 ta; b) 2 ta.

36. Yashikda uch navli olmalar aralashtirib solingan. Yashik ichiga qaramasdan tavakkaliga olinganida: 1) olingan olmalar orasida hech bo'lmaganda 2 ta olma bir xil navli bo'lishi; 2) hech bo'lmaganda 3 ta olma bir xil navli bo'lishi uchun kamida nechta olma olish kerak bo'ladi?

Ko'rsatma. Masalada, 1-holda, masalan, tavakkaliga, 2 yoki 3 ta olma oladigan bo'lsak, ular ikki xil yoki uch xil navli bo'lib qolishi mumkin. 2-holda, masalan, tavakkaliga 2 ta, 3 ta, 4 ta olma oladigan bo'lsak, ulardan 2 tasi bir xil navli bo'lib qolishi ham mumkin. Demak, bu sonlar to'g'ri kelmaydi. Yechishda shu tartibda mu-lohaza yuriting.

- A. 1) 4 ta olma; 2) 7 ta olma;
- B. 1) 5 ta olma; 2) 6 ta olma;
- C. 1) 6 ta olma; 2) 8 ta olma;
- D. 1) 4 ta olma; 2) 5 ta olma.

37. Ikki bog'bon ko'chaning ikki tomoniga bir xil sonda daraxt ko'chatlarini ekish to'g'risida topshiriq olishgan edi. Birinchi bog'bon ertalab, ishga oldinroq kelib, endigina 7 tup daraxtni ekan ediki, sherigi kelib, u ishni noto'g'ri boshlagani, u ko'chaning boshqa tomonida ishlashi kerakligini aytganidan so'ng, o'z tomoniga o'tib, ishni boshladi. 2-bog'bon ishni oldinroq tugatib, 1-bog'bonga yordamga keldi va «qarz»ini uzib 7 tup ekdi va yana 7 tup ekan ediki, ikkalasi ishni tugatishdi. 2-bog'bon necha tup ko'p ko'chat o'tqazgan?

- A. 7 tup; B. 14 tup;
- C. Aniqlab bo'lmaydi, chunki ekilishi kerak bo'lgan daraxtlar soni ma'lum emas;
- D. 21 tup.

38. Karimjon otasi sovg'a qilgan kitobni o'qishni boshlab, kuniga o'rtacha 20 betdan o'qib tugatishni mo'ljalladi. Ammo u kitobning birinchi yarmini sekinroq, kuniga 10 betdan o'qidi. Biroq kitobning ikkinchi yarmini esa u kuniga 30 betdan o'qib tugatdi. Ana, niyat qilganimdek, kuniga o'rtacha 20 betdan o'qidim, deb o'yladi Karimjon. Uning xulosasi to'g'rimi?

A. Ha, u kuniga o'rtacha 20 betdan o'qigan:
 $10 + 30 = 40$; $40 : 2 = 20$ (bet);

B. Yo'q, u kuniga o'rtacha 15 betdan o'qigan;

C. Masalani yechish uchun kitobning necha bet ekanligini bilish lozim, u esa berilmagan;

D. Kitobning necha betli ekanligi muhim emas.
15 bet.

39. 40 soni 32 sonidan 8 birlik katta, 32 soni esa 40 sonidan 8 birlik kichik ekanligini yaxshi bilasiz. Endi ushbu masalani muhokama qilib ko'ring: 40 soni 32 sonidan necha protsent katta, 32 soni esa 40 sonidan necha protsent kichik?

A. 40 soni 32 sonidan 25% katta, demak, 32 soni 40 dan 25% kichik;

B. 40 soni 32 sonidan 20% katta, demak, 32 soni 40 dan 20% kichik;

C. 40 soni 32 sonidan 25% katta, demak, 32 soni 40 dan 20% kichik;

D. 40 soni 32 sonidan 20% katta, demak, 32 soni 40 dan 25% kichik.

40. a) Ishchining oylik ish haqi 30% ga oshdi. Uning xarid qobiliyati necha protsentga oshdi? b) Agar ish haqi o'zgarishsiz qolib, tovarlar narxi 30% ga pasay-

gan bo'lsa, ishchining xarid qobiliyati necha protsentga oshadi?

- A. a) 30%; b) 43%;
- B. a) 30%; b) 30%;
- C. a) 43%; b) 43%;
- D. a) 30%; b) 42%.

41. Quyidagi matematik jummalarning qaysi biri noto'g'ri?

A. Tekislikda qanday to'g'ri chiziqni olmaylik, bu tekislikda shu to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lgan nuqtalar ham, unga tegishli bo'lmagan nuqtalar ham mavjud;

B. To'g'ri chiziqning ikkita nuqtasi va ular orasida yotgan nuqtalardan iborat qismi kesma deyiladi;

C. To'g'ri chiziq biror O nuqtasi bilan boshi shu nuqtada bo'lgan va qarama-qarshi yo'nalgan ikki nurga ajraladi;

D. Koordinata tekisligida (3; 4) va (4; 3) sonlar juftliklari bitta nuqtani ifodalaydi.

42. Ushbu ta'rifning qaysi biri noto'g'ri ifodalan-gan?

A. A to'g'ri chiziq tekislikni ikkita yarimtekislikka bo'ladi, bunda a to'g'ri chiziq bu yarimtekisliklarning chegarasi deb ataladi;

B. To'g'ri chiziqda yotgan 3 ta nuqta (A, B, C) uch-ta turli kesmani aniqlaydi;

C. Har bir kesma noldan katta son bilan ifodalana-digan tayin uzunlikka ega;

D. To'g'ri chiziqda yotgan turli 4 ta nuqta 4 ta kesmani aniqlaydi.

43. Quyidagi iboralarning qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri?

a) turli ikkita nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin, faqat bitta;

b) har bir kesma noldan katta tayin uzunlikka ega. Kesmaning uzunligi shu kesmaning harqanday nuqtasi ajratgan qismlarining uzunliklari yig'indisiga teng;

c) bir to'g'ri chiziqda yotmagan 3 ta turli A, B, C nuqta uchun quyidagi munosabatlar doimo o'rinlidir:

$$|AB| < |AC| + |BC|,$$

$$|AC| < |AB| + |BC|,$$

$$|BC| < |AB| + |AC|;$$

d) bir to'g'ri chiziqdagi turli 3 ta A, B, C, nuqta uchun $|BC| < |AB| - |AC|$ tengsizlik doimo o'rinli.

A. a), b), c) iboralar noto'g'ri, d) ibora to'g'ri;

B. a), b), d) iboralar to'g'ri, c) ibora noto'g'ri;

C. a), b), c) iboralar to'g'ri, d) ibora noto'g'ri;

D. b), c), d) iboralar to'g'ri, a) ibora noto'g'ri.

44. Umumiy A uchga ega bo'lgan AB va AC nurlarning birida (A nuqtadan farqli) 3 ta nuqta, ikkinchisida 4 ta nuqta belgilangan. Bir uchi AB nurdagi, ikkinchi uchi esa AC nurdagi shu nuqtalarda bo'lgan barcha kesmalar sonini toping.


A. 12 ta;

B. 9 ta;

C. 8 ta;

D. 6 ta.

45. Qo'shni burchaklardan birining bissektrisasi shu burchakni 30° li burchaklarga ajratgan. Ikkinchi qo'shni burchakning bissektrisasi uni qanday burchaklarga bo'ladi?



- A. $50^\circ, 50^\circ$; B. $60^\circ, 60^\circ$;
C. $65^\circ, 65^\circ$; D. $70^\circ, 70^\circ$.

46. $\angle ABC$ ning B uchidan chiqqan n ta nur uni ($\angle ABC$ burchakni ham qo'shib hisoblaganda) nechta burchakka ajratgan?

- A. $2n$;
B. $\frac{n(n+1)}{2}$;
C. $\frac{(n+2)(n+1)}{2}$;
D. $\frac{n^2}{2}$.

47. Rasmda o'zaro teng burchaklar bir xil yoychalar bilan belgilangan. α burchakni toping.


- A. 40° ; B. 30° ;
C. 35° ; D. 60° .

48. Hovliqma quyoncha geometriya kitobini varaqlab o'tirib, «to'g'ri burchakka qo'shni burchak to'g'ri burchak bo'ladi» jumlasini o'qib qoldi va shosha-pisha quyidagi 2 ta matematik jumlani o'ylab topdi:

o'tkir burchakka qo'shni burchak o'tkir burchak bo'ladi;


o'tmas burchakka qo'shni burchak o'tmas burchak bo'ladi.

Bu jumlalarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri?



- A. Uchala jumla ham to'g'ri;
- B. 1-, 3-jumlalar noto'g'ri, 2-jumla to'g'ri;
- C. 1-jumla to'g'ri, 2-, 3-jumlalar noto'g'ri;
- D. 1-, 2-jumlalar noto'g'ri, 3-jumla to'g'ri.

49. Turli tomonli uchburchakni ikkita teng o'xshash uchburchakka ajratish mumkinmi?



- A. Ha;
- B. Tomonlarining uzunliklariga bog'liq;
- C. Yo'q;
- D. Aniq aytib bo'lmaydi.

50. Qanday uchburchakda balandliklar shu uchburchakning uchlaridan birida kesishadi?

- A. Teng tomonli uchburchakda;
- B. To'g'ri burchakli uchburchakda;
- C. Teng tomonli uchburchakda;
- D. O'tkir burchakli uchburchakda.

51. Ikkita o'ntalik uchta o'ntalikka ko'paytirilsa, nechta o'ntalik hosil bo'ladi?

- A. 5 ta o'ntalik;
- B. 50 ta o'ntalik;
- C. 6 ta o'ntalik;
- D. 60 ta o'ntalik.

52. O'rdaklar galasi uchib bormoqda. Bittasi oldinda va ikkitasi orqada, bittasi orqada va ikkitasi oldinda, bittasi ikkitasining orasida, uchasi bir qator bo'lib uchmoqda. Galadagi o'rdaklar nechta?

- A. 3 ta; B. 12 ta; C. 4 ta; D. 6 ta.

53. Son 25% ga orttirildi. Dastlabki sonni hosil qilish uchun natijani necha protsentga kamaytirish kerak?

- A. 25% ga; B. 50% ga;
C. 20% ga; D. 30% ga.

54. Son 25% ga kamaytirildi. Dastlabki sonni hosil qilish uchun natijani necha protsentga orttirish kerak?

- A. $33\frac{1}{3}\%$;
B. 50% ga;
C. 30% ga;
D. 25% ga.

55. Akasida ukasiga qaraganda 25% ko'p pul bor edi. Ularning pullari baravardan bo'lishi uchun aka ukasiga pulining necha protsentini berishi kerak?

- A. 10% ini; B. 12,5% ini;
C. 25% ini; D. 15% ini.

56. Otasi 37 yoshda bo'lganda o'g'li 3 yoshda edi. Hozir o'g'lining yoshi otasidan uch marta kichik. Ularning har biri hozir necha yoshda?

- A. 15 va 45; B. 16 va 48;
C. 17 va 51; D. 20 va 60.

57. Onasi ertalab uchta o'g'li uchun likopchada olxo'rilar qoldirib, ishga ketdi. Birinchi bo'lib katta o'g'li uyqudan turdi. Stoldagi olxo'rilarni ko'rib, ularning uchdan bir qismini yedi. Keyin ikkinchi o'g'il uyg'ondi. U hali hech kim olxo'ri yemagan bo'lsa kerak, deb o'ylab, qolgan olxo'rilarni uchdan bir qismini yedi. Hammadan keyin kenja o'g'il uyqudan turdi. Olxo'rilarning ko'rib akalari hali yemagan deb o'ylab, olxo'rilarning faqat uchdan bir qismini yedi. Onasi uyga qaytganda likobchada 8 ta olxo'ri qolganini ko'rdi. Dastlab likopchada nechta olxo'ri bo'lgan.

- | | |
|-----------|-----------|
| A. 27 ta; | B. 32 ta; |
| C. 36 ta; | D. 45 ta. |

58. Aka va uka uydan chiqib, maktabga yo'l oldi. Ukasining qadami akasining qadamidan 10% qisqa, lekin u akasidan 10% ko'proq qadam tashladi. Ulardan qaysi biri maktabga oldinroq yetib boradi?

- A. Akasi;
- B. Ukasi;
- C. Ikkalasi bir vaqtda;
- D. Bu masofaga bog'liq.

59. Otasi o'g'liga bunday dedi: «10 yil oldin mening yoshim sening yoshingdan 10 marta katta edi, 22 yildan keyin esa mening yoshim seni yoshingdan atigi ikki marta katta bo'ladi». Hozir ota va o'g'il necha yoshda.

- A. 60 va 18;
- B. 50 va 14;
- C. 52 va 16;
- D. 58 va 22.

60. O'quvchi berilgan masalani yechish uchun bir sonni 0,5 ga ko'paytirishi va natijaga 3 ni qo'shishi kerak edi. Buning o'rniga u e'tiborsizlik tufayli bu sonni 0,5 ga bo'ldi va natijadan 3 ni ayirdi. Lekin natijada javobda ko'rsatilgan son chiqdi. Ko'paytirilishi kerak bo'lgan sonni toping.

- A. 5; B. 6; C. 4; D. 3.

61. 45 sonini to'rtta qismga shunday ajratish kerakki, unda birinchi qismga 2 ni qo'shish, ikkinchi qismdan 2 ni ayirish, uchinchi qismini 2 ga ko'paytirish va to'rtinchi qismini 2 ga bo'lish natijasi bir xil chiqsin. Shu qismlarni toping.

- A. 6, 14, 5, 20; B. 8, 12, 10, 15;
C. 12, 8, 15, 20; D. 8, 12, 5, 20.

62. Birinchi raqami 8 bo'lgan turli raqamli 3 ga bo'linuvchi eng kichik uch xonali sonni yozing.

- A. 801; B. 804;
C. 798; D. 810.

63. Savdogar otini sotmoqchi bo'ldi. U otini uning tuyoqlariga qoqilgan 32 ta mix bo'yicha belgiladi. Birinchi mix uchun 1 tiyin, ikkinchi mix uchun 2 tiyin, uchinchi mix uchun 4 tiyin, to'rtinchi mix uchun 8 tiyin va hokazo. Har bir keyingi mix uchun oldingisidan ikki baravar ortiq pul so'radi. Savdogar otini qanchaga baholagan?

- A. 42 837 664 so'm 60 tiyin;
B. 42 949 672 so'm 6 tiyin;
C. 44 812 114 so'm 15 tiyin;
D. 41 416 145 so'm 12 tiyin.

64. Tekislikdagi bitta nuqtadan uchta nur o'tkazilsa, 360° dan kichik nechta burchak hosil bo'ladi?

- | | |
|----------|----------|
| A. 4 ta; | B. 5 ta; |
| C. 6 ta; | D. 8 ta. |

65. Jismoniy tarbiya darsida o'quvchilar bir qatorga saf anishdi. O'quvchilar orasidagi masofa 1 m ni tashkil etdi va qator 25 m ga cho'zildi. O'quvchilar nechta bo'lgan?

- | | |
|-----------|-----------|
| A. 25 ta; | B. 24 ta; |
| C. 26 ta; | D. 27 ta. |

66. Xonaning to'rtta burchagida bittadan mushuk, har bir mushuk qarshisida uchtdan mushuk o'tiribdi. Xonada nechta mushuk bor?

- | | |
|-----------|-----------|
| A. 4 ta; | B. 16 ta; |
| C. 12 ta; | D. 8 ta. |

67. Sinfda 36 nafar o'quvchi bo'lib, o'g'il bolalar qiz bolalardan 3 nafar ko'p. Sinfda nechta o'g'il bola va nechta qiz bola bor?

- | | |
|--------------|------------------------|
| A. 18 va 15; | B. 19 va 16; |
| C. 20 va 16; | D. To'g'ri javob yo'q. |

68. Bir kishidan yoshini so'rashgan edi, u bunday javob berdi: «10 yil oldin o'g'limdan 4 marta katta edim, 10 yildan keyin esa bor-yo'g'i 2 marta katta bo'laman». Bu kishi hozir necha yoshda?

- | | |
|---------------|---------------|
| A. 30 yoshda; | B. 40 yoshda; |
| C. 50 yoshda; | D. 60 yoshda. |

69. 634 betli kitobning har bir betini tartib bilan raqamlash uchun nechta raqamdan foydalaniladi?

- A. 1794 ta; B. 1795 ta;
C. 1793 ta; D. 1800 ta.

70. Kitob betlarini raqamlash uchun 1164 ta raqam kerak bo'ldi. Bu kitob necha betli?

- A. 423 betli; B. 424 betli;
C. 425 betli; D. 426 betli.

71. Agar o'ylangan uch xonali sondan 7 ayirilsa, 7 ga bo'linadigan son, agar 8 ayirilsa, 8 ga bo'linadigan son, 9 ayirilsa, 9 ga bo'linadigan son hosil bo'ladi. O'ylangan uch xonali sonni toping.

- A. 511; B. 497; C. 504; D. 505.

72. 1 dan boshlab barcha natural sonlar ularning ortib borishi tartibida yozilgan. Bu yozuvda 100-o'rinda necha raqami turadi?

- A. 3; B. 4;
C. 5; D. 8.

73. 9 ga karrali shunday eng kichik besh xonali son yozingki, uning birinchi raqami 6 va barcha raqamlari turlicha bo'lsin.

- A. 60129; B. 60138;
C. 60132; D. 60108.

74. Soat 4^{00} ni ko'rsatgandan necha daqiqa keyin soatning daqiqa mili soat milini quvib yetadi.

- A. $21\frac{7}{11}$ daqiqadan keyin;

B. $22\frac{5}{14}$ daqiqadan keyin;

C. $21\frac{9}{11}$ daqiqadan keyin;

D. $22\frac{7}{11}$ daqiqadan keyin.

75. 10 ta doirachani 5 ta kesmaga har bir kesmada 4 tadan doiracha yotadigan qilib joylashtirish mumkinmi? Mumkin bo'lsa, bu 5 ta kesma qanday geometrik shakl hosil qiladi?

A. Mumkin. Muntazam beshburchak;

B. Mumkin. Besh qirrali yulduz;

C. Mumkin. 5 ta teng bo'g'indan iborat siniq chiziq;

D. Mumkin emas.

76. Radiusi 5 sm ga teng bo'lgan aylanada o'zaro perpendikular bo'lgan ikkita diametr o'tkazilgan. Aylanada yotgan C nuqtadan bu diametrlarga A va B nuqtalarda perpendikularlar tushirilgan. A va B nuqtalar orasidagi masofa nimaga teng?

A. Radius uzunligiga;

B. Radius uzunligining qismiga;

C. Diametr uzunligining qismiga;

D. Diametr uzunligiga.

77. Quyida keltirilgan mulohazalardan qaysilari to'g'ri?

1) Ikkita butun sonning ko'paytmasi 6 ga bo'linsa, u holda ko'paytuvchilardan aqalli bittasi 6 ga bo'linadi.

2) Sonning 2 ga bo'linishi uchun u 0 bilan tugashi zarur.

- 3) Ikki toq sonning yig'indisi toq son bo'ladi.
 - 4) Kubi 2 raqami bilan tugaydigan butun son mavjud emas.
 - 5) $a^3 = a^2$ bo'lishi uchun $a = 1$ bo'lishi zarur.
 - 6) Butun sonning kubi 5 ga bo'linishi uchun shu sonning o'zi 5 ga bo'linishi zarur.
 - 7) Istalgan juft sonning kvadrati 4 ga bo'linadi.
 - 8) 1 dan katta istalgan natural son aqalli bitta tub songa bo'linadi.
 - 9) Agar $|a| = |b|$ bo'lsa, u holda $a = b$ bo'ladi.
 - 10) Agar $a = b$ bo'lsa, u holda $|a| = |b|$ bo'ladi.
 - 11) Agar $ab > 0$ bo'lsa, u holda $a > 0$ va $b > 0$ bo'ladi.
- A. 6), 7), 9), 10) va 11);
 - B. 6), 7), 8) va 10);
 - C. 2), 4), 7), 9) va 11);
 - D. 6), 7), 8), 9) va 11).

78. Agar uchta butun sonning yig'indisi juft son bo'lsa, u holda bu sonlarning ko'paytmasi haqida nima deyish mumkin?

- A. Ko'paytma toq son bo'ladi;
- B. Ko'paytma juft son bo'ladi;
- C. Ko'paytma juft son ham, toq son ham bo'lishi mumkin;
- D. Ko'paytma manfiy son bo'ladi.

79. Agar ko'paytuvchilardan har biri berilgan songa qoldikli bo'linsa, u holda ularning ko'paytmasi ham berilgan songa qoldikli bo'linadi deyish mumkinmi?

- A. Yo'q;
- B. Ha;
- C. Har doim emas;
- D. Aniq aytib bo'lmaydi.

80. Hozirda oila a'zolarining umumiy yoshi 73 yosh. Oila ota, ona, qiz va o'g'ildan iborat. Ota onadan 3 yosh, qiz esa o'g'ildan 2 yosh katta. To'rt yil avval oila a'zolarining umumiy yoshi 18 yosh edi. Hozir har bir oila a'zosi necha yoshda?

A. Ota – 34 yosh, ona – 31 yosh, qiz – 5 yosh, o'g'il – 3 yosh;

B. Ota – 33 yosh, ona – 30 yosh, qiz – 6 yosh, o'g'il – 4 yosh;

C. Ota – 35 yosh, ona – 32 yosh, qiz – 4 yosh, o'g'il – 2 yosh;

D. Ota – 36 yosh, ona – 33 yosh, qiz – 3 yosh, o'g'il – 1 yosh.

81. Savatda ikki xil navli olmalar bor. Savatdan bir nechta olma olinadi. Olingan olmalar ichida aqalli ikkitasi bir xil navli olma bo'lishi uchun eng kamida nechta olma olish kerak?

A. 2 ta; B. 3 ta; C. 4 ta; D. 5 ta.

82. Qutida 4 ta rangli va 10 ta qora qalam bor. Qutidan bir nechta qalam olinadi. Olingan qalamlar ichida kamida uchtasi qora qalam bo'lishi uchun eng kamida nechta qalam olish kerak?

A. 5 ta; B. 6 ta;
C. 7 ta; D. 8 ta.

83. Dilshod va Farhod bitta ko'p qavatli uyda yashaydi. Dilshod ikkinchi qavatda, Farhod esa to'rtinchi qavatda yashaydi. Dilshodlarning uyidagi pol Farhodlarning uyidagi poldan yer sirtiga nisbatan necha marta ba-

landda joylashgan (birinchi qavatning poli yer sirtidan boshlanadi va barcha qavatlarning balandliklari bir xil).

- A. 2 marta;
- B. 3 marta;
- C. 4 marta;
- D. 2,5 marta.

84. Eng kichik uch xonali son hosil bo'lishi uchun eng katta bir xonali songa eng katta ikki xonali sonni necha marta qo'shish kerak?

- A. 10 marta;
- B. 15 marta;
- C. 20 marta;
- D. 5 marta.

85. Birinchi yuzlikning barcha juft sonlari yig'indisi shu yuzlikning barcha toq sonlari yig'indisidan nechta ortiq?

- A. 50 ta;
- B. 54 ta;
- C. 48 ta;
- D. 52 ta.

86. Agar ikki sonning eng kichik umumiy karralisi ularning ko'paytmasiga teng bo'lsa, u holda bu sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nechaga teng bo'ladi?

- A. Sonlardan biriga;
- B. 1 ga;
- C. 2 ga;
- D. Sonlarning yig'indisiga.

87. Do'konga keltirilgan hamma kartoshka 24 ta yelim xaltachaga 5 kg va 3 kg dan qilib joylandi. 5 kg li barcha xaltachalarning umumiy massasi 3 kg li barcha xaltachalarning umumiy massasiga teng. Ikkala turdagi xaltachalardan nechtdan bo'lgan?

- A. 3 kg li xaltachadan 15 ta, 5 kg li xaltachadan 9 ta;
- B. 3 kg li xaltachadan 14 ta, 5 kg li xaltachadan 10 ta;
- C. 3 kg li xaltachadan 13 ta, 5 kg li xaltachadan 11 ta;
- D. 3 kg li xaltachadan 16 ta, 5 kg li xaltachadan 8 ta.

88. Ikki o'quvchi shashka o'ynamoqda edi. Birinchi o'yinchining vaziyati ancha og'ir edi. U navbatdagi yurishni o'ylayotganda ikkinchi o'yinchi shashka o'ynalayotgan taxtani kuzatdi. Ma'lum bo'lishicha, taxtadagi bo'sh kataklar soni shashka donalari bilan band bo'lgan kataklar sonidan uch marta ko'p va uning shashkalari soni birinchi o'yinchining shashkalari sonidan ikkita ortiq ekan. Shu vaqtda shaxmat taxtasida har bir o'yinchining nechtdan shaxmat donalari bo'lgan?

- A. 6 va 8;
- B. 7 va 9;
- C. 8 va 10;
- D. 5 va 7.

89. Bir yo'lda ikki bola bir yo'nalishda yurib bormoqda. Dastlab ular orasidagi masofa 2 km edi. Oldinda borayotgan bola soatiga 4 km tezlik bilan, ortda borayotgan bola soatiga 5 km tezlik bilan harakatlanayotgani sababli ikkinchi bola birinchisiga yaqinlashib bormoqda. Ikkinchi bola harakatlanishni boshlagandan, to birinchi bolaga yetib olguncha ular orasida bir it o'rtacha soatiga 8 km tezlik bilan yugurdi. U orqadagi boladan

oldindagi bola tomon yugurar va unga yetgach, orqaga-ortda borayotgan bola tomon yugurar edi va u shu zaylda harakatini bolalar uchrashguncha davom ettirdi. Shu vaqt ichida it qancha masofani bosib o'tgan?

- A. 14 km;
- B. 15 km;
- C. 16 km;
- D. 17 km.

90. Bozordan ikki sotuvchi ayol qaytmoqda edi. Ulardan biri ikkinchisidan so'radi: «Siz nima sotdiniz?» Ikkinchisi javob berdi: «Men jo'jalar sotdim, bunda shunday bo'ldiki, men birinchi xaridorga hamma jo'jalarimning yarmini va yana yarimta jo'ja, ikkinchi xaridorga qolgan jo'jalarning yarmini va yana yarimta jo'ja, uchinchi xaridorga ham qolgan jo'jalarning yarmini va yarimta jo'ja sotgan bo'lib chiqdim. Shundan keyin jo'jalarim qolmadi». Sotuvchi ayol nechta jo'ja sotgan?

- A. 7 ta; B. 8 ta;
- C. 6 ta; D. 9 ta.

91. Ikkita odam bir vaqtda bitta uydan chiqdi va bitta manzil tomon yo'l oldi. Birinchi odamning qadami uzunligi ikkinchisidan 10% qisqa, shu bilan birga u ikkinchisiga nisbatan 10% ko'proq qadam bosar edi. Ulardan qaysi biri manzilga oldinroq yetib boradi?

- A. Birinchi;
- B. Ikkinchi;
- C. Ikkalasi baravar yetib boradi;
- D. Bosib o'tiladigan masofaga bog'liq.

92. Menga besh xonali son berilgan edi. Bu songa 200000 ni qo'shish va yig'indini 3 ga ko'paytirish kerak. Buning o'rniga men berilgan sonning o'ng tomoniga 2 raqamini yozib qo'ydim va to'g'ri natijani hosil qildim. Menga qanday son berilgan edi?

- A. 85 714;
- B. 85 174;
- C. 85 274.
- D. 86 604.

93. Masalani yechish uchun bir o'quvchi berilgan sonni 0,5 ga ko'paytirishi va hosil bo'lgan ko'paytmaga 3 ni qo'shishi kerak edi. Buning o'rniga o'quvchi e'tiborsizligi natijasida berilgan sonni 0,5 ga bo'ldi va hosil bo'lgan bo'linmadan 3 ni ayirdi. Omadni qarangi, natija talab etilgan amallarni bajarishdan kelib chiqadigan natija bilan bir xil chiqdi. O'quvchi ko'paytirishi kerak bo'lgan sonni toping.

- | | |
|-------|-------|
| A. 6; | B. 5; |
| C. 4; | D. 3. |

94. Bir cho'pon ikkinchisiga dedi: «O'z qo'ylaringdan birini menga ber, shunda mening qo'ylarim sening qo'ylaringdan ikki marta ko'p bo'ladi». Ikkinchi cho'pon javob berdi: «Yo'q, yaxshisi sen menga o'z qo'ylaringdan birini ber, shunda bizning qo'ylarimiz baravardan bo'ladi». Har bir cho'ponda nechtdan qo'y bo'lgan?

- | | |
|------------|------------|
| A. 7 va 5; | B. 8 va 6; |
| C. 6 va 4; | D. 5 va 7. |

95. 60° ga teng bo'lgan o'tkir burchakka bir-biriga tashqi urinuvchi ikkita aylana ichki chizilgan. Kichik aylananing radiusi 2 sm bo'lsa, katta aylananing radiusini toping.

- A. 5 sm;
- B. 17 sm;
- C. 8 sm;
- D. 6 sm.

96. Uzunligi 0,5 km bo'lgan poyezdning 0,5 km uzunlikdagi toneldan soatiga 60 km tezlik bilan o'tishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

- A. 1 daqiqa;
- B. 1,5 daqiqa;
- C. 2 daqiqa;
- D. 2,5 daqiqa.

97. Agar aylana diametrining uchlari uning bi-
ror urinmasidan 18 va 12 sm uzoqlikda ekani ma'lum bo'lsa, shu aylana diametrining uzunligini toping.

- A. 28;
- B. 27;
- C. 30;
- D. 29.

98. Uchburchak asosidagi burchaklarning kattasi 40° ga teng, balandligi asosini 24 sm va 7 sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Shu uchburchakning katta yon tomoni uzunligini toping.

- A. 23;
- B. 25;
- C. 24;
- D. 26.

99. Qanday uchburchakda uning balandliklari burchaklaridan birida kesishadi?

- A. Teng yonli uchburchakda;
- B. To'g'ri burchakli uchburchakda;
- C. Muntazam uchburchakda;
- D. Aniq qonuniyat yo'q.

100. Uchburchakning perimetri 4,5 sm bo'lib, ichki burchagining bissektrisasi qarama-qarshi tomonni 6 sm va 4 sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchakning tomonlarini toping.

- A. 12 sm, 18 sm, 15 sm;
- B. 13 sm, 19 sm, 13 sm;
- C. 16 sm, 18 sm, 11 sm;
- D. 10 sm, 14 sm, 21 sm.

101. Aylanaga ichki chizilgan teng yonli uchburchak asosining uzunligi 10 sm, yon tomonining uzunligi 12 sm. Uchburchak balandligining o'rtasidan asosga parallel bo'lgan vatar o'tkazilgan. Vatarining uzunligini toping.

- A. 13 sm;
- B. 14 sm;
- C. 12 sm;
- D. 11 sm.

Testlarning to'g'ri javoblari

1. B.	28. D.	55. A.	82. C.
2. B.	29. D.	56. C.	83. B.
3. C.	30. A.	57. A.	84. A.
4. D.	31. C.	58. B.	85. A.
5. A.	32. A.	59. B.	86. B.
6. D.	33. C.	60. C.	87. A.
7. D.	34. C.	61. D.	88. B.
8. C.	35. A.	62. A.	89. C.
9. C.	36. A.	63. B.	90. A.
10. A.	37. B.	64. C.	91. B.
11. D.	38. B.	65. C.	92. A.
12. C.	39. C.	66. A.	93. C.
13. C.	40. D.	67. D.	94. A.
14. B.	41. D.	68. C.	95. D.
15. B.	42. D.	69. A.	96. A.
16. D.	43. C.	70. B.	97. C.
17. C.	44. A.	71. C.	98. B.
18. B.	45. B.	72. C.	99. B.
19. A.	46. C.	73. A.	100. D.
20. D.	47. B.	74. C.	101. A.
21. C.	48. C.	75. B.	
22. D.	49. C.	76. A.	
23. C.	50. B.	77. B.	
24. D.	51. D.	78. B.	
25. B.	52. A.	79. C.	
26. D.	53. C.	80. A.	
27. A.	54. A.	81. B.	

FIZIKA

1. Qaysi fizik kattalikning uzunligi, chuqurligi, kengligi, balandligi bo'lsa-da, uni o'lchash mumkin?

- A. Tok kuchi va kuchlanish;
- B. Energiya va quvvat;
- C. Vaqt va temperatura;
- D. Barcha javob to'g'ri.

2. Qadim zamonda bir kunda ho'kiz qo'shilgan omoch bilan haydalgan yer yuzasi 1 Akr deb qabul qilingan. Akr turli davlatlarda turlicha qiymatga ega bo'lgan. Ayting-chi, Angliyada, Germaniyada va Irlandiyada 1 Akr necha m^2 ga teng deb qabul qilingan?

A. Angliyada – 1 Akr = $4047 m^2$, Germaniyada – 1 Akr = $5534,2 m^2$, Irlandiyada – 1 Akr = $6555 m^2$;

B. Angliyada – 1 Akr = $4050 m^2$, Germaniyada – 1 Akr = $4534,2 m^2$, Irlandiyada – 1 Akr = $3555 m^2$;

C. Angliyada – 1 Akr = $6555 m^2$, Germaniyada – 1 Akr = $5534,2 m^2$, Irlandiyada – 1 Akr = $4047 m^2$;

D. Angliyada, Irlandiyada va Germaniyada bir xil – 1 Akr = $4047 m^2$ deb qabul qilingan.

3. Arpa – 19-asrda Xorazmda og'irlik birligi bo'lib xizmat qilgan, u necha grammga teng?

A. 1 A = $1/100$ misqol = 4,53 g;

B. 1 A = 4,53 g;

C. 1 A = 0,045 g;

D. 1 A = $1/100$ misqol = 5,50 g;

4. Vengriyada Arpa o'lchov birligi sifatida hozir ham ishlatiladi. Bu davlatda Arpa nimaning birligi sifatida ishlatiladi?

- A. Kuch birligi sifatida;
- B. Hajm birligi sifatida;
- C. Yuza birligi sifatida;
- D. Og'irlik birligi sifatida.


5. 19-asrda Xorazmda og'irlik birligi sifatida Arpa bilan birga Ag'ri ham ishlatilgan. 1 Ag'ri necha grammga teng?

- A. 1 Ag'ri = 600 g;
- B. 1 Ag'ri = 500 g;
- C. 1 Ag'ri = 620 g;
- D. 1 Ag'ri = 62,8 g.

6. Ball – raqam bilan ifodalanadigan baho. Bi-
ror hodisani miqdor va sifat jihatdan ifodalashda,
o'quvchilarning bilimlarini va ba'zi sohalarda, (masalan,
sportda) erishilgan yutuqlarini baholashda shartli birlik
sifatida qo'llaniladi. Bu birlik turli davlatlarda turlicha
qabul qilingan. MDHda, Italiyada, Gollandiyada qanday
balli baho qo'yiladi?

- A. MDHda – 5 B., Italiyada – 10 B., Gollandiyada – 11 B.;
- B. MDHda – 5 B., Italiyada – 11 B., Gollandiyada – 10 B.;
- C. MDHda – 10 B., Italiyada – 5 B., Gollandiyada – 11 B.;
- D. MDHda – 11 B., Italiyada – 10 B., Gollandiyada – 5 B.

7. Ikkita o‘zaro naycha bilan tutashtirilgan bir xil 1- va 2-idishlarga bir xil sathgacha bir xil miqdorda suyuqlik quyilgan. Idishlarni tutashtiruvchi naychadagi suyuqliklarni ajratib turuvchi parda egiladimi? Qaysi idish tubida bosim katta bo‘ladi?



A. 1- va 2-idishlar tubiga bosim bir xil, parda egilmaydi;

B. 1-idish tubidagi bosim 2-idish tubidagi bosimdan katta, parda 1-idish tomonga egiladi;

C. 2-idish tubidagi bosim 1-idish tubidagi bosimdan katta, parda 2-idish tomonga egiladi;

D. 1-idish tubidagi bosim 2-idish tubidagi bosimdan katta, parda 2-idish tomonga egiladi.

8. Bir probirkaga sovuq suv, ikkinchi probirkaga qaynoq suv quyilgan. Har bir probirkaga bir xil miqdorda kimyoviy qalam bo‘lagi tashlandi. Qaysi probirkadagi suv tezroq bo‘yaladi va nima uchun?

A. Sovuq suv quyilgan probirkadagi suv tezroq bo‘yaladi, chunki sovuq suvda molekulalarning harakat tezligi kichik;

B. Sovuq suv quyilgan probirkadagi suv tezroq bo‘yaladi, chunki sovuq suvda molekulalarning harakat tezligi katta;

C. Qaynoq suv quyilgan probirkadagi suv tezroq bo'yaladi, chunki qaynoq suvdagi molekulalarning harakat tezligi kichik;

D. Qaynoq suv quyilgan probirkadagi suv tezroq bo'yaladi, chunki qaynoq suvdagi molekulalarning harakat tezligi katta;

9. Fizikada bosim birligi SI sistemasida Pa qabul qilingan bo'lib, hosilaviy birlik sifatida fizik atmosfera (atm) va texnik atmosfera (at) ham qo'llaniladi. Fizik atmosfera (atm) va texnik atmosfera (at) orasida qanday farq bor?

A. Fizik atmosfera – $1 \text{ atm} = 1,013250 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$,
texnik atmosfera – $1 \text{ at} = 0,980665 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$;

B. Fizik atmosfera – $1 \text{ atm} = 0,980665 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$,
texnik atmosfera – $1 \text{ at} = 1,013250 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$;

C. 1-fizik atmosfera 1-atmosfera teng;

D. 1-atm va 1-at hech qayerda qo'llanilmaydi.

10. Hozirgi kunda tabiiy uzunlik birligi etaloni sifatida nima qabul qilingan?

A. Muayyan tebranish davriga ega bo'lgan mayatnikning uzunligi;

B. Platina-iridiy qotishmasidan tayyorlangan metr etalonining uzunligi;

C. Kripton atomi nurlaydigan ma'lum sondagi to'lqin uzunliklari;

D. Yorug'likning soniyaning muayyan ulushida o'tgan masofa uzunligi.

11. Dengiz chuqurligini o'lchash uchun quyida sanab o'tilgan usullarning qaysi biridan foydalaniladi?

- A. Tovush lokatsiyasidan;
- B. Radiolokatsiyadan;
- C. O'lchov lentasidan;
- D. Yorug'lik lokatsiyasidan.

12. Lukretsiy Kar – vaqt harakatdan tashqari-da o'zicha mavjud emas, deb yozgan. Isaak Nyuton esa vaqtni jismlar va ularning harakatlariga bog'liq bo'lmagan absolut (mutlaq) kattalik deb hisoblagan. Ulardan qaysi birining fikri vaqt tabiati to'g'risidagi hozirgi zamon tushunchalariga yaqin edi?

- A. Lukretsiy Kar;
- B. Isaak Nyuton;
- C. Ikkalasing da'vosi to'g'ri;
- D. Ikkalasing da'vosi noto'g'ri.

13. Hozirgi vaqtda vaqt birligini aniqlash uchun tabiiy asos sifatida nima qabul qilingan?

- A. Yer kurrasining o'z o'qi atrof da aylanish davri;
- B. Yerning Quyosh atrof da aylanish davri;
- C. Seziy atomining nurlanish davri;
- D. Muayyan uzunlikdagi mayatnikning tebranish davri.

14. Quyida sanab o'tilgan usullarning qaysi biridan uchib ketayotgan samolyotlarga bo'lgan masofani aniqlashda foydalaniladi?

- A. Tovush lokatsiyasi usulidan;
- B. Radiolokatsiya usulidan;

- C. Yorug'lik lokatsiyasi usulidan;
- D. Parallaks usulidan.

15. Oy yer atrofida doimo bir tomoni bilan qaragan holatda aylanadi. Oy sirtida turgan kosmonavtga nisbatan yer markazi qanday trayektoriya bo'yicha harakatlanadi?

- A. Ellips;
- B. Aylana;
- C. Nuqta;
- D. To'g'ri javob yo'q.

16. Odam haroratini o'lchash uchun mo'ljallangan meditsina termometri yordamida qishda tashqi haroratni o'lchash mumkinmi?

- A. Mumkin;
- B. Mumkin emas;
- C. Agar tashqarida suv muzlamagan bo'lsa, mumkin;
- D. Mumkin, buning uchun termometr shkalasini o'zgartirish kerak.

17. Cho'g'lanma elektr lampa chulg'amidan o'tayotgan tok kuchi 0,5 A ga, uning uchlaridagi kuchlanish 2 V ga teng. Lampa chulg'amining qarshiligi qancha?

- A. 0,25 Ω ;
- B. 0,5 Ω ;
- C. 1 Ω ;
- D. 4 Ω .

18. Amper – qanday fizik kattalik birligi?

- A. Kuchlanish birligi;
- B. Bosim birligi;
- C. Hajm birligi;
- D. Tok kuchi birligi.

19. Lampadan o'tayotgan tok kuchini va uning ulanish uchlaridagi kuchlanishni o'lchash kerak. Buning uchun ampermetr va voltmetrni lampa zanjiriga qanday ulash kerak?

- A. Ampermetr va voltmetrni lampa bilan ketma-ket ulash kerak;
- B. Ampermetr va voltmetrni lampa bilan parallel ulash kerak;
- C. Ampermetrni lampaga ketma-ket, voltmetrni parallel ulash kerak;
- D. Ampermetrni lampaga parallel, voltmetrni ketma-ket ulash kerak.

20. Tebranish konturidagi elektr tebranishlar davrini hisoblash formulasini ko'rsating.

A. $F = \sqrt{LC}$;

B. $T = \frac{\pi}{2} \sqrt{LC}$;

C. $T \sqrt{\frac{m}{\delta}}$;

D. $T \sqrt{\frac{rn}{r}}$.


21. Cho'g'lanma elektr lampa chulg'aming qarshiligi 4 Om ga, uning uchlaridagi kuchlanish 2 V ga teng. Lampa chulg'aming qarshiligi qancha?

- A. 0,25 A;
- B. 0,5 C;
- C. 1 A;
- D. 0,5 A.


22. Lampadan o'tayotgan tok kuchini va undagi kuchlanishni o'lchash kerak. Buning uchun ampermetr va voltmetrni lampa zanjiriga qanday ulash kerak?

- A. Ampermetr va voltmetrni lampa bilan ketma-ket ulash kerak;
- B. Ampermetr va voltmetrni lampa bilan parallel ulash kerak;
- C. Ampermetrni lampaga ketma-ket, voltmetrni parallel ulash kerak;
- D. Ampermetrni lampaga parallel, voltmetrni ketma-ket ulash kerak;


23. Qaysi chizmada elektr lampalar ketma-ket ulangan?




1



2



3



4

- A. 1-chizmada;
- B. 4-chizmada;
- C. 1- va 4-chizmalar;
- D. 2 va 3-chizmalar.

24. Elektrolitlarda elektr tokini hosil qiluvchi zaryad tashuvchi bo'lib qaysi zaryadlar xizmat qiladi?

- A. Elektronlar va musbat ionlar;
- B. Musbat va manfiy ionlar;
- C. Musbat, manfiy ionlar va elektronlar;
- D. Faqat elektronlar.

25. Tok manbai klemmalariga ampermetr va voltmetrni to'g'ridan to'g'ri (bevosita) ulash mumkinmi?

- A. Ampermetrni manbaga bevosita parallel ulash mumkin, voltmetrni esa mumkin emas;
- B. Voltmetrni manbaga bevosita parallel ulash mumkin, ampermetrni esa mumkin emas;
- C. Ampermetrni manbaga bevosita ulash mumkin, voltmetrni esa shunt orqali ulash kerak;
- D. Barcha javoblar noto'g'ri.

26. Yer sirtidan yer radiusiga teng balandlikka ko'tarilgan jismning erkin tushish tezlanishi qancha bo'ladi?

- A. $g \approx 2,5 \text{ m/s}^2$;
- B. $g \approx 25 \text{ m/s}^2$;
- C. $g \approx 10 \text{ m/s}^2$;
- D. $g \approx 0 \text{ m/s}^2$.

27. Yer atrofida doiraviy orbita bo'yicha harakatlantirayotgan yo'ldosh-kema ichidagi kosmonavt vaznsizlik holatidaturibdi. Bunday holatda kosmonavtga hech qanday kuch ta'sir etmaydi deyish mumkinmi?

- A. Kema ichidagi kosmonavtga hech qanday kuch ta'sir etmaydi. Shuning uchun u hech qanday tezlanishga ega bo'lmaydi;

B. Kema ichidagi kosmonavtga yerning o'z o'qi atrofda aylanishi tufayli hosil bo'lgan markazdan qochma kuch ta'sir etadi;

C. Yo'ldosh-kema ichidagi kosmonavtga og'irlik kuchi ta'sir etadi. Bu kema ichidagi hamma jismlarga birday tezlanish beradi. Bu tezlanish-kema o'z orbitasi bo'ylab harakatidagi markazga intilma tezlanishidan iborat;

D. Kema ichidagi kosmonavtga faqat yerning orbita bo'ylab harakati natijasida hosil bo'lgan markazga intilma kuch ta'sir etadi.

28. Quyida keltirilgan formulalardan qaysi biri Mendeleyev – Klapeyron tenglamasi hisoblanadi?

A. $r = \frac{N}{N_A};$

B. $v^2 = v_x^2 + v_y^2 + v_z^2;$

C. $p = \frac{1}{3} m_{an};$

D. $pV = \frac{m}{\mu} RT.$

29. 220 V ga mo'ljallangan ikkita – biri 100 W, ikkinchisi 200 W quvvatli lampa elektr tarmog'iga ketma-ket ulansa, ulardan qaysi biri xiralashadi?

A. 200 W quvvatli lampa xira yonadi, chunki u katta quvvat iste'mol qiladi;

B. Ikkala lampa xirlashadi;

C. 100 W quvvat iste'mol qiladigan lampaning quvvati kam, shuning uchun u ko'proq xiralashadi;

D. Ikkala lampa xiralashadi.

30. Quyida sanab o'tilgan nurlanishlardan qaysi birining to'liq uzunligi eng katta?

- A. Ultrabinafsha nurlar;
- B. Infraqizil nurlar;
- C. Ko'rinuvchan nurlar;
- D. Radioto'liqlar.

31. Elektr zanjiri ichki qarshiligi 2Ω bo'lgan tok manbayidan va 1Ω qarshilikka ega o'tkazgichdan iborat. Zanjirga ulangan tok manbayining EYUK 12 V bo'lsa, zanjirdagi tok kuchi qancha?

- A. 18 mA;
- B. 12 A;
- C. 6 kA;
- D. 6 A.

32. Shaxsiy yengil avtomobilingizda yolg'iz o'zingiz dala hovliga ketayotganda, kutilmaganda mashina balloni teshilib qoldi. Siz darhol mashinani to'xtatib zaxiradagi g'ildirakni o'rnatishga kirishdingiz. G'ildirakni almashtirayotganda uni qotiradigan to'rtta gaykani kanalizatsiya lyukiga tushirib yubordingiz. Gaykalarni olishning iloji yo'q. Bunday vaziyatda kimsasiz joyda qolib ketmaslik uchun qanday yo'l tutish kerak?

A. Avtomobilni signalizatsiyaga ulab, yo'lovchi mashinaga o'tirib yaqin oradagi texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasiga borib kelish kerak;

B. Yo'lovchi mashinani to'xtatib, haydovchidan yordam so'rash kerak;

C. Avtomobilning qolgan uchta g'ildiragidan bit-tadan gaykasini yechib olib, almashtirilgan g'ildirakni shu uchta gayka bilan qotirib, manzilga yetib olish kerak;

D. Qo'l telefoni orqali evakuator chaqirish kerak.

33. Agar ichiga suv to'ldirilgan va hamma tomoni zich berkitilgan yupqa devorli kolbaga qaratib kichik ka-librli miltiqdan o'q uzilsa, qanday hodisa sodir bo'ladi?

A. Paskal qonuniga ko'ra kolba suvga to'la bo'lgani uchun o'qning katta bosimi uning hamma devorlari bo'ylab teng tarqaladi va kolbani parchalab yuboradi;

B. O'q kolbani teshib o'tadi va teshik orqali suv oqib ketadi;

C. O'q kolba devoriga urilib, orqaga qaytadi;

D. Hamma javob to'g'ri.

34. Imperialistik urush vaqtida, o'sha vaqtlardagi gazetalarda yozilishicha, fransuz uchuvchisi g'aroyib voqeaning guvohi bo'lgan. U yerdan ikki kilometr ba-landlikda uchib ketayotib, uning yuzi yaqinida pashsha-ga o'xshash qandaydir kichik narsa u bilan birga uchib borayotganini ko'rib, uni qo'li bilan sovuqqonlik bilan ushlab olib qarasaki, bu narsa nemislarning unga qarata otgan o'qi ekan. Shunday bo'lishi mumkinmi?

A. Ha, bo'lishi mumkin. 800–900 km/sek boshlang'ich tezlik bilan otilgan o'q 2000 m baland-likka yetganda, havo qarshiligi va yerning tortish kuchi ta'sirida tezligi kamayib, samolyot bilan bir xil 40 m/sek tezlikda harakatlangan;

B. Yo'q, O'qning tezligi juda katta bo'lgani uchun samolyotdan o'zib ketgan bo'lar edi;

C. Agar samolyot o'q bilan bir yo'nalishda bir xil tezlikda uchayotgan bo'lsa, shunday hodisani kuzatish mumkin;

D. Hamma javob to'g'ri.

35. Vladivostokdan ertalab soat 6:00 da uchgan samolyot Moskvaga xuddi shu vaqtning o'zida, ya'ni ertalab soat 6:00 da yetib kelishi mumkinmi?

A. Ha, mumkin. Chunki Vladivostok bilan Moskva-ning poyas vaqtlari orasidagi farq 9 soatni tashkil etadi. Bu shaharlar orasidagi masofa esa 9000 km ga teng. Samolyot shu masofani 9 soatda uchib o'tishi kerak, hozirgi texnika taraqqiyoti davrida buni amalga oshirish mumkin;

B. Ha, mumkin. Buning uchun soatni 9 soat to'xtatib qo'yish kerak;

C. Ha, mumkin. Buning uchun samolyotda emas, raketada uchish kerak;

D. Yo'q, mumkin emas. Hech qachon vaqtni to'xtatib bo'lmaydi.

36. 1924-yil Leningrad–Tifis yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan avtomobil poygasi vaqtida kavkazlik ishqibozlar qishloq yo'llaridan yeldek uchib borayotgan avtomobilarga, ularni qarshi olayotib, tarvuz-qovunlar, olmalarni sovg'a sifatida tashlaganlar. Bu sovg'alar oqibatlarini haqida nimalarni bilasiz?

A. Poyga ishtirokchilari qovun, tarvuz va olmalarni ilib olib, yeyishgan;

B. Poyga ishtirokchilari otilgan qovun-tarvuzlar mashina kuzovini pachoqlashini, fara va old oynalarini

sindirishini, olmalar esa haydovchilarning peshonasiga tegib g'o'rra qilayotganini ko'rib qo'rqib ketishgan;

C. Poyga ishtirokchilari bularga parvo qilmay, poygani davom ettirishgan;

D. To'g'ri javob yo'q.

37. O'nli tarozida tik turgan holatda og'irligingizni tortayotgan vaqtda o'tirib-tursangiz, tarozining qaysi paytdagi ko'rsatishi to'g'ri bo'ladi?

A. O'tirayotgan vaqtda;

B. Turayotgan vaqtda;

C. Tik holatda tinch turganda;

D. Hamma javob to'g'ri.

38. Yangi damlangan qaynoq choyni shisha stakanlarga quyishdan oldin nima qilinsa, stakan yorilmaydi?

A. Stakan ichiga kumush qoshiq solib qo'yish kerak;

B. Stakan ichiga bir chaqmoq qand tashlab qo'yish kerak;

C. Stakanni quruq sochiq bilan artish kerak;

D. Hamma javob to'g'ri.

39. Faraz qiling, yer o'z o'qi atrof da aylanishdan va orbitasi bo'yicha harakatlanishdan birdan to'xtab qoldi. Qanday hodisalar sodir bo'lishi mumkin?

A. Yer yuzida harakatlanuvchi barcha jonli mavjudotlar halok bo'ladi va buyumlar bilan birga fazoga katta tezlik bilan uchib ketadi;

B. O'simliklar o'smay, so'liy boshlaydi;

C. Okean va dengiz suvlari fazoga sochilib ketadi;

D. Hamma javob to'g'ri.

40. Hamma suyuqliklar hech qanday shaklga ega emas, ular o'zi quyilgan idish shaklini egallaydi xolos, deb o'ylaydi. Bu fikr to'g'rimi?

A. Ha, to'g'ri;

B. Yo'q, suyuqlik muzlatilgandagina o'z shakliga ega bo'ladi;

C. Arximed qonuniga ko'ra suyuqlik boshqa, solishtirma og'irligi bir xil bo'lgan suyuqlik ichiga quyilsa, u o'z og'irligini yo'qotib, o'zining tabiiy shakli – shar shaklini oladi, demak har qanday suyuqlikning tabiiy shakli shardir;

D. Yerning tortish kuchi maydonida suyuqliklar o'z shaklini yo'qotadi.

41. Suvga sho'ng'ib chiqqan hayvonlar darhol silkinadilar. Bunda qaysi fizik qonun amalda bo'ladi?

A. Inersiya qonuni;

B. Markazdan qochma kuch;

C. Markazga intilma kuch;

D. Butun olam tortishish qonuni.

42. Nima uchun sportchi sakrash oxirida oyoqlarini bukadi?

A. Sportchi sakrash oxirida oyoqlarini bukish bilan tormozlanish yo'lini sun'iy ravishda uzaytiradi va shu bilan yerga urilish kuchini kamaytiradi;

B. Sportchi uzoqqa sakrashda oyoqlarini bukish bilan sakrash masofasini uzaytirishga harakat qiladi;

C. Sportchi sakrash oxirida oyoqlarini bukib yerga yumshoq qo'nadi;

D. Hamma javob to'g'ri.

43. Don massasini yelpig'ich bilan saralashda fizika-ning qaysi qonunidan foydalaniladi?

A. Inersiya qonunidan. Havo oqimi ta'sirida shakli va hajmi bir xil, ammo massasi har xil bo'lgan donlar birday tezlanish olmaydi, shuning uchun og'irroqlari yaqinga, yengillari uzoqroqqa borib tushadi;

B. Massaning saqlanish qonunidan;

C. Harakat miqdorining saqlanish qonunidan;

D. Bernulli qonunidan.

44. Raketada fazoga ko'tarilayotgan kosmonavtga tushadigan o'ta yuklanish nimaga bog'liq: raketaning tezligami, yoki uning tezlanishigami?

A. Raketadagi odamga o'ta yuklanish raketaning tezligiga emas, balki uning tezlanishiga bog'liq bo'lib, bu faqat raketa ko'tarilayotganda va tushayotganda hamda uchish yo'nalishini o'zgartirayotganda yuzaga keladi;

B. Raketada fazoga ko'tarilayotgan kosmonavtga tushadigan o'ta yuklanish raketaning tezligiga bog'liq;

C. Raketaning uchish yo'nalishiga bog'liq;

D. Kosmonavtning og'irligiga bog'liq.

45. Nima uchun yugurib ketayotgan odam tez burilib olish uchun biror simyog'och yoki daraxt tanasini mahkam quchoqlab olib buriladi?

A. Simyog'och yoki shunga o'xshash biror narsa burilish belgisi (nuqtasi) bo'lgani uchun;

B. Inersiya kuchini yengish uchun;

C. Yugurish yo'nalishini o'zgartirish uchun ma'lum kuch sarf ash kerak. Qo'l bilan simyog'och yoki daraxtni ushlaganda shunday kuch sarf anadi.

D. Markazdan qochma kuchni muvozanatlash uchun.

46. Nima uchun ba'zi shaharlarda kuz paytida o'rmon yoki daraxtzorlardan o'tgan tramvay yo'llari chekkasiga «EHTIYOT BO'LING!» degan plakat osib qo'yilgan bo'ladi?

A. Relslar ustida barglar va shox-shabbalar uyilgan bo'lsa, tramvay izidan chiqib ketishi mumkin.

B. Relslar ustiga tushgan daraxt barglari ishqalanishni kamaytiradi, shuning uchun tormozlanganda vagon katta masofacha sirpanib boradi;

C. Relslar ustiga tushgan barglar temir yo'lni zanglatib, elektr toki kontaktlari yomonlashadi;

D. Tramvay harakatiga hech qanday ta'siri sezilmaydi.

47. Nima uchun qish faslida, kuchli shamol esganda, daraxt shoxlarining sinishi boshqa fasllardagiga nisbatan kam kuzatiladi?

A. Daraxt barglari ko'p bo'lsa, daraxtning shamolga qarshiligini oshiradi, shuning uchun shamolning daraxtga ta'sir kuchi ortadi.

B. Chunki qishda shamol kuchli esadi;

C. Qishda daraxt shoxlari mo'rt bo'ladi;

D. Qish faslida daraxt barglariga qor o'tirgan bo'lib, o'zini zo'rg'a tutib turgan bo'ladi.

48. Nima uchun o'ng qo'lida bir chelak suv ko'tarib ketayotgan odam chap tomonga qiyshayib, chap qo'lini esa yozib oladi va aksincha?

A. Massaning saqlanish qonuniga binoan odam gavdasini biroz qarama-qarshi tomonga og'diradi;

B. Odam chelakning og'irlik markazini saqlash uchun shunday qiladi;

C. Odam o'z og'irlik markazini ma'lum chegarada siljitib boshqara oladi. Shuning uchun og'irlik markazini chap tomonga va aksincha ko'chiradi;

D. Chelakdagi suv to'kilmasligi uchun biroz egiladi.

49. Odam tanasi sirtining yuzi 2 m^2 ga teng bo'lsa, unga atmosfera qanday kuch bilan bosadi?

A. Har bir kvadrat santimetr yuzaga taxminan 10 N kuch ta'sir etadi, umumiy holda odam tanasiga jami taxminan 2.105 N kuch ta'sir etadi.

B. Odam tanasining sirt yuzasiga taxminan 10 N kuch ta'sir etadi;

C. Odam tanasiga har tomondan bir xil – jami 2.105 N kuch ta'sir etadi.

D. Odam hech qanday bosimni sezmaydi.

50. Ma'lumki, sigir juft tuyoqli, ot esa bir tuyoqli hayvon. Loy va botqoq yo'ldan o'tayotganda sigir oyog'ini loydan oson tortib oladi, ot esa yurishga qiynaladi. Nima uchun?

A. Sigirning tuyoqlari botqoqqa botayotganda elastik jism kabi shaklini o'zgartiradi, botqoqda oyog'ini chiqarib olayotganda torayadi;

B. Sigir botqoq yerdan o'tayotganda tuyoqlari loyga kirayotib ochilib torayadi, tortib olayotganda esa kengayadi, oyoqlarini loydan tortib olishi osonlashadi. Ot esa botqoqqa kirgan tuyog'ini botqoq tortib ketadi va yurolmay qoladi.

C. Sigir botqoq yerdan o'tayotganda tuyoqlari loyga kirayotib ochilib kengayadi, tortib olayotganda esa torayib, loydan tortayotganda havo kirib, tortib olishi

osonlashadi. Ot esa botqoqqa kirgan tuyog'ini tortib olishga qiynalib, yurishi og'irlashadi.

D. Sigir ham, ot ham botqoqqa botib ketadi va u yerdan chiqarib olish uchun yordam kerak bo'ladi.

51. Fil qanday qilib suv ichadi? Bunda fil o'zi bilmagan holda qaysi fizik qonundan foydalanadi?

A. Fil o'zi bilmagan holda fizikaning tutash idishlar qonunidan foydalanadi;

B. Filning bo'yni juda qisqa va u boshqa hayvonlar kabi engashib suv icholmaydi. Fil xartumini suvga botirib havo so'radi. Bunda tashqi atmosfera bosimi ta'sirida xartumga suv so'riladi. Xartumiga suv to'ldirgach, xartumini bukib, undagi suvni og'ziga quyadi.

C. Fil suv ichmaydi, u suvga tanasi bilan sho'ng'ib, terisini ho'llab oladi, xolos;

D. Filning bo'yni juda qisqa bo'lgani uchun suvga yotib olib ichadi.

52. Nima uchun harorati me'yoridan ko'tarilgan bemorga yordam berish uchun uning tanasini spirt bilan artish tavsiya etiladi?

A. Spirt tez bug'lanadigan suyuqlik bo'lgani uchun u teri sirtidan bug'lanayotib, uni sovitadi;

B. Spirt terini qizdiradi, ammo sovitmaydi;

C. Spirtga suv qo'shilgan bo'lsa, u terini sovitishi mumkin;

D. Hamma javob to'g'ri.

53. Nima uchun o'rmonda tovush qaysi tomondan kelayotganini aniqlash qiyin?

A. O'rmonda qaytgan tovushlar ko'pligidan tovush tarqatayotgan haqiqiy manba yo'nalishini aniqlash mumkin emas;

B. O'rmonda faqat bitta manbadan tovush tarqalayotgan bo'lsa, haqiqiy manba tomonni aniqlash mumkin.

C. O'rmonda qulog'imiz faqat manbadan kelayotgan tovushnigina emas, balki atrofdagi boshqa daraxtlardan qaytayotgan tovushlarni ham qabul qiladi. Bu qaytgan tovushlar tovush tarqatayotgan haqiqiy manba yo'nalishini aniqlashga halaqit beradi.

D. O'rmonda hamma daraxtlar tovush manbayiga aylanadi. Shuning uchun haqiqiy manba yo'nalishini aniqlash mumkin emas.

54. Vakuumda tovush qanday tarqaladi?

A. Vakuumda odam hech qanday tovushni eshitmaydi, ya'ni tovush tarqalmaydi;

B. Vakuumda hamma tovushlar yutiladi;

C. Tovush juda tez tarqaladi;

D. Vakuumda tovush juda sekin tarqaladi, shuning uchun baland ovozda gaplashish kerak.

55. Odam qulog'i qanday to'liqlarni qabul qiladi: bo'ylama to'liqlarnimi yoki ko'ndalang to'liqlarni?

A. Odam qulog'i ko'ndalang to'liqlarni qabul qiladi;

B. Odam qulog'i hamma to'liqlarni qabul qiladi;

C. Odam qulog'i faqat ultratovush to'liqlarni qabul qiladi;

D. Odam qulog'i bo'ylama to'liqlarni yaxshi qabul qiladi.

56. Bodring, pomidor, karam va boshqa meva-sabzavotlarni tuzlash qanday fizik hodisaga asoslangan?

A. Bodring, pomidor, karam va boshqa meva-sabzavotlarni tuzlash konveksiya hodisasiga asoslangan;

B. Bodring, pomidor, karam va boshqa meva-sabzavotlarni tuzlash tuzning ularga diffuziyalanishiga asoslangan;

C. Bodring, pomidor, karam va boshqa meva-sabzavotlarni tuzlash ularning o'ziga tuzni so'rib olish hodisasiga asoslangan;

D. Meva-sabzavotlarni tuzlashda fizik hodisaga emas, kimyoviy hodisalarga asoslangan.

57. Nima uchun daraxtga yashin tushganda daraxt tanasi yorilib ketadi?

A. Chunki daraxtga yashin tushganda uning tanasidagi namlik (suv) darhol qaynaydi va ajralib chiqqan bug' daraxt tanasini yorib yuboradi;

B. Daraxtga yashin tushganda u yorilib, yonib ketadi;

C. Chunki daraxt manfiy qutblangan holatda bo'lib, kuchli razryad sodir bo'ladi;

D. Yashin tushganda daraxt tanasida suv keskin kengayib, chiqib ketishga yo'l topolmay daraxt tanasini yorib yuboradi.

58. Nima uchun elektr zaryadi bilan zaryadlanib qolgan odamning sochlari tippa-tik bo'lib qoladi?

A. Chunki odam tanasi kuchli zaryadlanib, asab tolalari taranglashadi va uning sochlari tippa-tik bo'lib qoladi;

B. Chunki odam tanasi kuchli zaryadlanib, toj razryad yuzaga keladi, bu razryad uning sochlari orqali kuzatiladi;

C. Chunki odam bir xil zaryad bilan zaryadlanadi. Bir xil zaryadlar esa bir-biridan qochadi, ya'ni o'zaro itariladi. Shuning uchun toj kabi tippa-tik turib qoladi;

D. Elektrostatika qonunlariga ko'ra , odam tanasi kuchli zaryadlanib sochlari tippa-tik bo'lib qoladi.

59. Vrach-stomotologlar protez tish (qoplama)larni turli metallardan, masalan oldingi tishlarni oltindan, orqa tishlarni zanglamaydigan po'latdan yasab qo'ydirishni maslahat bermaydilar?

A. Bunday tishlarda ikki xil metall orasida potensiallar farqi yuzaga keladi. Metall tishlar kichik batareykani hosil qilib, bu batareyka 5 dan 100 mkA gacha tok beruvchi manbaga aylanishi mumkin. Zaif bo'lsa-da, bu tokning razryadlanishi og'izda noxush ta'm yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

B. Bunday tishlar bimetallni hosil qiladi va ular orasida esa fizika qonuniga binoan tok hosil bo'ladi. Natijada og'izda noxush hid paydo bo'ladi;

C. Chunki stomotologlar ikki xil metall kontaktga keltirilganda yarim o'tkazgich hosil bo'lib, og'iz bo'shlig'ini yallig'lanishdan saqlashni maslahat beradilar;

D. Har bir odam uzoq yashashni istasa, vrachning maslahatiga itoat qilishi kerak.

60. Franklin tajribada shuni aniqladiki, usti ho'l kalamush tanasi orqali batareyani razryadlaganda (tok o'tka-

zilganda) u o'lmay qolgan, usti quruq kalamush orqali xuddi shunday razryad toki o'tkazilganda u darhol halok bo'lgan. Buni qanday tushuntirish mumkin?

A. Chunki ho'l kalamush orqali o'tkazilgan elektr toki katta, quruq kalamushning tanasi orqali o'tkazilgan tok juda kichik bo'lgan;

B. Chunki ho'l kalamush tanasiga katta kuchlanish, quruq kalamushning tanasiga esa kichik kuchlanish berilgan;

C. Chunki ho'l kalamush organizmining elektr qarshiligi kichik bo'lgani uchun undan katta tok o'tadi va u o'ladi, quruq kalamush organizmining elektr qarshiligi esa juda katta bo'lgani uchun u tirik qoladi;

D. Elektr toki ho'l kalamushning tashqi sirti orqali o'tib ketadi, quruq kalamushning esa butun tanasi ichki organizmi orqali o'tib, uni o'ldiradi.

61. Odam qanday eng kichik kuchlanish ta'sirida jarohatlanishi va hatto o'lib qolishi mumkin?

A. 30 volt va undan yuqori kuchlanish ta'sirida;

B. 127 volt kuchlanish ta'sirida;

C. 220 volt kuchlanish ta'sirida;

D. 45 volt kuchlanish ta'sirida.

62. Yerning shimoliy va janubiy qutblarida magnit kompasdan qanday foydalaniladi?

A. Yerning shimoliy hududlarida magnit kompasdan foydalanib bo'lmaydi;

B. Yerning shimoliy va janubiy qutblarida magnit kompasdan foydalanish mumkin, faqat uni to'nkarib qo'yish kerak;

C. Yerning janubiy hududlarida magnit kompasdan foydalanib bo'lmaydi;

D. Yerning shimoliy hududlarida magnit kompasdan foydalanib bo'lmaydi.

63. Yuqori elektr kuchlanishli liniya simi uzilib tushgan zonada qolgan odam bu xavfli zonadan qanday chiqib ketishi mumkin?

A. Yuqori kuchlanishli sim uzilib tushgan zonada simdan 15–20 m radiusli aylana ichida simdagi kuchlanish qiymatiga qarab taxminan 2000 V/m elektr maydon kuchlanganligi hosil bo'ladi. Bu zonada qolgan odam u yerdan mayda qadam tashlab yoki bir oyoqda sakrab-sakrab chiqib ketishi mumkin.

B. Yuqori kuchlanishli liniya simi uzilib tushgan zonada qolgan odamni zambilga yotqizib, uni zudlik bilan olib chiqib ketish kerak;

C. Yuqori kuchlanishli liniya simini yerdan ko'tarib qo'yish kerak;

D. Yuqori kuchlanishli liniya simi uzilib tushgan zonada qolgan odamni faqat vertolyot yordamida qutqarib olish mumkin.

64. Ishlab turgan televizor ekraniga kuchli magnit yaqinlashtirilsa, qanday hodisa kuzatiladi?

A. Ekrandagi tasvir buzilib ko'rinadi (trubkadagi elektron dastaga magnit maydonning ta'siri kuzatiladi);

B. Ishlab turgan televizor ekraniga kuchli magnit yaqinlashtirilsa, tasvirga hech qanday ta'sir kuzatilmaydi, ammo tasvir o'ngga biroz suriladi;

C. Ishlab turgan televizor ekraniga kuchli magnit yaqinlashtirilsa, toj razryad paydo bo'ladi;

D. Ishlab turgan televizor ekraniga kuchli magnit yaqinlashtirilsa, u ishdan chiqadi.

65. Aerostatda turib yer sharining o'z o'qi atrofida aylanishini kuzatish mumkinmi?

A. Yo'q, mumkin emas, chunki yer aylanganda atmosfera qatlamini va aerostatni ham o'zi bilan er-gashtirib ketadi;

B. Ha, mumkin, agar aerostat yerdan juda katta ba-landlikda, havosiz fazoda bo'lsa;

C. Yo'q, mumkin emas, chunki yerning o'z o'qi atrofi-da aylanish tezligi shunchalik kattaki, aerostatni shamol – oddiy shamol emas, tasavvur qilib bo'lmaydigan bo'ron uchirib ketadi;

D. Ha, mumkin, agar aerostatga hech qanday qar-shilik kuchi ta'sir qilmasa.

66. Ketma-ket ulangan ikkita kondensatorning umu-miy sig'imini hisoblash formulasini ko'rsating:

$$1. C_{um} = \frac{C_1 \cdot C_2}{C_1 + C_2}; \quad 2. C_{um} = C_1 + C_2; \quad 3. C_{um} = \frac{C_1 + C_2}{2}.$$

A. 1- va 3-formulalar;

B. 2- va 3-formulalar;

C. 3-formula;

D. 1-formula.

67. Ketma-ket ulangan n ta elementning umumiy tok kuchini hisoblash formulasini ko'rsating.

$$1. I = \frac{E}{r + \frac{R}{n}}; \quad 2. I = \frac{nE}{nr + R}; \quad 3. I = \frac{E}{R + r}.$$

A. 2- va 3-formulalar;

B. 1- va 3-formulalar;

C. 2- va 1-formulalar;

D. 2-formula.

68. Quyida keltirilgan fizik kattaliklardan qaysi biri ish birligini ifodalaydi?

- A. Nyuton;
- B. Joule;
- C. Volt;
- D. Paskal.

69. Quyida keltirilgan formulalarning qaysi biri tekis harakatda bosib o'tilgan tezlik formulasi hisoblanadi?

- A. $v = \frac{s}{t}$;
- B. $A = Fs$;
- C. $s = v \cdot t$;
- D. $U = It$.

70. Lift qanday yo'nalishda harakatlanganda uning ichidagi odam og'irligi kamayadi?

- A. Lift yuqoriga tezlanish bilan ko'tarilayotganda;
- B. Lift gravitatsiya kuchi ta'sirida pastga tezlanish bilan tushayotganda;
- C. Lift yuqoriga tekis ko'tarilayotganda;
- D. Lift tezlanish bilan pastga tushayotganda.

71. Passajir poyezdi vagonlaridagi passajir yotadigan yig'ma polkalarning yuzi biroz botiqroq qilinadi. Nima uchun shunday qilinadi?

- A. Polka tekis bo'lsa, u belga botadi;
- B. Polka botiq bo'lsa, undan tushish qiyin bo'ladi;
- C. Poyezd qo'zg'alganda, to'xtaganda, vagon tebranganda odam polkadan tushib ketmaydi,
- D. Hamma javob to'g'ri.

72. Bir sayyoh bunday hodisa haqida hikoya qilib berdi: «Yoz boshlarida bir kuni otda daryo bo'ylab ketayotgan edim. Osmonni bulut qoplab, xuddi hozir mo-maqaldiroq bo'ladigandek edi. Men birdaniga otimning quloq uchlari yorisha boshlaganini ko'rib qoldim. Darhol uning tepasida shakllari noaniq havorang shu'lalar paydo bo'ldi. Bu shu'lalar aniq oqa boshladi. Bu yorug'lik oqimlari otning yoli bo'ylab yugurib ketdi va boshigacha bordi. Bularning hammasi bir daqiqaga yetar-yetmas davom etdi. Birdaniga yomg'ir sharillab quya boshladi va bu g'aroyib shu'lalar yo'qoldi». Bu tabiat hodisasiga sabab nima?

A. Bu tabiat hodisasi elektr zaryadlarning multilama (biqsima) razryadi deb ataladi;

B. Bu hodisa atmosferada elektr razryadlar tufayli sodir bo'ladi.

C. Bu hodisa «Elma chiroqlari» deb ataladi va sokin razryad tufayli paydo bo'ladi;

D. Bu tabiat hodisasi elektr zaryadlarning razryadlanish hodisasi bo'lib, toj razryad deb ataladi.

73. Nima uchun tunda mushukning ko'zi «yonadi»?

A. Tunda mushukning ko'zi ultra binafsha nurlar tarqatadi, shuning uchun u yaltirab ko'rinadi;

B. Mushuk va boshqa yirtqich hayvonlarning ko'zi tunda o'z o'ljasini uzoqdan ko'rish uchun infraqizil nur tarqatadi;

C. Mushuk va boshqa yirtqich hayvonlarning ko'zi tunda lyuminessensiyalanadi, shuning uchun ularning ko'zlari «yonadi».

D. Tunda mushukning ko'zi yonmaydi, balki uning ko'ziga tushayotgan nurlarni qaytaradi. Uning ko'z qora-

chig'ining tubi kuchsiz yorug'lik nurlarini ko'rinuvchan qilib qaytaradi;

74. Odam ko'zi gavharining optik kuchi qancha?

A. Odam ko'zi gavharining optik kuchi akkomodatsiya davomida qavariqligiga bog'liq ravishda 20 dan 30 dptr gacha o'zgarib turadi;

B. Odam ko'zi gavharining optik kuchi ko'zning katta-kichikligiga bog'liq;

C. Odam ko'zi gavharining optik kuchi doimiy bo'lib, 100 dptr ga teng;

D. Odam ko'zi gavharining optik kuchi unga tushayotgan yorug'lik kuchiing intensivligiga bog'liq ravishda 10 dan 20 dptr gacha o'zgarib turadi.

75. Ma'lumki, ko'zning ishlash prinsipi ko'pgina optik asboblarning ishlash prinsipiga o'xshashdi. Nima uchun ko'zda xromatik aberratsiya sezilmaydi?

A. Maxsus moslamalar orqali qaralganda xromatik aberratsiya sezilmaydi;

B. Chunki ko'zga tushayotgan barcha nurlar sinib, ko'z gavharida to'planadi, shuning uchun xromatik aberratsiya sezilmaydi;

C. Xromatik aberratsiya sodir bo'ladi, lekin biz uni sezmaymiz;

D. Chunki ko'zga tushayotgan markaziy nurlar sinib, to'rpardada to'planadi, shuning uchun bizga xromatik aberratsiya sezilmaydi;

76. Bir necha yil avval Belgiyadagi laboratoriyalardan birida kuchli portlash ro'y berdi. Natijada laboratoriyada ishlayotgan kimyogar Jak Perroni zarb to'lqini

hovliga uloqtirib tashladi. Shu voqeadan so'ng u barcha buyumlarni to'nkarilgan holatda ko'radigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda ko'zning bu nuqsonini qanday yo'qotish mumkin?

A. Bunday holatda unga tasvirni kattalashtirib beruvchi optik ko'zoynak buyurish kerak;

B. Bunday holatda unga tasvirni to'nkarib beruvchi prizmatik ko'zoynak taqishni tavsiya qilish kifoya;

C. Bunday holatda uning ko'zini zudlik bilan operatsiya qilish kerak;

D. Uning ko'ziga kontakt linza qo'yish kerak.

77. Qaysi jism qiya tekislikdan tezroq dumalab tushadi: ichi havol sharmi yoki yaxlit shar?

A. Ichi havol shar;

B. Yaxlit shar;

C. Ikkalasi bir vaqtda tushadi;

D. Shar qobig'ining qalinligiga bog'liq.

78. Qayiqchi L uzunlikka ega bo'lgan qayiqning quyrug'idan qarama-qarshi uchiga o'tmoqda. Agar qayiqchi bilan qayiqning massalari teng bo'lsa, qayiq qirg'oqqa nisbatan qancha masofaga siljiydi?

A. L masofaga;

B. $L/2$ masofaga;

C. $L/3$ masofaga;

D. $L/4$ masofaga.

79. O'rta Osiyolik olimlardan qaysi biri elektr hodisalari haqida o'z fikrlarini yozib qoldirgan?

A. Ar-Roziy;

B. Ibn-Sino;

- C. Beruniy;
- D. Farobiy.

80. O'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi uning uchlaridagi kuchlanishga to'g'ri va o'tkazgichning qarshiligiga teskari proporsional: Bu kimning qonuni?

- A. Amper qonuni;
- B. To'liq zanjir uchun Om qonuni;
- C. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni;
- D. Faradey qonuni.

81. O'tkazgichning uchlaridagi kuchlanish 1 volt bo'lganda undan 1 amper tok o'tsa, shu o'tkazgichning qarshiligi ... deb ataladi.

- A. Kiloom deb ataladi;
- B. Vatt deb ataladi;
- C. Metr deb ataladi;
- D. Om deb ataladi.

82. O'rta Osiyolik olimlardan qaysi biri fanga «Ohangrabo» – temirni o'ziga tortuvchi atamasini kiritgan?

- A. Ibn-Sino;
- B. Beruniy;
- C. Farg'oniy;
- D. Mirzo Ulug'bek.

83. Tok kuchini va kuchlanishni qanday asboblarda vositasida o'lchash mumkin?

- A. Voltmetr va ommetr vositasida;
- B. Ampermetr va reostat vositasida;
- C. Ampermetr, ulash simlari va vattmetr vositasida;
- D. Ampermetr va ioltmetr vositasida.

84. «Mexanikaning oltinqoidasi» qaysi javobdato'g'ri ta'riflangan?

A. Bajarilgan ish kuchning kattaligiga va masofaga bog'liq bo'lib, ishqalanish kuchiga bog'liq emas;

B. Ishqalanish kuchi ta'sir etmasa, kuchdan yutiladi va ko'p ish bajariladi;

C. Kuchdan qancha marta yutilsa, yo'ldan shuncha marta yutqaziladi, ammo bir vaqtning o'zida ham kuchdan, ham yo'ldan yutish mumkin emas;

D. Jismlarning harakat tezligi ta'sir etuvchi kuchga, ishqalanish kuchiga va shamol yo'nalishiga bog'liq.

85. Ko'zoynak linzasi uchun botiq yoki qabariq linzalar ishlatiladi. Agar ko'zoynakka shu linzalar o'rniga uchburchakli prizma shaklidagi linza qo'yilsa, odam atrofdagi buyumlarni ko'ra oladimi?

A. Ha, ko'ra oladi, faqat kerakli optik kuchini bermaydi, u oddiy ko'zoynakdan qaragandek bo'ladi;

B. Yo'q, ko'ra olmaydi. Odam ko'ziga faqat rangli nurlar tushib, ko'rishga halaqit beradi;

C. Ha, ko'ra oladi. Bu holda atrofdagi barcha narsalar to'ng'arilgan bo'lib ko'rinadi;

D. Ha, ko'ra oladi, faqat u oddiy yarimta linza qo'yilgan ko'zoynakdan qaragandek bo'ladi.

86. Nyutonning birinchi qonunining to'g'ri ta'rifini ko'rsating.

A. Har qanday jism unga boshqa jismlar ta'sir qilib, boshlang'ich holatini o'zgartirmaguncha, o'zining nisbiy tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatli boshlang'ich holatini saqlaydi;

B. Har qanday jism unga boshqa jismlar ta'sir qilishidan qat'iy nazar, o'zining tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi;

C. Hamma jismlar o'zaro ta'sir kuchlari tufayli muallaq holatda yoki tekis tezlanuvchan harakatda bo'ladi;

D. Nisbiy tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakatlanayotgan jismga tashqi kuch ta'sir qilmaguncha o'zining dastlabki holatini o'zgartirmaydi.

87. Baliqlarning suzishini kuzating va suzib harakatlanayotganda Nyutonning qaysi qonuni namoyon bo'ladi?

A. Baliqlar harakat jarayonida suvda yon qanotlarini qayiqning eshkaklari kabi harakatlantirib xohlagan tomonlariga qarab suzib yuradilar. Bunda hech qanday qonun namoyon bo'lmaydi;

B. Baliqlar harakat jarayonida suvni suzg'ich qanotlari yordamida orqaga tashlaydi, natijada baliq tanasi Nyutonning uchinchi qonuniga ko'ra oldinga harakatlanadilar;

C. Baliqlar tabiatan shunday yaratilganki, ular suv ostida boshqa hayvonlar quruqlikda qanday harakatlansa, shunday harakatlanadilar;

D. Baliqlar harakat jarayonida suvni og'zi bilan yutib, jabrasi orqali orqaga tashlaydi, natijada baliq tanasi reaktiv harakat qonuniga ko'ra oldinga harakatlanadilar.

88. Nyutonning uchinchi qonuni formulasini ko'rsating.

A. $F = ma$;

B. $F_1 = -F_1$;

C. $P = mgH$;

D. $m_1 a_1 = -m_2 a_2$.

89. Butun olam tortishish qonuni formulasini ko'rsating.

- A. $P = mg$;
- B. $F = -kx$;
- C. $F = mg$;
- D. $F = G \frac{M \cdot m}{R^2} \leftrightarrow$.

90. Tok kuchining qanday ta'sirlarini bilasiz?

- A. Issiqlik ta'siri;
- B. Kimyoviy ta'siri;
- C. Magnit ta'siri;
- D. Hamma javob to'g'ri.

91. Uchta ko'z bilan ko'rish, ya'ni uchta ko'zga ega bo'lish mumkinmi?

A. Ha, uchinchi ko'z garchand mavjud bo'lmasa-da, biz aynan uchta ko'z bilan ko'ramiz. Ikkala ko'z orqali qabul qilingan axborot bosh miyada jamlanib, uchinchi ko'z bilan ko'rgandek bo'lamiz;

B. Yo'q, odamda uchinchi ko'z mavjud emas, biz aynan ikkita ko'z bilan ko'ramiz.;

C. Ha, agar jarrohlik yo'li bilan peshonaga yoki boshning orqa tomoniga ko'z o'rnatilsa, biz aynan uchta ko'z bilan ko'ramiz;

D. Yo'q, nafaqat odamda, boshqa hech qanday mavjudotda uchinchi ko'z mavjud emas.

92. Quyosh Oyni o'ziga yerga nisbatan kuchliroq tortadi. Nima uchun Oy Quyoshga borib tushmaydi?

A. Oy Quyoshga borib tushmaydi, u yerga kelib tushishi mumkin;

B. Oyning Quyoshga borib tushishiga yerning tortish kuchi yo‘l qo‘ymaydi;

C. Yer nima sababdan Quyoshga borib tushmasa, Oy ham shu sababdan Quyoshga borib tushmaydi: Quyosh atrofida Oy yer bilan birgalikda aylanadi va Quyoshning tortish kuchi ta’siri shu ikkala jismning to‘g‘ri chiziqli harakatini egri chiziqli harakatga aylantirish uchun sarf bo‘ladi;

D. Quyosh atrofida Oy yer bilan birlikda aylanadi va Quyoshning tortish kuchi ta’siri shu ikkala jismni o‘ziga tortish uchun kamlik qiladi.

93. Yerda dengiz va okean suvlarining ko‘tarilishi va pasayishi hodisalariga sabab nima?

A. Oy va Quyoshning o‘zaro tortilishi sabab bo‘ladi;

B. Yer va Quyoshning o‘zaro tortilishi sabab bo‘ladi;

C. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi tufayli hosil bo‘luvchi markazdan qochma kuch sabab bo‘ladi;

D. Oyning yer atrofida doimo bir tomoni bilan qarab aylanishi sabab bo‘ladi;

94. O‘rta asrda birinchi observatoriya (rasadxona) ni barpo etgan, astronomiyaning nazariy asoslarini yaratgan, «Yangi astronomik jadval»ni tuzgan va 1019 ta yulduzning joylashishi (katalogi)ni yuqori aniqlikda ko‘rsatib bergan O‘rta Osiyolik mutafakkir olim kim?

A. Ibn Sino;

B. Mirzo Ulug‘bek;

C. Al-Farg‘oniy;

D. At-Termiziy.

95. Atom bombasi qachon va qayerda yaratilgan?

- A. 1921-yil A. Eynshteyn, Germaniyada;
- B. 1919-yil E. Rezerford, Angliyada;
- C. 1925-yil J. Frank, G. Gers, Yunonistonda;
- D. 1945-yil 16-iyul AQShda.

96. Suyuqliklarning ingichka naychalarda yuqoriga ko'tarilishini kuzatib, kapillyarlik hodisalarini kim va qachon kashf etgan?

- A. 1490-yilda Leonardo da Vinchi kashf qilgan;
- B. 1660-yilda I. Nyuton kashf qilgan;
- C. 1475-yilda G. Galiley kashf qilgan;
- D. 1644-yilda E. Torrichelli.

97. Mikroskopni birinchi marta kim ixtiro qilgan va keyinchalik uni kim mukammallashtirgan?

A. Mikroskopni birinchi marta Zaxariya Yansen ixtiro qilgan va keyinchalik uni I. Nyuton mukammallashtirgan;

B. Mikroskopni birinchi marta Zaxariya Yansen ixtiro qilgan va keyinchalik uni G. Galiley mukammallashtirgan;

C. Mikroskopni birinchi marta G. Galiley ixtiro qilgan va keyinchalik uni boshqa olimlar takomillashtirganlar;

D. Mikroskopni I. Nyuton ixtiro qilgan va o'zi mukammallashtirgan.

98. Ideal gazlar qonuni, Boyle–Mariott qonuni qachon kashf qilingan?

- | | |
|------------------------|------------------------|
| A. 1500–1550-yillarda; | B. 1645–1640-yillarda; |
| C. 1945–1955-yillarda; | D. 1662–1676-yillarda. |

99. Abu Ali ibn Sino o'zining «Past fan boshi» (Fizika) nomli asarida fizikaga qanday ta'rif bergan?

A. «Fizika shunday fanki, u materiyadan ajratib bo'lmaydigan holat va qarashlarni o'rganadi» deb ta'riflagan;

B. «Fizika materiya harakati sabablarini o'rganadi» deb ta'riflagan;

C. «Fizika tabiat haqidagi fan» deb ta'riflagan;

D. «Fizika shunday fanki, u issiqlik harakati sabablarini o'rganadi» deb ta'riflagan.

100. «Avogadro qonuni» qachon va qaysi olim tomonidan kashf qilingan?

A. Italiyalik fizik va ximik Avogadro Amedeo tomonidan 1821-yilda kashf qilingan;

B. O'rta Osiyoning mashhur mutafakkir olimi Abu Ali ibn Sino tomonidan 1021-yilda kashf qilingan;

C. Shveytsariyalik fizik Bernulli Daniil tomonidan 1742-yilda kashf qilingan;

D. Nemis fizigi Klauzius Rudolf tomonidan 1880-yilda kashf qilingan.

101. O'zbek xalqining buyuk mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniy (Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad Beruniy) qaysi fanlar rivojiga katta hissa qo'shgan?

A. Astronomiya va matematika fanlarining rivojiga;

B. Geografiya va kimyo fanlarining rivojiga;

C. Fizika va ma'danshunoslik fanlarining rivojiga;

D. A, B, C lar bilan birga tarix va adabiyot fanlarining rivojiga katta hissa qo'shgan.

102. Avogadro doimiysining son qiymati qancha?

- A. $1,1 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$;
- B. $6,023 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$;
- C. $6,67 \cdot 10^{-11} \frac{\text{N} \cdot \text{m}^2}{\text{kg}}$;
- D. $9,8 \text{ m/s}^2$.

103. Quyida keltirilgan formulalardan qaysi biri matematik mayatnikning tebranish davrini ifodalovchi formula hisoblanadi: a) $T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}}$; b) $T = \frac{\pi}{t}$; c) $T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{g}}$; d) $T = 2a \sqrt{\frac{m}{r}}$?

- A. a), c);
- B. b);
- C. d);
- D. a).

104. Quyida keltirilgan formulalardan qaysi biri Butun olam tortishish qonunini ifodalaydi?

- A. $F = ma$;
- B. $F = \mu N$;
- C. $F = G \frac{m_1 m_2}{R^2}$;
- D. $F = -kx$.

105. Tebranish konturidagi elektr tebranishlar davri-ni hisoblash formulasini ko'rsating.

- A. $T = \sqrt{LC}$;
- B. $T = \frac{\pi}{2} \sqrt{LC}$;
- C. $T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{g}}$;
- D. $T = 2a \sqrt{\frac{m}{r}}$.

106. O'zbekistonda eng katta quyosh sandoni qayerda va qachon ishga tushirilgan?

- A. Samarqand shahrida, 1991-yil;
- B. Toshkent shahrida, 1990-yil;
- C. Toshkent viloyatining Parkent tumanida, 1987-yil;
- D. Termiz shahrida, 2014-yil.

107. Sayohatchi qalin o'rmonda ketayotib, adashib qoldi. Uning yonida kompas bo'lmasa, u o'rmondan qanday qilib shimol va janubni aniqlab manzilga yetib olishi mumkin?

- A. Qo'l soatidan kompas sifatida foydalanib, gori-zont tomonlarini aniqlash mumkin;
- B. Kesilgan daraxt butalaridagi halqalarning joylashishiga qarab mo'ljal oladi;
- C. Daraxtlarning qaysi tomonga qarab egilganligiga qarab;
- D. Quyoshga qarab mo'ljal oladi.

108. Odam qo'li yetmaydigan joylarga bo'lgan masofani o'lchov tasmasisiz qanday fizik hodisadan foydalanib aniqlash mumkin?

- A. Yorug'likning qaytish qonunidan;
- B. Yorug'likning sinish qonunidan;
- C. Tovushning muhitda tarqalish hodisasidan;
- D. Ultratovush hodisalaridan.

109. Ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan eng yupqa narsa nima?

- A. Sovun pufagining pardasi;

- B. Soch tolasi;
- C. Papiros qog'ozi;
- D. Hamma javob to'g'ri.

110. Nima uchun to'pdan o'q uzish paytida artilleriyachilar og'izlarini ochib turadilar?

- A. Yaxshi nafas olish uchun;
- B. Yaxshi eshitish uchun;
- C. Snaryad otilgan paytdagi kuchli tovushni so'ndirish uchun;
- D. Snaryad otilganda kuchli tovush chiqib, zarb to'lqini tufayli katta bosim farqini kamaytirish uchun.

111. Nima uchun samolyot ko'tarilayotganda va qo'nishga pasayayotganda stuardessa passajirlarga konfet ulashib chiqadi?

- A. Chunki samolyot chiptasi narxiga salqin ichimliklar bilan konfetlar ham kiritilgan bo'ladi;
- B. Samolyot ko'tarilayotganda va qo'nishga pasayayotganda atmosfera bosimi keskin o'zgaradi, shuning uchun og'izni yumib konfet shimib o'tirganda passajirlarning quloqlari bitib qolmaydi, ko'ngil aynimaydi va hech qanday nohushlik sezmaydi;
- C. Samolyotda uchish jarayoni tinch kechishi uchun styardessa passajirlarga konfet ulashib ularni tinchlantirib turadi;
- D. Bu ishlar stuardessaning passajirlarga xizmat ko'rsatish vazifalaridan biridir.

112. Nima uchun g'avvoslarning oyoq kiyimlaridagi tagchamlar og'ir qo'rg'oshindan ishlangan bo'ladi?

A. Dengiz tubiga tezroq oyoqlari bilan tushishi uchun;

B. G'avvosning oyog'iga dengiz tubidagi turli qat-tiq jinslar botmasligi uchun;

C. G'avvos dengiz tubida muvozanatni saqlagan holda erkin yurishi uchun;

D. Dengizda turli yirtqich baliqlar hujumidan himoyalaniş uchun.

113. Qaysi holda odam ko'proq ish bajaradi: mayda qadam bilan yurgandami yoki katta qadam tashlab yur-ganda?

A. Katta qadam tashlab yurganda, chunki mayda qadam bilan yurganda odamning o'z gavdasini ko'tarish uchun kamroq ish bajaradi, og'irlik markazi esa kichik masofaga siljiydi;

B. Mayda qadam bilan yurganda, chunki bu holda ko'proq vaqt sarflaydi;

C. Ikkala holda ham birday ish bajaradi;

D. To'g'ri javob yo'q.

114. Nima uchun dorbozlar arqonda yurganda qo'lida uzun langarni ko'tarib oladi?

A. Dorboz arqonda yurganda muvozanatni saqlashi uchun langardan foydalanadi;

B. Dorboz langardan yiqilib tushayotganda arqonga ilinib olish uchun langardan foydalanadi;

C. Og'irligini oshirib, og'irlik markazini arqonga yaqinlashtirish uchun dorbozlar massiv langardan foy-dalanadilar;

D. Dor o'yini pastdagi tomoshabinlarga yaxshi ko'rinishi uchun dorboz qo'lga uzun langar ko'tarib oladi.

115. Vertikal devorga o'ng oyoq va yelkangizni tegizib turib chap oyog'ingizni ko'tarib tura olasizmi?

A. Ha, faqat devorga qoqilgan mixni ushlab olish kerak;

B. Ha, agar o'ng oyoqni devordan yelka kengligida uzoqroq qo'yilsa;

C. Agar kallani ham devorga taqab turilsa, chap oyoqni bemalol ko'tarib turish mumkin;

D. Yo'q, bunda odam muvozanatini yo'qotadi.

116. Nima uchun bemorning qon bosimini o'lchayotganda fonendoskopning membranasini bemorning kiyimi ustiga emas, balki bevosita uning tanasiga qo'yish kerak?

A. Fonendoskopning membranasini bemorning tanasiga bevosita qo'yilganda yurak urishi va puls aniq eshitiladi, kiyim ustiga qo'yilganda tovush energiyasining ko'p qismi yutiladi;

B. Bemorning qon bosimini o'lchayotganda fonendoskopning membranasini bemorning kiyimi ustiga bevosita qo'yilsa, qulog'i yaxshi eshitmaydigan shifokor bemorning yurak urishini eshitolmaydi;

C. Tajribali shifokor uchun bemorning qon bosimini o'lchayotganda fonendoskopning membranasini bemorning kiyimi ustiga yoki bevosita uning tanasiga qo'yishning farqi yo'q;

D. Hamma javob to'g'ri.

117. Odam tanasidan tok o'tganda tanada qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

A. Odam tanasi ho'l bo'lsa, tanada hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi;

- B. Odam tanasidan tok o'tganda tana jimirlaydi;
- C. Odam tanasidan tok o'tganda tok markaziy va chekka asab tizimiga ta'sir qilib, yurak urishi va nafas olish rejimini buzadi;
- D. Odam tanasi quruq va yerdan izolyatsiyalangan bo'lsa, tanada hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.

118. Nima uchun shom kirishi bilan (Quyosh botishi bilan) barcha buyumlar noaniq ko'rinadi, ma'lum masofada osilgan oq va qora ip bir xil – kulrang bo'lib tuyuladi?

A. Yoritilganlik kamayganda yorug'likni rangsezgir tayoqchalar orqali emas, balki sezgirligi uncha katta bo'lmagan kolbachalar orqali qabul qilinadi. Tayoqchalar rangga uncha sezgir bo'lmagani uchun oq ip ham, qora ip ham kulrang bo'lib ko'rinadi;

B. Yoritilganlik kamayganda ko'z qorachig'i kengayib, ko'z gavharining chekkalari tasvir hosil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun hamma buyumlar xira ko'rinadi;

C. Agar odam ko'zida hech qanday nuqson bo'lmasa, tunda ham, kunduzi ham yaxshi ko'raveradi;

D. Faqat ko'zida daltoniklik nuqsoni bor odamlar-gina tunda ham, kunduzi ham rang ajrata olmaydilar.

119. Nima uchun ko'zimizning qorachig'i qop-qora bo'lib ko'rinadi?

A. Ko'z qorachig'ining ichida qanday rangli suyuqlik bo'lsa, u shunday rangda ko'rinadi;

B. Ko'z qorachig'i qanday rangda bo'lishi odamning geniga bog'liq;

- C. Ko‘z qorachig‘i absolut qora jismni eslatadi;
- D. Ko‘z ichida nurlarning ko‘p karrali qaytishi ro‘y beradi. Bu esa berk idishdagi teshikka o‘xshaydi.

120. Nima uchun biz, o‘zidan yorug‘lik tarqatmasa ham, atrofdagi jismlarni ko‘ramiz?

- A. Yorug‘likning qaytish hodisasi tufayli;
- B. Yorug‘likning sinish hodisasi tufayli;
- C. Yorug‘likning yutilish hodisasi tufayli;
- D. Hammasi to‘g‘ri.

Testlarning to'g'ri javoblari

1. C.	32. C.	63. A.	94. B.
2. A.	33. A.	64. A.	95. D.
3. C.	34. A.	65. A.	96. A.
4. C.	35. A.	66. C.	97. B.
5. D.	36. B.	67. D.	98. D.
6. B.	37. C.	68. B.	99. A.
7. A.	38. A.	69. A.	100. A.
8. D.	39. A.	70. D.	101. D.
9. A.	40. C.	71. C.	102. B.
10. D.	41. A.	72. C.	103. D.
11. A.	42. D.	73. D.	104. C.
12. A.	43. A.	74. A.	105. B.
13. C.	44. A.	75. D.	106. C.
14. B.	45. C.	76. B.	107. B.
15. C.	46. B.	77. B.	108. C.
16. B.	47. A.	78. B.	109. A.
17. D.	48. C.	79. A.	110. D.
18. D.	49. A.	80. C.	111. B.
19. C.	50. C.	81. D.	112. C.
20. B.	51. B.	82. B.	113. A.
21. D.	52. A.	83. D.	114. A.
22. C.	53. C.	84. C.	115. D.
23. D.	54. A.	85. C.	116. A.
24. B.	55. D.	86. A.	117. C.
25. B.	56. B.	87. B.	118. A.
26. A.	57. A.	88. B.	119. D.
27. C.	58. C.	89. D.	120. A.
28. D.	59. A.	90. D.	
29. A.	60. D.	91. A.	
30. D.	61. A.	92. C.	
31. D.	62. A.	93. A.	

KIMYO

1. 200 ml li laboratoriya stakaniga ammiak eritmasidan 20 ml qo'shib, ustiga xlorid kislota eritmasidan ham 20 ml quyilganda oq tutun hosil bo'ladi. Bu reaksiya olovsiz tutun hosil qilish deyiladi. Hosil bo'lgan tutun qaysi moddaning gazli ko'rinishi deb o'ylaysiz?

- A. N_2 ; B. Cl_2 ;
C. NH_4Cl ; D. NH_2Cl_2 .

2. Hozirda kimyoviy elementlarning 124 tasi ma'lum. D.I. Mendeleyev hayotlik davrida nechta kimyoviy element ma'lum edi?

- A. 55; B. 74; C. 68; D. 62.

3. Davriy sistemadagi yagona suyuq metallning nomi:

- A. Kalsiy; B. Magniy;
C. Simob; D. Kaliy.

4. Oq qog'ozdan atirgul shaklini yasab, unga fenolftalein eritmasidan seping, so'ngra stakan tubiga ozroq xlorid kislota eritmasidan soling va ustini yopib qo'ying. Biroz vaqt o'tgach, qog'oz gul qizil rangga kiradi. Buning sababi nimada?

A. Fenolftalein xlorid kislota bilan reaksiyaga kirganda shunday bo'ladi;

B. Fenolftalein indikator hisoblanib, u kislotali muhitda qizil rangga o'tadi;

C. Qog'oz tarkibidagi sellyuloza fenolftalein bilan reaksiyaga kirishadi;

D. Qog‘oz tarkibidagi sellyuloza xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishadi.

5. Vodorod gazini olishning bir nechta usullari mavjud. Bulardan laboratoriya sharoitida o‘zlashtirilgan oson yo‘li metallga konsentrlangan anorganik kislota ta’sir ettirish. Quyida keltirilgan qaysi reaksiya laboratoriya sharoitida ishlatiladi?

- A. $2\text{HCl} + \text{Fe} = \text{FeCl}_2 + \text{H}_2$;
- B. $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Mg} = \text{MgSO}_4 + \text{H}_2$;
- C. $2\text{HNO}_3 + \text{Ca} = \text{Ca}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2$;
- D. $2\text{HCl} + \text{Zn} = \text{ZnCl}_2 + \text{H}_2$.

6. «Kimyoviy vulqon» hosil qilish uchun dastlab gipsdan vulqon shakli yasab olinadi, uning cho‘qqisiga ammoniy dixromat $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ kukuni sepiladi, so‘ngra unga yonib turgan gugurt cho‘pi yaqinlashtirilganda ammoniy dixromat yonib, parchalanganda hosil bo‘lgan azotning zarrachalari go‘yo vulqon shaklida otilib chiqadi. Ammoniy dixromat yonish (oksidlanish) reaksiyasi ko‘rsatilgan qatorni toping:

- A. $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{O}_2 = \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{N}_2 + \text{O}_2 + 4\text{H}_2\text{O}$;
- B. $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + 2\text{O}_2 = \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{N}_2 + 2\text{O}_2 + 4\text{H}_2\text{O}$;
- C. $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 \rightarrow \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{N}_2 + 4\text{H}_2\text{O}$;
- D. $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{O}_2 = \text{Cr}_2\text{O}_3 + 2\text{NO} + 4\text{H}_2\text{O}$.

7. Ko‘zga ko‘rinmaydigan xat yozish uchun limon, paxta, gugurt, 5–10 ml suv, bir varaq oq qog‘oz kerak bo‘ladi. Toza suvga limonni siqib siyoh tayyorlanadi, gugurt cho‘pi uchiga paxtani o‘rab yozuv quroliga aylantiriladi. So‘ngra siyohga botirib olinadi-da, qog‘ozga xat yoki rasm chiziladi. Qog‘oz havoda qurig-

anda yozuv ko‘rinmaydi. Yozuvni o‘qish uchun yonib turgan lampochkaning issig‘iga qog‘oz biroz tutilganda yozuv qora rangda ko‘rinadi. Ayting-chi, qora yozuv paydo bo‘lishiga nima sabab?

- A. Qog‘ozning yuza qismi kuygan;
- B. Limon sharbati – limon kislotasi, u uglevodorodli bo‘lgani uchun issiqlik ta‘sirida oksidlanib, ko‘mirga aylanadi;
- C. Javoblar noto‘g‘ri;
- D. Qog‘oz tarkibidagi kuygan kaifol hisobiga.

8. Ba‘zan qimmatbaho metall tuzlari bilan laboratoriyada ishlashga to‘g‘ri keladi. Tuzlarning bir qismi eritmada laboratoriya qoldig‘i sifatida yig‘iladi. Qoldiqdagi qimmatbaho metall ajratib olinadi. Masalan, tarkibida oltin bo‘lgan AuCl dan Au quyidagicha ajratib olinadi. Qoldiqli eritmada Na_2CO_3 ta‘sirida ishqoriy muhit hosil qilinadi. So‘ngra anilinning spirtli eritmasi bilan aralashtiriladi va kamida 8 soat quyosh nurida saqlanadi. Natijada oltin cho‘kmaga to‘liq tushadi. Bunda quyosh nuri qanday vazifani o‘taydi?

- A. AuCl bilan Na_2CO_3 reaksiyasini tezlashtiradi;
- B. Anilin bilan AuCl reaksiyasini tezlashtiradi;
- C. Issiqlik hosil qiladi;
- D. Katalizator vazifasini o‘taydi.

9. Eritma tarkibidagi kumushni ajratib olish uchun xlorid kislota bilan kislotali muhitga keltirib, granula shaklidagi ruxdan solib qaynatiladi. Reaksiya natijasida kumush cho‘kmaga tushadi. Eritmadan kumush ajratilib yuviladi va quritiladi. Ayting-chi, bu reaksiya qaysi reaksiya turkumiga kiradi?

- A. Oksidlanish;
- B. Qaytarilish;
- C. Almashinish;
- D. Ajralish.

10. U barcha o'simliklarning qaddi-qomatini ko'tarib turuvchi tabiiy polimer hisoblanadi. Bu polimer qanday nomlanadi?

- A. Kallogen;
- B. Sellyuloza;
- C. Fibroin;
- D. Keratin.

11. Polietilen xaltani kundalik turmushimizda juda ko'p ishlatamiz. Bu ixtironing vatani qayer va muallifi kim?

- A. Yaponiya, Sakura;
- B. Shvetsiya, U. Gamelton;
- C. Rossiya, N. Semyonov;
- D. Germaniya, Fisher.

12. Nemis kimyogari Avgust Kekule benzol ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U benzol molekulasida atomlar qanday joylashganligi ustida bosh qotirar edi. Bir kuni tushida maymunlar bir-birining dumidan ushlab, aylana bo'lib yurganini ko'radi. Ayting-chi olim tushiga asoslanib nimani ixtiro qilgan?

- A. Benzolning kimyoviy formulasini;
- B. Benzolning struktura formulasini;
- C. Benzolning tuzilishini;
- D. Benzoldagi uglerod atomlar sonini.

13. D.I. Mendeleyev bashorat qilgan elementlardan birini 1939-yili M. Kyurining shogirdi Margaret Pere

kashf etadi va bu kashfiyoti uchun Fransiya ayol olimlari ichida birinchi bo'lib akademik unvoniga sazovor bo'ladi. Bu kimyoviy elementning nomi:

- A. Yevropiy;
- B. Merkuriy;
- C. Fransiya;
- D. Perey.

14. Sanoatda kislorod qanday olinadi?

- A. Kislorod ballon yordamida olinadi;
- B. Kislorod tabiatda ko'pligi sababli olishga ehtiyoj yo'q;
- C. Kislorod havodan olinadi. Buning uchun havo bosim ostida suyuq holatga keltiriladi va kislorod ajratib olinadi;
- D. Bertole tuzi ($KClO_3$)dan olinadi.

15. O'zbekiston olimlari g'o'zapoyadan biomassa tayyorlab, undan biobenzin olish usulini ishlab chiqdilar. G'o'zapoyani qayta ishlab olingan biobenzin qanday modda bo'lishi mumkin?

- A. Texnik etil spirti;
- B. Metil spirti;
- C. Spirt va efir aralashmasi;
- D. Efir kondensati.

16. Inson oshqozonidagi ovqatni hazm bo'lishini so'lak, oshqozon osti bezlari va o't pufagidan ajralib chiqqan biokislotalar bajaradi. Ba'zi hollarda bu kislotalarning kuchi ovqat hazm qilishga yetmay qoladi. Natijada inson hastalikka chalinadi. Bu holda shifokor-

lar 3% li anorganik kislota eritmasidan ichishni tavsiya etadilar. Bu kislota nomi:

- A. Askorbin kislota;
- B. Nitrat kislota;
- C. Xlorid kislota;
- D. Sirka kislota.

17. Sulfat kislota eng kuchli kislota bo'lib, u ko'plab metallar bilan reaksiyaga kirishadi. Faqat ba'zi metallarga bu kislota ta'sir etmaydi. Bu metallarning nomi:

- A. Ag, Ge, Cu, Po, Sn;
- B. Ag, Co, Cu, Pb, Te;
- C. Ag, Fe, Cu, Bi, In;
- D. Au, Pt, Ru, Rh, Os.

18. Turli elementlarning massalari bir xil bo'lgan atomlar:

- A. Izotoplar;
- B. Izobarlar;
- C. Daltonidlar;
- D. Neytronlar deyiladi.

19. Shilliqqurt chig'anog'ini qirib xlorid kislota to-mizilsa, pufakchalar hosil bo'ladi. Bunda qanday gaz ajraladi?

- A. Vodorod;
- B. Ammiak;
- C. Azot;
- D. Karbonat angidrid.

20. Azot kislorod bilan +1, +2, +3, +4, +5 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan oksidlar hosil qiladi. Aytinch-i, azotning kislorod bilan hosil qilgan oksidlari-ning soni nechta?

- A. 5 ta; B. 6 ta; C. 7 ta; D. 4 ta.

21. Kimyoda eng kuchli oksidlovchi deb qaysi element tan olingan?

- A. Kislorod;
B. Ozon;
C. Ftor;
D. Xlor.

22. Shifokorlar sariq kasalli bemorlarga yuqori kal-loriyali ovqatlardan kamroq iste'mol qilishni tavsiya qiladilar. Bemor yuqori kalloriyali ovqatni tabiiy po-limer kukuni (mikrokristall)dan aralashtirib iste'mol qil-ganda, ovqat zararsiz bo'ladi. Bu qaysi polimer bo'lishi mumkin?

- A. Polisaxarid oligomeri;
B. Kallogen;
C. Albumin;
D. Sellyuloza mikrokristali.

23. 1811-yil fransuz kimyogari B. Kurtua selitra olishga mo'ljallangan tuz qoldig'i ustiga bilmasdan sulfat kislota qoldig'ini qo'shib yuboradi. Kutilmagan-da aralashmadan quyuq siyohrang bug' ajraladi. Bu hodisani Kurtua do'stlaridan biri N. Klemanga so'zlab beradi. U tajribani tekshirib ko'rib, to'g'riligiga ishon-gach, 1813-yili Kurtua bu yangi moddani o'rganishga

kirishadi. Bug‘ sovutilib, cho‘ktirilganda qoldiq modda metall kabi yaltiraydi. Kuzatuvini J.L. Gey-Lyussak va G. Deviga ma’lum qiladi. Ular moddani tekshirib, Kurtua yangi element ixtiro qilganini aytishadi. Olim kashf etgan elementning nomi:

- | | |
|----------|----------|
| A. Brom; | B. Xlor; |
| C. Yod; | D. Ftor. |

24. Kimyoviy elementlar bu asr davomida juda ko‘p (43) ixtiro etilgan. Bu ixtirolar qaysi asrga to‘g‘ri keladi?

- | | |
|----------|---------|
| A. XVII; | B. XX; |
| C. XXI; | D. XIX. |

25. Metallarning aktivligi bo‘yicha elektrokimyoviy kuchlanishlar qatorini taklif etgan olim:

- | | |
|----------------|-----------------|
| A. N. Beketov; | B. A. Avagadro; |
| C. Vant-Goff; | D. N. Kurnakov. |

26. Havo faqat:

- A. Suv va kisloroddan;
- B. Azot, vodorod va kisloroddan;
- C. Kislorod, Ozon va suvdan;
- D. Kislorod, azot va oz miqdorda boshqa moddalar-dan iborat.

27. Tish shifokori Uilyam Morton 1846-yili jarrohlikda og‘riq qoldiruvchi vosita yaratdi. U 1846-yil oltin-gugurtli efir bug‘ini narkoz sifatida ishlatib, bemorning bo‘ynidagi shishni og‘riqsiz olib tashladi. Olimlar buni

jarrohlikdagi revolutsiya deb atadilar. Ana shu tariqa narkozning yangi turi kashf etildi. Bu modda hozir ham tibbiyotda qo'llaniladi. Uning nomi:

- | | |
|---------------|--------------|
| A. Xloroform; | B. Navokain; |
| C. Etanol; | D. Butanol. |

28. Ma'lumki, ayrim kimyoviy elementlarda alotropik shakl o'zgarish xususiyati mavjud. Ana shunday elementlardan biri:

- | | |
|-------------|----------------------|
| A. Fosfor; | B. Kislorod; |
| C. Vodorod; | D. Ftor hisoblanadi. |

29. Berilgan moddaning kimyoviy xossalariga ega bo'lgan eng kichik zarracha qanday ataladi?

- | | |
|--------------|-------------|
| A. Molekula; | B. Atom; |
| C. Proton; | D. Neytron. |

30. Kimyoviy elementlarni faqat mashhur olimlar emas, yosh qiziquvchilar ham ko'plab ixtiro qilgan. Shulardan biri 24 yoshli fransuz Antuan Jerom Balar. Tajribalaridan birida tarkibida natriy bromid eritmasiga xlorli namakob qo'shilganda quyuq sariq rangga o'tganini kuzatadi. Bir necha yil tinmasdan ishlash natijasida qoramtir kulrang suyuqlikni ajratib olishga erishadi. Parij fanlar akademiyasida Gey-Lyussak va Tenarlar Balarning yangi kimyoviy elementni ixtiro etganligini tasdiqlashadi. Aytingchi, Balar qaysi elementni ixtiro etgan?

- | | |
|------------|------------|
| A. Brom; | B. Natriy; |
| C. Vismut; | D. Xlor. |

31. Kimyodagi elektroliz qonunini ixtiro qilgan olim «elektrod», «katod», «anod», «ion», «kation», «anion», «elektroliz», «elektrokimyoviy ekvivalent» kabi atamalarni fanga kiritgan. Bu kimyogarning nomi:

- A. N. Bor;
- B. M. Faradey;
- C. G. Devi;
- D. D. Mendeleyev.

32. Polimerlar kimyosi juda tez rivojlanayotgan fan tarmog'i hisoblanadi. Misol tariqasida bitta tajribani ko'rib chiqamiz. Probirkaga 10 tomchi suyuq fenol va 8 tomchi 40% li formaldegid qo'shib, suv hammomida 4–5 daqiqa qizdirib, ustiga 5 tomchi konsentrlangan xlorid kislota qo'shib, so'ngra sovuq suvda sovitamiz. Probirkada – suv va polimer qatlam hosil bo'ladi. Suvni to'kib tashlaymiz, polimer qismi bir necha daqiqa saqlanganda qattiq holatga o'tadi. Bu usulda qaysi polimer olinadi?

- A. Xlorfenol polimeri;
- B. Polifenol polimeri;
- C. Fenol formaldegid smola polimeri;
- D. Poliformaldegid polimeri.

33. Stakanga ozgina yod solib, ustiga novshadil spirtidan qo'shib, aralashtiramiz. Qora rangli cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kmani filtrlab ajratib olamiz. Kukun qurigach, uni siqing. Kuchli paqillagan ovoz chiqadi. Reaksiya natijasida qaysi modda hosil bo'lgan?

- A. Azot yodidi;
- B. Vodorod yodidi;
- C. Vodorod xloridi;
- D. Azot oksidi.

34. Davriy sistemadagi yagona suyuq metallning nomi:

- | | |
|------------|------------|
| A. Kalsiy; | B. Magniy; |
| C. Simob; | D. Kaliy. |

35. Quyida keltirilgan qaysi fikr eng to'g'ri?

- A. Suv dengizda ko'p;
- B. Suv okeanda ko'p;
- C. Suv yer sharida ko'p;
- D. Shimoliy muz okeanida ko'p.

36. Quyidagi qaysi metallar qimmatbaho metallarga kiradi?

- A. Oltin, kumush, platina;
- B. Mis, oltin, qo'rg'oshin;
- C. Aluminiy, mis, oltin, kumush;
- D. Kumush, qo'rg'oshin, iridiy.

37. 1874-yili D.I. Mendeleev ideal gaz holatining umumiy tenglamasini ishlab chiqqan. Bu tenglama hozirda qanday nomlanadi?

- A. Mendeleev-Lauaze tenglamasi;
- B. Mendeleev-Lomonosov tenglamasi;
- C. Mendeleev tenglamasi;
- D. Klayperon-Mendeleev tenglamasi.

38. 1828-yili Fridrix Veler ammoniy sianat izomeridan tarkibida amin guruhi bo'lgan modda sintez qilgan. Bu modda qanday nomlanadi?

- | | |
|--------------------|-------------|
| A. Ammoniy fosfat; | B. Ammiak; |
| C. Mochevina; | D. Melamin. |

39. Odamlarning soʻlak tarkibini aniqlash orqali uning ota-onasi kimligini hozirgi zamon kimyo fani juda aniqlik bilan topib beradi. Bu ixtiro 1953–1980-yillarda U. Gilbert, Ye. Shipov, A. Kornberg S. Ochoa, J. Uotson va F. Kriklar kabi kimyogarlarning ilmiy izlanishlari natijasidir. Olimlar qanday moddani ixtiro qilganlar?

- A. RNK; B. DNK;
- C. RNK-DNK; D. Polinukleid.

40. Kimyoviy jarayonlarni tezlashtirishda temperatura, bosim, radiatsiya, oksidlovchi moddalar taʼsiridan koʻpchilik kimyogarlar foydalanadi. 1975–1980-yillarda kimyogar olim R.Z. Sagdeyev xodimlari bilan kimyoviy jarayonni tezlashtirishning yangi usulini oʻylab topdi. Bu usulning nomi:

- A. Ultra fiolet nuri; B. Kislorod taʼsiri;
- C. Magnit maydoni taʼsiri; D. Sentrafuga taʼsiri.

41. Nobel mukofoti sovrindori Vilgelm Ostvald 1909-yili nitrat kislota ammiakdan olish usulini ishlab chiqqan. Bu usul nimaga asoslangan?

- A. Katalitik usulga;
- B. Kislorod taʼsirida oksidlash usuliga;
- C. Gologenlar taʼsir ettirish usuliga;
- D. Vodород peroksid taʼsir ettirish usuliga.

42. 1900-yili K. Vinkler va R. Knich sanoat asosida sulfat kislota ishlab chiqarish usulini ixtiro qilgan. Bu usul hozir ham qoʻllanilib kelmoqda. Bu qanday usul?

- A. Qizdirish; B. Oltingugurtni oksidlash;
- C. Вставка;
- D. Сервис.

45. «Линейка» menyuning qaysi bo'limida joylashgan?

- A. Вид;
- B. Формат;
- C. Файл;
- D. Правка.

46. Sana va vaqtni menyuning qaysi bo'limidan qo'yish mumkin?

- A. Вид;
- B. Вставка;
- C. Файл;
- D. Формат.

47. Qog'ozning o'lchamini (A3, A4 yoki A5 format) o'zgartirish qaysi buyruq yordamida amalga oshiriladi?

- A. Файл, Параметры страницы, Макет;
- B. Файл, Параметры страницы, Размер бумаги;

- C. Файл, Параметры страницы, Источник;
- D. Файл, Параметры страницы, Ориентация.

48. Bitta hujjatga nechta izoh qo'yish mumkin?

- A. Istalgancha;
- B. Faqat bitta;
- C. Ko'pi bilan o'nta;
- D. Ikkita.

49. Bitta hujjatda nechta abzas bo'ladi?

- A. Matn hajmiga bog'liq;
- B. Faqat bitta;
- C. Foydalanuvchiga bog'liq;
- D. Har bir sahifada bittadan.

50. Oldindan chop etish holatini ko'rish buyrug'i qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Файл, Предварительный просмотр;
- B. Предварительный просмотр, Файл;
- C. Вид, Просмотр файла;
- D. Файл, Просмотр файла.

51. Obyekt ustida sichqonchanning o'ng tugmasi bosilsa, qanday hodisa yuz beradi?

- A. Kontekst menyu chaqiriladi;
- B. Joriy obyekt tanlanadi;
- C. Joriy satr tanlanadi;
- D. Yordam chaqiriladi.

52. Tanlash maydonchasida sichqonchanning chap tugmasini uch marta bosish natijasida nima sodir bo'ladi?

- A. Abzas belgilanadi.

B. Sichqoncha ko'rsatkichi ro'parasidagi satr belgilanadi;

C. Gap belgilanadi;

D. Barcha matn belgilanadi.

53. Qaysi klavishlar kombinatsiyasi yordamida kursordan o'ngdagi belgini belgilash (blokka olish) mumkin?

A. Shift+→Стрелка вправо»;

B. Strl+→Стрелка вправо»;

C. Alt+→Стрелка вправо»;

D. Tab+→Стрелка вправо».

54. Qaysi klavishlar kombinatsiyasi yordamida kursordan oldingi belgini belgilash (blokka olish) mumkin?

A. Shift+→Стрелка влево»;

B. Ctrl+→Стрелка влево»;

C. Alt+→Стрелка влево»;

D. Tab+→Стрелка влево».

55. Qaysi klavishlar kombinatsiyasi yordamida hujjat boshidan kursorgacha bo'lgan matnni belgilash (blokka olish) mumkin?

A. Ctrl+Home;

B. Ctrl+Shift+Home;

C. Shift+Alt+Home;

D. Alt+Home.

56. Qaysi klavishlar kombinatsiyasi yordamida kursordan hujjat oxirigacha bo'lgan matnni (blokka olish) mumkin?

A. Ctrl+Shift+End; B. Ctrl+End;

C. Shift+Alt+End; D. Ctrl+Shift+PageDown.

57. Qaysi klavishlar kombinatsiyasi yordamida kursorning chap tomonidagi soʻzni belgilash (blokka olish) mumkin?

- A. Shift+→Стрелка влево»;
- B. Ctrl+Shift+→Стрелка влево»;
- C. Shift+Alt+→Стрелка влево»;
- D. Ctrl+→Стрелка влево».

58. Sichqoncha yordamida satrni qanday qilib belgilash mumkin?

A. Satr qarshisidagi tanlash maydonchasiga kursorni oʻrnatib, sichqonchaning chap tugmachasini bir marta bosish kerak;

B. Satr qarshisidagi tanlash maydonchasiga kursorni oʻrnatib, sichqonchaning oʻng tugmachasini bir marta bosish kerak;

C. Satr qarshisidagi tanlash maydonchasiga kursorni oʻrnatib, sichqonchaning chap tugmachasini ikki marta bosish kerak;

D. Satr qarshisidagi tanlash maydonchasiga kursorni oʻrnatib, sichqonchaning oʻng tugmachasini ikki marta bosish kerak.

59. Sichqoncha yordamida gapni qanday qilib belgilash mumkin?

A. Kursorni gapning ichiga oʻrnatib, Ctrl klavishini ushlagan holda sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish;

B. Kursorni gapning ichiga oʻrnatib, Shift klavishini ushlagan holda sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish;

C. Kursorni gapning ichiga o‘rnatib, Alt klavishini ushlagan holda sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish;

D. Kursorni gapning ichiga o‘rnatib, Alt klavishini ushlagan holda sichqonchaning o‘ng tugmasini bir marta bosish.

60. Tanlash maydonchasida sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish natijasida nima sodir bo‘ladi?

A. Gap belgilanadi;

B. Sichqoncha ko‘rsatkichi ro‘parasidagi satr belgilanadi.

C. Abzas belgilanadi;

D. Barcha matn belgilanadi.

61. Qaysi buyruq hujjatga klaviaturada yo‘q belgini qo‘yish imkonini beradi?

A. Вставка, Символ;

B. Правка, Символ;

C. Файл, Вставить Символ;

D. Сервис, Символ.

62. Ekranda vertikal chizg‘ich ko‘rinib turishi uchun ... holatiga o‘tish kerak?

A. Разметка страницы;

B. Обычный;

C. Структуры;

D. Мастер.

63. Standart uskunalar panelidagi chop etilmaydigan belgilar tugmachasi nima uchun mo‘ljallangan?

- A. Yashirin matnni ko'rsatish/ko'rsatmaslik uchun;
- B. Boshqarish belgilari va yashirin matnni ko'rsatish/ko'rsatmaslik uchun;
- C. Hujjat kolontitulinini ko'rsatish/ko'rsatmaslik uchun;
- D. Rasm va obyektlarni ko'rsatish/ko'rsatmaslik uchun.

64. Hujjatda obyekt (matn, rasm va h. k.) belgilangan. Siz klaviatura yordamida matnni terishni boshlasangiz qanday hodisa ro'y beradi.

- A. Belgilangan obyekt yo'qoladi va shu joyda matn teriladi;
- B. Belgilangan obyektдан chapda matn teriladi;
- C. Belgilangan obyektдан o'ngda matn teriladi;
- D. Obyekt ichida matn hosil bo'ladi.

65. Qaysi yo'l bilan blokka olingan kichik harflarni bosh harflarga o'tkazish mumkin?

- A. Формат, Регистр;
- B. Вид, Регистр;
- C. Правка, Буквица;
- D. Формат, Буквица.

66. Abzaslar orasiga ma'lum interval qo'yish uchun qaysi buyruqlar kombinatsiyasidan foydalanish kerak?

- A. Формат, Шрифт, Интервал;
- B. Формат, Абзац, Интервал;
- C. Формат, Список, Интервал;
- D. Формат, Межабзацный интервал.

67. Ekran elementi – «линейка» nima uchun kerak?

A. «Абзац» va «табулятор» chegarasini oʻrnatish uchun;

B. Matnning gorizontal yurgichini oʻrnatish uchun;

C. Kursor oʻrmini hisoblash uchun;

D. Sahifaning masshtabini oʻrnatish uchun.

68. Matn foni va jadval kataklarining rangini qaysi yoʻl bilan oʻzgartirish mumkin?

A. Заливка;

B. Кадр;

C. Цвет;

D. Тень.

69. Matn atrofini yoki jadval katagini chegaralash uchun qaysi elementdan foydalanish kerak?

A. Страница;

B. Заливка;

C. Граница;

D. Объект.

70. Qanday buyruq yordamida matnni «obyekt» atrofida joylashtirish mumkin?

A. Формат объекта, Привязать текст;

B. Формат объекта, Обтекание;

C. Формат, Привязать объект;

D. Обрамление.

71. Hujjatning barcha sahifalariga bir xilda beza-kli ramka qoʻyish imkonini beruvchi buyruqlar ketma-ketligini koʻrsating.

А. Правка, Границы и заливка, Страница, Рисунок;

В. Формат, Границы и заливка, Страница, Рисунок;

С. Формат, Автоформат, Страница, Рисунок;

Д. Формат, Стиль.

72. Ekranda gorizontal yoki vertikal o'tkazish yo'lakchalari (полоса прокрутки) ko'rinmasa, ularni ... buyruqlari yordamida o'rnatish mumkin.

А. Сервис, Параметры, Вид;

В. Правка, Специальная вставка;

С. Формат, Упорядочить все;

Д. Формат, Стиль.

73. ... buyruqlari yordamida qatorlar orasidagi masofani o'zgartirish mumkin?

А. Сервис, Параметры, Вид, Интервал;

В. Правка, Специальная вставка, Интервал;

С. Формат, Абзац, Интервал;

Д. Формат, Автоформат, Интервал.

74. Matn shriftini quyi yoki yuqori indeks sifatida yozish imkonini beruvchi buyruqni ko'rsating.

А. Правка, Специальная вставка, Эффекты;

В. Формат, Шрифт, Видоизменение;

С. Вид, Упорядочить эффекты;

Д. Формат, Стиль, Видоизменение.

75. Bir nechta grafik obyektlarni belgilash uchun tanlash jarayonida qaysi klavish bosib turilishi lozim?

А. Shift;

- B. Alt;
- C. Ctrl;
- D. Alt+Shift.

76. Agar matn jadvalda bo'lmasa va «Сортировка» buyrug'i berilsa, u holda...

- A. Saralash satrlar bo'yicha olib boriladi;
- B. Saralash abzaslar bo'yicha olib boriladi;
- C. Saralash bajarilmaydi;
- D. Saralash sahifalar bo'yicha olib boriladi.

77. Chop etilmaydigan belgilar...

- A. Ekranda ko'rinadi, lekin printerda chop etilmaydi;
- B. Ekranda ko'rinmaydi, lekin printerda chop etiladi;
- C. Hujjatdagi o'zgartirilgan joylarni ko'rsatadi;
- D. Ekranda ham ko'rinadi, printerda ham chop etiladi.

78. Enter klavishining bosilishi nimani anglatadi?

- A. Har bir satrning oxirini;
- B. Abzasning boshini;
- C. Gapning oxirini;
- D. Xatolarni tekshirishni.

79. Internet-provayder nima?

- A. Internetga ulanmoqchi bo'lgan shaxs;
- B. Internetga ulanmoqchi bo'lgan tashkilot;
- C. Global tarmoqqa doimiy ulangan kompaniya;
- D. Internetga ulanishni to'xtatgan tashkilot.

80. Internet-provayderga ulanish tezligi:

- A. Bit/s – bir soniyada provayder serveridan sizning kompyuteringizga uzatiladigan bitlar soni;
- B. Kg/s – bir soniyada provayder serveridan sizning kompyuteringizga uzatiladigan ma'lumotlarning og'irligi (kilogrammda);
- C. M/s – bir soniyada provayder serveridan sizning kompyuteringizga uzatiladigan ma'lumotlarning uzunligi (metrda);
- D. To'g'ri javob yo'q.

81. Internet-trafik – bu:

- A. Internet tarmog'i serveridan sizning kompyuteringizga yuklangan ma'lumotlarning hajmi;
- B. Internet tarmog'i serveridan sizning kompyuteringizga va sizning kompyuteringizdan Internet serveriga yuklangan ma'lumotlarning hajmi;
- C. Sizning kompyuteringizdan Internet serveriga yuklangan ma'lumotlarning hajmi;
- D. Internet tarmog'i serveridan sizning kompyuteringizga va sizning kompyuteringizdan Internet serveriga yuklangan kunduzgi ma'lumotlarning hajmi.

82. Elektron pochta:

- A. Xatlarni ixtiyoriy joydan jo'natib, ixtiyoriy joyda ochish mumkin;
- B. Xatlarni ixtiyoriy joydan jo'natib, faqat bir joyda ochish mumkin;
- C. Xatlarni faqat bir joydan jo'natib, ixtiyoriy joyda ochish mumkin;
- D. Xatlarni faqat bir joydan jo'natib, faqat bir joyda ochish mumkin.

83. Sanoq sistemalarining necha turi mavjud?

- A. Ikki xil;
- B. Bir xil;
- C. Uch xil;
- D. Cheksiz ko'p.

84. Quyidagilardan qaysi biri sanoq sistemasiga kiradi?

- A. Pozitsion va pozitsion bo'lmagan;
- B. Shartli va shartsiz;
- C. Unli va unsiz;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

85. Rim raqamlari qaysi sanoq sistemasiga kiradi?

- A. Pozitsion;
- B. Pozitsion bo'lmagan;
- C. Shartli;
- D. Shartsiz.

86. 10lik sanoq sistemasi qaysi sanoq sistemasiga kiradi?

- A. Pozitsion bo'lmagan;
- B. Pozitsion;
- C. Shartli;
- D. Shartsiz.

87. Pozitsion bo'lmagan sanoq sistemasida ...

- A. Raqamning qiymati uning sondagi o'rniga bog'liq emas;
- B. Raqamning qiymati uning sondagi o'rniga bog'liq;

C. Raqamning qiymati sondagi raqamlar soniga bog'liq;

D. Raqamning qiymati sondagi raqamlar soniga bog'liq emas.

88. Pozitsion sanoq sistemasida... .

A. Raqamning qiymati uning sondagi o'rniga bog'liq emas;

B. Raqamning qiymati uning sondagi o'rniga bog'liq;

C. Raqamning qiymati sondagi raqamlar soniga bog'liq;

D. Raqamning qiymati sondagi raqamlar soniga bog'liq emas.

89. Pozitsion sanoq sistemalarining asosi sifatida ... olingan.

A. 10 soni; B. 8 soni;

C. 16 soni; D. 2 soni.

90. Ixtiyoriy R pozitsion sanoq sistemasida raqamlar soni.

A. R ta; B. R-1 ta;

C. R+1 ta; D. 10 ta.

91. 16 lik sanoq sistemasida raqamlar soni:

A. 17 ta; B. 16 ta;

C. 5 ta; D. 10 ta.

92. 101010 soni qaysi sanoq sistemasida bo'lishi mumkin?

A. 2; B. 8;

C. 10; D. Ixtiyoriy pozitsion sanoq sistemasida.

93. 12345 soni qaysi sanoq sistemasida bo'la olmaydi?

- A. Asosi 6 dan kichik bo'lgan;
- B. Asosi 6 dan katta bo'lgan;
- C. Asosi 6 bo'lgan;
- D. Asosi 6 bo'lmagan.

94. Triada (3 ta ikkilik razryad) yordamida eng ko'pi bilan qaysi sanoq sistemasining barcha raqamlarini ikkilikda ifodalash mumkin?

- A. 8 lik sanoq sistemasining;
- B. 2 lik sanoq sistemasining;
- C. 10 lik sanoq sistemasining;
- D. 16 lik sanoq sistemasining;

95. Tetrada (4 ta ikkilik razryad) yordamida eng ko'pi bilan qaysi sanoq sistemasining barcha raqamlarini ikkilikda ifodalash mumkin?

- A. 8 lik sanoq sistemasining;
- B. 2 lik sanoq sistemasining;
- C. 10 lik sanoq sistemasining;
- D. 16 lik sanoq sistemasining.

96. Agar ixtiyoriy belgi kompyuter xotirasidan 1 bayt joy egallasa, 1 bayt yordamida nechta belgining kodini tasvirlash mumkin?

- A. 256 ta;
- B. 255 ta;
- C. 8 ta;
- D. Bu kompyuter xotirasiga bog'liq.

97. Ikkilik sanoq sistemasidagi 111 soni sakkizlik sanoq sistemasidagi qaysi songa mos keladi?

- A. 6 ga; B. 7 ga;
C. 5 ga; D. 0 ga.

98. Ikkilik sanoq sistemasidagi 1111 soni 16 lik sanoq sistemasidagi qaysi songa mos keladi?

- A. F ga; B. A ga;
C. 9 ga; D. 0 ga.

99. 16 lik sanoq sistemasidagi A ga ikkilik sanoq sistemasidagi qaysi son mos keladi?

- A. 1010; B. 1111;
C. 1000; D. 1001.

100. 8lik sanoq sistemasidagi 527 ga ikkilik sanoq sistemasidagi qaysi son mos keladi?

- A. 101010111;
B. 111100001;
C. 111010101;
D. 100110010.

101. 16 lik sanoq sistemasida $6+5$ nimaga teng?

- A. A ga; B. B ga;
C. 11 ga; D. 9 ga.

102. 8 lik sanoq sistemasida $6+5$ nimaga teng?

- A. 13 ga; B. 11 ga;
C. 12 ga; D. 9 ga.

103. 2 lik sanoq sistemasida $111+111$ nimaga teng?

- A. 1001 ga; B. 1111 ga;
C. 1110 ga; D. 0110 ga.

104. Musbat butun sonlar kompyuter xotirasida qaysi kodda saqlanadi?

- A. To'g'ri;
- B. Teskari;
- C. To'ldiruvchi;
- D. Aniqllovchi.

105. Quyidagilardan qaysi biri sonning normal ko'rinishi?

- A. $0,125 \cdot 10^0$;
- B. $1,25 \cdot 10^{(-1)}$;
- C. $125,0 \cdot 10^{(-3)}$;
- D. $0,000125 \cdot 10^3$.

Testlarning to'g'ri javoblari

1. A.	28. A.	55. B.	82. A.
2. A.	29. D.	56. A.	83. A.
3. B.	30. A.	57. B.	84. A.
4. C.	31. A.	58. A.	85. B.
5. A.	32. B.	59. A.	86. B.
6. A.	33. A.	60. C.	87. A.
7. A.	34. A.	61. A.	88. B.
8. C.	35. A.	62. A.	89. A.
9. B.	36. A.	63. B.	90. B.
10. A.	37. B.	64. A.	91. C.
11. D.	38. A.	65. A.	92. D.
12. A.	39. C.	66. B.	93. A.
13. A.	40. C.	67. D.	94. A.
14. C.	41. B.	68. A.	95. D.
15. A.	42. A.	69. C.	96. A.
16. B.	43. A.	70. B.	97. B.
17. A.	44. A.	71. B.	98. A.
18. D.	45. A.	72. A.	99. A.
19. B.	46. B.	73. C.	100. A.
20. A.	47. B.	74. B.	101. B.
21. B.	48. A.	75. A.	102. A.
22. C.	49. C.	76. B.	103. C.
23. C.	50. A.	77. A.	104. A.
24. B.	51. A.	78. B.	105. A.
25. B.	52. D.	79. C.	
26. A.	53. A.	80. A.	
27. B.	54. A.	81. B.	

MANTIQUIY SAVOLLAR

1. Daryo tagida qanday tosh bo'lmaydi?

- A. Oq tosh;
- B. Qora tosh;
- C. Quruq tosh;
- D. Ho'l tosh.

2. Qanday soat 1 sutkada 2 marta vaqtni to'g'ri ko'rsatadi?

- A. Elektron soat;
- B. Mexanik soat;
- C. Har qanday soat;
- D. Ishlamayotgan soat.

3. Ma'lumki, yozda kun uzun, tun qisqa bo'ladi. Qishda esa aksincha, kun qisqa tun uzun bo'ladi. 30-sentabrda kun uzunroqmi yoki 30-fevralda?

- A. 30-sentabrda;
- B. 30-fevral umuman yo'q;
- C. Ikkala sanada bir xil;
- D. Fevralda.

4. Ikkita tayoqning 4 ta, bitta tayoqning 2 ta uchi bor. Bir yarimta tayoqning nechta uchi bor?

- A. Uchta;
- B. Ikkita;
- C. To'rtta;
- D. Tayoqning uzunligiga bog'liq.

5. Qo‘limizda 10 ta barmoq bor. 10 ta qo‘lda nechta barmoq bor?

- | | |
|------------|------------------------|
| A. 100 ta; | B. 50 ta; |
| C. 25 ta; | D. To‘g‘ri javob yo‘q. |

6. Gugurti uydagi polning qayeriga qo‘ysak, ustidan sakrab o‘tib bo‘lmaydi?

- | | |
|----------------|------------------------|
| A. O‘rtasiga; | B. Chetiga; |
| C. Burchagiga; | D. Bo‘yalmagan joyiga. |

7. Gugurt bilan qorong‘i xonaga kirdingiz. U yerda sham, gaz plita, chiroq, qog‘oz bor. Birinchi nimani yoqasiz?

- | | |
|--------------|--------------|
| A. Shamni; | B. Qog‘ozni; |
| C. Chiroqni; | D. Gugurti. |

8. Daladagi qanday traktorga qushlar qo‘nadi?

- A. Yashil traktorga;
- B. Kichik traktorga;
- C. Ishlamay turgan traktorga;
- D. Istalgan traktorga.

9. Qanday chelakka suv quyib bo‘lmaydi?

- | | |
|------------|------------|
| A. Teshik; | B. To‘la; |
| C. Bo‘sh; | D. Kichik. |

10. Sovqotayotgan odam nima qiladi?

- | | |
|----------------|--------------|
| A. Kiyinadi; | B. Yuvinadi; |
| C. Qaltiraydi; | D. Uxlaydi. |

11. Yomg'ir yog'ib turganda qarg'a qanday daraxtga qo'nadi?

- A. Yong'oqqa;
- B. Ho'l daraxtga;
- C. Quruq daraxtga;
- D. Terakka.

12. Suv qayerda ustundek turadi?

- A. Quduqda;
- B. Tarnovda;
- C. Sharsharada;
- D. Stakanda.

13. «Shar»ning o'rtasida nima bor?

- A. Havo;
- B. *a* harfi;
- C. Hech narsa;
- D. Geliy.

14. Ona bilan bolani nima bog'lab turadi?

- A. Mehr;
- B. «Bilan» bog'lovchisi;
- C. Beshik;
- D. Rishta.

15. Kimning oldida hamisha bosh kiyim yechiladi?

- A. Ustozning;
- B. Ayol kishining;
- C. Sartaroshning;
- D. Rahbarning.

16. Nimaga ko‘pincha beparvolik bilan qaraydilar va afsuslanib yuradilar?

- A. Vaqtga;
- B. Pulga;
- C. Televizorga;
- D. O‘qishga.

17. Bir traktorchining 3 ta dehqon akalari bor ekan. Lekin bu dehqonlarning birorta ham traktorchi ukasi yo‘q ekan. Nima uchun?

- A. Ular o‘gay;
- B. Traktorchi – ayol;
- C. Ularning ukasi ham dehqon;
- D. A va B javoblar noto‘g‘ri.

18. Nega suv ichiladi?

- A. Chunki, uni yeb bo‘lmaydi;
- B. Ovqatni hazm qilish uchun;
- C. Chanqaganimiz uchun;
- D. Chuchuk bo‘lgani uchun.

19. To‘nkada bir oilaning 2 farzandi turibdi. Kattasi akasi, kichigi ukasi emas. U kim?

- A. Egizagi;
- B. Singlisi;
- C. Qo‘shnisi;
- D. Opasi.

20. IX asr oxirida Iskandar Zulqarnayn bilan Aleksandr Makedonskiy jang qilgan. Ularning qaysi biri g‘olib bo‘ldi?

- A. Iskandar Zulqarnayn;
- B. Aleksandr Makedonskiy;
- C. Hech biri;
- D. Ikkisi bir odam.

21. Olmani teng ikkiga bo'lib, bir bo'lagini qo'lingizga olib qarasangiz u nimaga o'xshaydi?

- A. Yurakka;
- B. Ikkinchi yarmiga;
- C. Nokka;
- D. Anorga.

22. Madinaning dadasini 4 ta farzandi bor. 1. Murod. 2. Feruza. 3. Sherzod. To'rtinchi farzandning ismi nima?

- A. Dilfuza;
- B. Dilshod;
- C. Madina;
- D. Ismini aniqlab bo'lmaydi.

23. Hovuz 8 kunda to'lgan. Har kuni suv 2 baravar ko'paygan bo'lsa, necha kunda yarim bo'lgan?

- A. 4 kunda;
- B. 7 kunda;
- C. 6 kunda;
- D. 5 kunda.

24. Qaysi oyda odamlar kamroq gapiradi?

- A. May;
- B. Dekabr;
- C. Ramazon;
- D. Fevral.

25. Nima uchun sigir faqat yotadi va turadi?

- A. Yeganini xazm qilish uchun;
- B. Chunki, o'tirolmaydi;
- C. Arqoni kalta bo'lgani uchun.
- D. Chunki, uxlamaydi.

26. To'rtburchak stolning bitta burchagini kesib tashlasak, nechta burchagi qoladi?

- A. Uchta;
- B. To'rtta;
- C. Beshta;
- D. Burchak qolmaydi.

27. Nimani kerakli paytda tashlab, keraksiz paytda ko'tarishadi?

- A. Axlatni;
- B. Kema langarini;
- C. Qarmoqni;
- D. Qog'ozni.

28. Eng katta qozonga nima sig'maydi?

- A. Ko'pik;
- B. Bug';
- C. O'zining qopqog'i;
- D. Hamma narsa sig'adi.

29. Ota va o'g'il, bobo va nevara 3 ta tuxumni bittadan yeyishibdi. Shunday bo'lishi mumkinmi?

- A. Bobosi tuxum yemagan;
- B. Nevara tuxum yemagan;
- C. Bunday bo'lishi mumkin emas;
- D. Aslida ular uch kishi: bobo, ota, o'g'il.

30. Yigit qizni yaxshi ko'rar ekan. Qiz esa yigitni uncha yaxshi ko'rmas ekan. Yigit qizning tug'ilgan kuniga bir narsa sovg'a qilibdi. Shundan keyin qiz ham yigitni yaxshi ko'radigan bo'libdi. Yigit qizga nima sovg'a qilgan?

- A. Gul;
- B. Uzuk;
- C. Pul;
- D. Ko'zoynak.

31. Osmonda 2 ta oʻrdak uchib bormoqda. Ovchi ularni otib tushirdi. Bitta oʻrdakning qornida bolasi bor ekan. Nechta oʻrdak oʻldi?

- A. Uchta;
- B. Oʻrdakning qornida bolasi boʻlmaydi;
- C. Ikkita, qornidagi oʻlmagan;
- D. Bitta.

32. Bir chol nevarasiga pul beribdi va debdi: bozorga borib uzum, oʻrik olma, nok va anjir olib kel. Nevarasi nok bilan anjir olib kelibdi. Nima uchun?

- A. Qolganiga puli yetmagan;
- B. Bozorda uzum, oʻrik, olma qolmagan.
- C. Chol: uzum va oʻrikni olma, – demoqda.
- D. Nok bilan anjirni yaxshi koʻrgani uchun.

33. Qoʻlimizda koʻp narsa bor. Shuning uchun uni ... kerak. Nima qilish kerak?

- A. Tez-tez yuvish kerak;
- B. Qoqib tashlash kerak;
- C. Artish kerak;
- D. Avaylash kerak.

34. Oʻzi qattiq, lekin ichiladi.

- A. Asal;
- B. Dori (tabletk);
- C. Novvot;
- D. Muz.

35. Ichiladi, idishda saqlab boʻlmaydi.

- | | |
|-----------|-------------|
| A. Qasam; | B. Sumalak; |
| C. Qatiq; | D. Ayron. |

36. Toshkentdagi uncha kichik bo'lmagan teatrning nomi nima?

- A. O'zbek milliy akademik teatri;
- B. Muqimiy nomidagi musiqali teatr;
- C. Yosh tomoshabinlar teatri;
- D. A. Navoiy nomidagi katta akademik teatri.

37. Har qanday tilda javob qaytaradi. U nima?

- A. Radio;
- B. Telefon;
- C. Tarjimon;
- D. Aks-sado.

38. Qanday savolga «ha» deb rost javob berib bo'lmaydi?

- A. «Uylandingmi?» – degan savolga;
- B. «Ovqatlanasanmi?» – degan savolga;
- C. «Uxlayapsanmi?» – degan savolga;
- D. «Uyg'ondingmi?» – degan savolga.

39. Bir sandiqda hamma narsa bor. U liq to'la. Lekin nimadir yo'q. Sandiqda nima yo'q?

- A. Qulf;
- B. Soya;
- C. Bo'sh joy;
- D. Tartib.

40. Mushuk qachon uyga kiradi?

- A. Yomg'ir yoqqanda;
- B. Zerikkanda.
- C. Qorong'i tushganda;
- D. Eshik ochilganda.

41. Bo'sh qoringa nechta tuxum yeyish mumkin?

- A. 4 ta;

- B. 1 ta, keyin qorin bo'sh bo'lmaydi;
- C. To'yguncha;
- D. Ko'p tuxum yeyish ziyon.

42. Zahiriddin Muhammad Bobur Boborahim Mashrabning g'azallarini o'qiganmi?

- A. Albatta;
- B. Faqat turkiy g'azallarini;
- C. Yo'q, vaqti bo'lmagan;
- D. Yo'q, Bobur Mashrabdan oldin yashagan.

43. Gippokrat: «Donolik ham bir kasallik, lekin afsuski, u ...» Jumlani to'ldiring.

- A. Davolanmaydi;
- B. Yuqumli;
- C. Yuqumli emas;
- D. Hammaga tegmaydi.

44. Qopqondagi tekin pishloq kimga nasib etadi?

- A. Sichqonga;
- B. Mushukka;
- C. Ikkinchi sichqonga;
- D. Hech kimga.

45. Futbolchi bilan ko'chadagi piyodaning qanday farqi bor?

- A. Futbolchi maydonda, piyoda ko'chada;
- B. «Qizil»ni ko'rib piyoda to'xtaydi, futbolchi chiqib ketadi;
- C. Futbolchi yuguradi, piyoda yugurmaydi;
- D. Katta farqi bor.

46. Eyfel minorasidek katta, lekin og'irligi bir gramm ham chiqmaydi, bu nima?

- A. Bulut;
- B. Eyfel minorasining soyasi;
- C. Eyfel minorasining maketi;
- D. Eyfel minorasining surati.

47. Stakandagi kofeni qaysi qo'l bilan aralashtirgan ma'qul?

- A. O'ng qo'l bilan;
- B. Aralashtirish shartmas;
- C. Chap qo'l bilan;
- D. Qoshiq turgan qo'l bilan.

48. Tungi soat 2 da qor yog'ayotgan bo'lsa, 96 soatdan so'ng quyoshli havoni kutish mumkinmi?

- A. Mumkin;
- B. Mumkin emas, balki qor tinmas;
- C. Mumkin emas, yana tun bo'ladi;
- D. Hamma narsa bo'lishi mumkin.

49. Yem, xashak yemaydigan otni qayerda ko'rgansiz?

- A. Ko'rmaganman;
- B. Suratda;
- C. Chanqagan ot yem-xashak yemaydi;
- D. Shaxmat taxtasida.

50. Nonushtaga qanday ikki narsani yeb bo'lmaydi?

- A. Sarimsoq va tuxumni;
- B. Tushlik va kechki ovqatni;
- C. Pishloq va kolbasani;
- D. Saryog' va nonni.

Mantiqiy savollarning to'g'ri javoblari

1. C.	18. A.	35. A.
2. D.	19. B.	36. D.
3. B.	20. D.	37. D.
4. C.	21. B.	38. C.
5. B.	22. C.	39. C.
6. C.	23. B.	40. D.
7. D.	24. D.	41. B.
8. C.	25. B.	42. D.
9. B.	26. C.	43. C.
10. C.	27. B.	44. C.
11. B.	28. C.	45. B.
12. A.	29. D.	46. B.
13. B.	30. D.	47. D.
14. B.	31. B.	48. C.
15. C.	32. C.	49. D.
16. A.	33. A.	50. B.
17. B.	34. B.	

MANTIQUIY JUMBOQLAR

1

Bir malikaga ikki shahzoda oshiq bo‘lishibdi. Malika ularga shart qo‘yibdi: «Qaysi biringiz yaxshi chavandoz bo‘lsangiz, o‘shanga turmushga chiqaman. Qo‘shni qishloqdan saroygacha ot choptirib kelasiz. Kimning oti ikkinchi bo‘lib kelsa, o‘shani tanlayman» – debdi. Yigitlar aytilgan joyga borib otlarini choptirmay turaverishibdi. Shunda bir chol kelib qolibdi va yigitlarning qulog‘iga nimadir debdi va yigitlar cholning aytganini qilib, otlarini choptirib ketishibdi. Chol nima degan?

2

Qiz va yigit jar oldiga borib qolishibdi. Qiz yigitga «Agar meni sevsangiz, shu jarga sakraysiz, aks holda men sevgingizga ishonmayman» – debdi. Yigit ham bir gap aytgan ekan qiz shartidan qaytibdi. Yigit nima degan?

3

Bir qorovul tushida saroyni yov bosayotgani, hammani bir-bir qilichdan o‘tkazayotganini ko‘ribdi va darhol podshoga aytibdi. Podsho askarlarga hushyor turishni buyuribdi. Haqiqatan yov bosib kelibdi. Lekin, tayyor turgan askarlar yovni yakson qilibdi. Podsho esa qorovulga 100 tillo mukofot beribdi va ishdan bo‘shatibdi. Nega ishdan bo‘shatgan?

4

Bir xonadonda qotillik sodir bo‘libdi. Yetib kelgan militsiya xodimlariga qo‘shnilar niqob kiygan qotil uy egasini otib qochib ketganini aytishibdi. Tergovchi hamma xonalarga kirib chiqibdi: jasad yo‘q. U boshqalarni

chiqarib yuborib, o'zi divanga o'tiribdi. Jim-jit xonada ancha o'ylab o'tirgach, birdan murdani divanning tagidan topibdi. Tergovchi buni qanday sezgan?

5

Bir ko'zi ko'r podsho yashagan ekan. U o'z portreti-ni chizdirish uchun eng mohir rassomlarni to'plabdi. Ularning ko'pchiligi podshoni ikkala ko'zi ochiq yoki bir ko'zi ko'r qilib tasvirlagani uchun qatl qilinibdi. Shunda bir havaskor rassom bu ishning uddasidan chiqibdi. U podshoga manzur portret chizibdi. Bu rassom podshoni qanday tasvirlagan?

6

Bir go'zal va dono malika bor ekan. Uning oshiq-lari ko'p bo'lib, malika ularning zukkoligini sinash uchun shart qo'yibdi. Tong saharda lolazorga kirib qizil lolaga aylanibdi. Lolazordagi ming-ming lolalar ichidan uni topgan shahzodaga turmushga chiqishga rozi bo'libdi. Bir shahzoda to'g'ri borib malikani ko'rsatibdi. U qanday topgan?

7

Uch og'a-ini uchovlariga yetadigan yegulik tayyor-lashibdi. To'ng'ich aka ovqatga 1 qoshiq tuz solibdi. O'rtanchasi ham undan bexabar 1 qoshiq tuz solibdi. Kenja uka ham akalaridan bexabar 1 qoshiq tuz solibdi. Taom dasturxonga tortilganda uning ta'mi o'zgarmagan edi. Og'a-inilar qanday yegulik tayyorlashgan?

8

Bir orolda 40 malika yashar ekan. Orolga kelgan shahzodalardan «qaysi birimiz chiroyliroqmiz?» – deb so'rasharkan. Bittasini aytsa, qolgan 39 tasi uning boshi-

ni tanasidan judo qilar ekan. Bir shahzoda shunday gap aytibdiki, uni o'ldirishmabdi. Shahzoda nima degan?

9

Qozonni yuvib, yog' solib qizdirasiz. Piyoz solib qovurasiz va unning ustiga suv solib qaynatasiz. Qanday taom tayyor bo'ladi?

10

Bir qiz Namangan viloyatidagi tuman markaziga borayotib, daraxt tagida o'tirib dam oladi va tanavvul qiladi. Shu dam yonidan beozor bir hayvon yugurib o'tadi. Orqasidan quvib kelayotgan ovchiga qiz bir so'z aytadi. Ovchi uyalib orqasiga qaytadi. Qizning ismi, tuman markazi, daraxt va yegulik, beozor hayvon nomi ham, qiz ovchiga aytgan so'z ham o'ngiga va teskarisiga bir xil o'qiladi.

11

Ko'prikning o'ng tarafida qiz, chap tarafida yigit turibdi. Ular bir-birlariga bir og'izgina so'z aytishadi. Bu bilan ham iltifot ko'rsatishdi, ham o'zlarini tanishtirishdi. Ular nima deyishgan?

12

Bir bolaning qo'lida qanchadir puli bo'lib, unga ko'prikning oldida sehrGAR duch kelibdi. «Xohlasang, shu ko'prikdan o'tganingda pulingni ikki baravar ko'paytirib qo'yaman. Faqat menga 24000 so'm berasan» – debdi sehrGAR. Bola rozi bo'libdi. Haqiqatan ko'prikdan bir marta o'tganda puli 2 baravar ko'payib qolibdi. 24000 so'mini sehrGarga beribdi. Shunday qilib, davom etaveribdi, lekin 3 marta o'tgandan so'ng bolaning puli qolmabdi. Dastlab bolada qancha pul bo'lgan?

Bir odamning uyiga mehmon kelibdi. Uning bittagina qo‘yi bor ekan. Shunday bo‘lsa ham, mehmonga qarab: «Siz o‘tirib turing, hozir qo‘y so‘yaman. Bo‘lsa ikkita, bo‘lmasa bitta so‘yaman» – debdi. Mehmon bu gapga hayron bo‘libdi. Mezbon nima uchun shunday degan?

Bir mamlakat podshosi agar xotini o‘g‘il tug‘sa qamoqdagi mahbuslarni to‘liq ozod qilib yuborishi, agar qiz tug‘ilsa ular o‘taydigan jazo muddatlarining yarmini qisqartirishi haqida farmon chiqaribdi. Tez kunda malika qizlik bo‘libdi. Podshoning farmoniga ko‘ra 4 yilga qamalganlarning jazo muddati 2 yilga, 2 yilga qamalganlarniki 1 yilga qisqaribdi, va xokazo. Bir mahbus umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan ekan. Vazirlar unga podsho farmonini qanday joriy qilishni bilmay boshlari qotibdi. Nima qilish kerak?

Ota-bola avtohalokatga uchrab, kasalxonaga keltirilibdi. Ota halok bo‘libdi. Bolani operatsiya qilmoqchi bo‘lishibdi. Jarroh bolani ko‘rib «O‘g‘lim» deb hushidan ketibdi. Shunday bo‘lishi mumkinmi?

Bir dorixonaga 10 shisha dori keltirilibdi. Hammasining shakli ham, kattaligi ham bir xil ekan. Lekin, bitta shishadagi dorilarning har bir donasi qolgan shishalardagidan 1 milligramm og‘ir ekan. Tarozi va uning har xil toshlari yordamida faqat bir marta tortish

bilan soxta dorilar (tabletkalar) solingan shishani qanday aniqlash mumkin?

17

Bir yigit sehrarga duch kelibdi. Sehrgar yigitga «tila tilagingni, faqat bitta tilagingni bajaraman» – debdi. Yigitning otasi ko‘r, onasining esa bir oyog‘i yo‘q, o‘zi befarzand ekan. Yigit bir gap aytibdi va uning bu tilagini sehrgar amalga oshiribdi. Natijada yigit farzandli bo‘libdi, onasining oyog‘i chiqibdi, otasi ko‘ra boshlabdi. Dono yigit qanday tilak bildirgan?

18

Dehqon bozorga bir savat olma olib chiqibdi. Birinchi xaridorga olmalarning yarmini va yana yarimta olma, ikkinchi xaridorga qolgan olmalarning yarmini va yana yarimta olma va boshqalarga ham shunday sotibdi. Oltinchi xaridor ham savatda qolgan olmalarning yarmini va yana yarimta olma olgan ekan, savatda olma qolmabdi. Savatda nechta olma bo‘lgan va har bir xaridor nechtdan olma olishgan? Aytganday, xaridorlarning birontasida ham yarimta olma yo‘q ekan.

19

Ona chayladagi o‘g‘illariga tushlik keltiribdi. O‘g‘illari charchab uxlab qolishgan ekan ularni uyg‘otgisi kelmabdi va tog‘orani qo‘yib ketibdi. Katta o‘g‘il turib qarasa bir tog‘ora somsa turibdi. Somsalarni sanab teng uchga bo‘libdi. O‘ziga tegishlisini yeb, qolganini ukalariga qoldiribdi va yana yotib uxlabdi. O‘rtancha o‘g‘il uyg‘onib, u ham somsalarni teng uchga bo‘lib, o‘ziga tegishlisini yebdi va yotib uxlabdi. Kenja

o'g'il uyg'onib, akalaridan bexabar somsalarning uchdan bir qismini yegan ekan, tog'orada yana 8 ta somsa qolibdi. Hamma somsa nechta bo'lgan va aka-ukalarining har biri nechtdan somsa yeyishgan?

20

Bir mamlakat podshosi hamma vazirlarini yig'ib nochorlikdan chiqish yo'llarini aytishni buyuribdi. Bir vazir shunday taklif kiritibdi: «Qo'shni davlatga urush boshlasak ular bizni bosib oladi va xalqimizni boqishga majbur bo'ladi.» Podsho bu taklifga rozi bo'lib turganda, ikkinchi vazir boshqa fikrni aytibdi va podsho urush boshlash niyatidan qaytibdi. Ikkinchi vazir nima degan?

21

Polkovnikning o'g'li otasi bilan suhbatlashib o'tiribdi. Polkovnik ularga choy keltirmoqda. Bu qanday bo'lishi mumkin?

22

Bir yigit harbiy qismga kirish uchun soqchiga aytiladigan parolni aniqlash maqsadida panaroq joyda poylab turibdi. Bir askar soqchining oldiga yaqinlashganda soqchi: «Yigirma ikki» – debdi. Askar «O'n bir» – deb javob beribdi. Ikkinchi askar yaqinlashganda soqchi «O'n ikki» – debdi. Askar «Olti» – deb javob beribdi. O'zicha «Parolni bilib oldim» – deb o'ylagan yigit soqchiga yaqinlashibdi. Soqchi «O'ttiz» – degan ekan, yigit «O'n besh» deb javob beribdi. Soqchi yigitni «parolni noto'g'ri aytding» – deb binoga kiritmabdi. Yigit parolga qanday javob berishi kerak edi?

23

Bir kishi do‘kondan har kuni 3 ta non sotib olar ekan. Bir kuni sotuvchi so‘rabdi. «Bir necha yildan beri har kuni 3 ta non olasiz. Kamaytirmaysiz ham, ko‘paytirmaysiz ham. Sababi nima?» u kishi javob beribdi: «Bittasini qarzimga beraman. Bittasini xotinim bilan yeymiz. Uchinchisini qarzga beraman.» – deb ketib qolibdi. Sotuvchi o‘ylanib qolibdi. Bu javobning ma’nosi nima?

24

Bir paytning o‘zida ham suvning ustida, ham suvning ostida ketayotgan qizning kiyimlari qup-quruq ekan. Bu qanday bo‘lishi mumkin?

25

Ko‘prikdan 3 kishi o‘tmoqda. Biri ko‘rib, yurib o‘tyapti, ikkinchisi ko‘rib, yurmay o‘tyapti, uchinchisi ko‘rmay, yurmay o‘tyapti. Ular kimlar?

26

Bir yigit mashinasiga o‘tirgan qizning qo‘lini so‘rabdi. Qiz yigitga: «Mening ismim mashinangizning nomerida yashiringan. Agar ismimni topsangiz taklifingizni o‘ylab ko‘raman» – debdi. Yigitning avtomobil raqami 56-03 ekan. Qizning ismi nima?

27

Abdulla Oripovning «Cheksizlik» she‘ridan parcha:

Deydilar ... ning chegarasi yo‘q,
 Milliard yulduzlarning so‘ngi ham ...
 U shu qadar cheksiz, shu qadar buyuk,
 Xayolga sig‘dirib bo‘lmaydi hatto.

Bu to'rtlikda yetishmayotgan so'z nima? Ya'ni uch nuqta o'rnida qanday so'z bor?

28

Hindular 3 ta oq tanli askarni qo'lga olishibdi. Qabila boshlig'i bu asirlarga shart qo'yibdi: «Qo'limda 3 ta qora, 2 ta oq pat bor. Ko'zlaringni bog'lab, boshlaringga bittadan patni qadab qo'yamiz. Qolgan ikki patni yashirib qo'yaman. Uchovingni orqama-ketin joylashtirib, ko'zlaringni ochamiz. Kim o'zining boshidagi patning rangini to'g'ri aytsa, uchalangni ham ozod qilaman. Aks holda, qatl qilamiz» – debdi. Xuddi shunday qilishibdi. Ko'zlari yechilgandan so'ng biroz muddat o'tib, birinchi turgan oq tanli «boshimdagi patning rangi qora» – debdi. Vaholanki, u hech kimning boshidagi patni ko'rmagan edi. Uning boshidagi patni orqasidagi ikkala askar ko'rib turgandi. Ikkinchi askarning boshidagi patni esa uchinchi askar ko'rib turgandi. Qabila boshlig'i javob to'g'ri bo'lgani uchun asirlarni qo'yib yuboribdi. Birinchi askar boshidagi patning rangini qanday topdi?

29

Mo'jiza daraxtda bog'bon 25 ta olma va 30 ta nok yetishtirdi. Har kuni u 2 ta meva uzadi va shu zahoti daraxtning qaysidir shoxida 1 ta meva paydo bo'ladi. Agar bir xil meva uzilgan bo'lsa, olma paydo bo'ladi, har xil meva uzilgan bo'lsa, nok paydo bo'ladi. Oxirida daraxtda qanday meva qoladi?

30

Hamrohingiz shunday joyda o'tiribdiki, u turib ketsa, siz u yerga o'tirolmaysiz. Hamrohingiz qayerda o'tiribdi?

Hotamtoydan: «O‘zingizdan ham saxiy kishini uchratganmisiz?» – deb so‘rashibdi. U javob qilibdi: «Safarda bo‘lgan paytimda bir yigitning xonadonida mehmon bo‘ldim. O‘nta qo‘yidan bittasini so‘yib oldimga pishirib keldi. Men qo‘y go‘shtining bir joyidan ozgina olib yedim va «shirin ekan» dedim. Shunda yigit «hozir kelaman», deb chiqib ketib, bir ishni amalga oshirib keldiki, uning qilgan ishini 500 ta qo‘y bilan taqdirladim». Savol: yigit chiqib qanday ishni bajarib kelgan?

Alifbo «a» harfidan boshlanadi. Lekin, shunday harflar jadvali borki, u «и» harfidan boshlanadi. U qanday harflar jadvali?

Mantiqiy jumboqlarning javoblari

1. Chol «otlaringizni almashtirib mininglar» – degan.
2. «Mayli, faqat o‘zingiz itarib yuboring» – degan.
3. Uxlagani uchun.
4. Tinch xonada jasadning qo‘lidagi soat chiqillashi eshitiladi.
5. Ov paytida bir ko‘zini yumib, miltiq otayotgandek tasvirlagan.
6. Malikaning ustida shudring bo‘lmaydi. Boshqa lolalarga shudring tushgan.
7. Tuxum qaynatishgan.
8. «Mayli, meni o‘ldiringlar. Faqat orangizdagi eng xunuk malika o‘ldirsin» – degan.
9. Atala.
10. Aziza, Pop tumani, tut daraxti, non yegan, kiyik, nodon.
11. «Marhamat», «Rahmat».
12. 21000 so‘m.
13. Agar qo‘yning qornida bolasi bo‘lsa 2 ta, bo‘lmasa 1 ta so‘yiladi.
14. Mahbusni umrining oxirigacha bir kun ozodlikda, bir kun qamoqda saqlash kerak.
15. Jarroh – bolaning onasi.

16. Birinchi shishadan 1 ta, ikkinchi shishadan 2 ta, uchinchi shishadan 3 ta va hokazo, o‘ninchi shishadan 10 ta dori (tabletk) olib, tarozida bir tortishda aniqlash mumkin. Agar me’yordan 1 mg ortiq bo‘lsa, birinchi shishada, 2 mg ortiq bo‘lsa, ikkinchi shishada va hokazo, 10 mg ortiq bo‘lsa, o‘ninchi shishada soxta tablet-kalar bor.

17. «Onam farzandimni ko‘tarib yurganini otam ko‘rsin» – deb tilak bildirgan.

18. Savatda 63 ta olma bo‘lgan. Birinchi xaridor 32 ta, ikkinchi xaridor 16 ta va hokazo, oltinchi xaridor 1 ta olma olgan. 63 ning yarmi 31,5. Unga yarimta olma qo‘shilsa, 32 ta bo‘ladi.

19. Somsalar 27 ta bo‘lgan. To‘ng‘ich o‘g‘il 9 ta, o‘rtancha o‘g‘il 6 ta, kenja o‘g‘il 4 ta somsa yegan.

20. «Agar urushda biz g‘alaba qozonsak, u holda biz ularning xalqini boqishimizga to‘g‘ri keladi» – degan.

21. Polkovnik – ayol kishi. Uning eri va o‘g‘li suhbatlashib o‘tirishibdi, o‘zi esa choy keltiryapti.

22. Yigit soqchi aytgan «O‘ttiz» so‘zidagi harflar sonini bildiruvchi «Besh» so‘zini aytib javob berishi kerak edi.

23. «Qarzimga beraman» – degani ota-onasiga beradi. «Qarzga beraman» – degani farzandlariga.

24. Boshida suv to‘la ko‘zani ko‘tarib ko‘prikdan o‘tayotgan qiz.

25. Bola ko‘targan homilador ayol.

26. Bonu. Raqamlarning bosh harflaridan tuzilgan.

27. Fazo.

28. U biroz kutdi. Agar uning va ikkinchi askar-ning boshida oq pat bo'lganda, uchinchi askar darhol «boshimdagi pat qora» degan bo'lar edi, lekin u jim turibdi. Agar birinchi askar boshida oq, ikkinchi askar boshida qora pat bo'lganda, ikkinchi askar o'z boshidagi patning rangini tez topardi. Lekin u ham jim turibdi. Demak, birinchi askar boshidagi oq pat emas.

29. Olma qoladi. Chunki, olmalar soni har kuni 1 taga o'zgaradi. Noklar soni esa har kuni yoki o'zgarmaydi, yoki 2 tadan kamayadi.

30. Sizning tizzangizda o'tiribdi.

31. Yigit qolgan hamma qo'ylarini so'yib, meh-monga yoqqan joyini pishirib kelgan.

32. Ko'z shifokorlarining harflar jadvali.

MUNDARIJA

ADABIYOT.....	3
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	22
MATEMATIKA	23
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	62
FIZIKA.....	63
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	106
KIMYO	107
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	140
TARIX.....	141
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	174
CHIZMACHILIK	175
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	196
INFORMATIKA	197
Testlarning to‘g‘ri javoblari.....	221
MANTIQUIY SAVOLLAR	222
Mantiqiy savollarning to‘g‘ri javoblari	232
MANTIQUIY JUMBOQLAR.....	233
Mantiqiy jumboqlarning javoblari.....	242

Ilmiy-ommabop nashr

*BAHROM AKBAROV, MIRALI PO‘LATOV,
MAHMUD PRIMQULOV, NORMAT G‘OIPOV,
O‘TKIR HUSANOV, FERUZA OMONOVA,
IKROM RAHMONOV, MUHIDDIN RUSTAMOV*

O‘TKIR ZEHNILAR KITABI 4

(O‘smir yoshdagi bolalar uchun IV gr.)

O‘quvchilar uchun testlar

Muharrir *N. Qidiraliyev*
Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*
Rassom *Sh. Qurbonov*
Texnik muharrir *T. Xaritonova*
Kichik muharrir *D. Xolmatova, G. Yeralieva*
Musahhih *D. Mahmudova*
Kompyuterda sahifalovchi *F. Tugusheva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.09.
Bosishga ruxsat etildi 2016-yil 15-iyul.
Ofset qog'oz. Bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 13,02. Nashr tabog'i 12,87.
Adadi 5000. Buyurtma № 16-443.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Akbarov, Bahrom.

A 18 O'rkir zehnlilar kitobi 4 / B. Akbarov. – Tosh-
kent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. – 248 b.

ISBN 978-9943-28-519-4

UO'K: 821.512.133
KBK 84(50⁴)7